

A.AHRONQULOV, A.RAHMONQULOV

**JAHON BOLALAR ADABIYOTI  
NAMOYONDALARI**

FARG'ONA – 2012

Taqrizchilar: A. Qosimov – filologiya fanlari doktori,  
O. Mamaziyaev – filologiya fanlari nomzodi, VPKQTMOI dotsenti

Ushbu uslubiy ko'rsatmada jahon va rus bolalar adabiyotining taniqli vakillari hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar, ularning sara asarlaridan namunalar joy olgan bo'lib, u oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'qitiladigan bolalar adabiyoti fanidan seminar, amaliy mashg'ulotlar olib borish uchun mo'ljallangan, shuningdek, undan o'qituvchilar, o'quvchilar, talabalar va boshqa adabiyot muhlisllari ham foydalanishlari mumkin.

Farg'ona davlat universiteti Ilmiy kengashi tomonidan  
nashrga tavsiya etilgan

## SO'Z BOSHI

Jahon bolalar adabiyoti deganimizda yer yuzidagi barcha xalqlarning atoqli yozuvchilari yaratgan, nafaqat o'z xalaqlari balki barcha xalqlar bolalari uchun sevimli bo'lib ulgurgan badiiy asar namunalarini tushunamiz. Jahon bolalar yozuvchilari deganimizda o'zbek bolalari uchun ham allaqachon sevimli Sh. Perro, Daniel Defo, Jonatan Swift, aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmlar, Karlo Kollodi, Mark Tven, Frencis Bret Gart, Xans Kristian Andersen, Redyard Jozef Kipling, Antuan de Sent-Ekzyuperi, A.S.Pushkin, N.A.Nekrasov, L.N.Tolstoy, K.I.Chukovskiy, S.Y.Marshak, N.N.Nosov kabi atoqli adiblar yodimizga tushadi.

Chunki buyuk fransuz ertakchisi Sh. Perroning „Qizil Shapkacha“, „Zolushka“ va „Etik kiygan mushuk“, ingliz adibi Daniel Defoning “Robinzo Kruzo”, mashhur ingliz yozuvchisi Jonatan Swiftning “Gulliverning sayohatlari”, nemis adiblari aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmlarning ajoyib ertaklari, italiya adibi Karlo Kollodining “Pinokkioning boshidan kechirganlari”, aerikaning mashhur yozuvchisi Mark Tven qalamiga mansub “Shahzoda va gado”, “Tom Soyerning sarguzashtlari”, “Ovsar Vilson”, “Geklberri Finning boshidan kechirganlari”, yana bir amerikalik yozuvchi Frencis Bret Gartning “Cho'lidan topilgan bola”, daniyalik mashhur Xans Kristian Andersen ertaklari, ingliz adibi Redyard Jozef Kipling qalamiga mansub “Jungli kitobi”, “Shunchaki kichkintoylar”, “Maugli”, fransuz yozuvchisi Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda”, buyuk shoir A.S.Pushkinding „Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak“, „Baliqchi ham baliq haqida ertak“, „O'lik malika va yetti bahodir haqida ertak“, „Oltin xo'roz haqida ertak“, “Shoh Sultan haqida ertak” kabi ertak-dostonlari , N.A.Nekrasovning “Sasha”, “Ayoz hukmdor”, “Kuzak”, “Bulbullar”kabi go'zal she'rlari, ulug rus yozuvchisi L.N.Tolstoy qalamiga mansub “Fillipok”, “Danak”, “Chol bilan nabira”, “Arslon bilan it”, “Akula”, “Sakrash” kabi ertak va hikoyalari, K.I.Chukovskiyning “Barmaley”, “Doktor Aybolit”, S.Ya.Marshakning “Ahmoq sichqoncha haqida ertak”, “Kecha va bugun”, N.N.Nosovning “Bilmasvoy va do'stlarining sarguzashtlari”, “Bilmasvoy Quyosh shahrida”, “Bilmasvoy Oyda” kabi asarlarini butun dunyo bolalari, shu jumladan o'zbek bolalari ham sevib o'qiydilar. Jahon bolalar adiblarining ijod namunalari o'zbek xalqi manaviy merosining bir bo'lagiga aylanib ulgurgan.



## DANIEL DEFO (1660–1731)

Daniel Defo jahon adabiyoti tarixiga o'lmas «Robinzon Kruzo» asarining muallifi sifatida kirgan. U ingлиз va Yevropa adabiyotida roman janriga asos solgan mashhur yozuvchidir. O'z zamonasining ilg'or ziyolilaridan bo'lган D.Defo ajoyib publisist, talantli jurnalist sifatida ham shuhrat qozongan.

Daniel Defo savdogar oilasida tug'iladi. Uning otasi Jems Fo puritanlik mazhabiga sodiq edi. (Puritanlar – Jeneva ruhoniysi Jan Calvin ta'limoti tarafдорлари edilar.) Puritanlik o'sha paytda ko'tarilib kelayotgan burjuaziya mazhabi bo'lib, ular diniy e'tiqod har kimning shaxsiy ishi deb bilgan holda, Angliyaning amaldagi rasmiy davlat cherkovi dinini tan olmas edilar. Puritanlar reaksiyon monarxiyaga qarshi kurash olib bordilar. Puritan mazhabi o'z muhiblaridan jo'n hayot kechirishni talab qilar, o'yin-kulgi, teatr tomoshalari ham ular nazarida katta gunoh hisoblanar edi.

Bo'lajak yozuvchini otasi puritan diniy akademiyasiga o'qishga beradi. Ammo D.Defo savdo ishiga qiziqib, umrining oxiriga qadar yirik kommersant bo'lib qoladi. Tijorat ishlari bilan Yevropaning juda ko'p mamlakatlariga – Portugaliya, Ispaniya, Italiya va Fransiyaga boradi. D.Defo savdo-sotiq ishi bilan shug'ullangani holda mamlakat hayotida yuz berayotgan voqealarga ham aralashadi. Ko'p sonli maqola va pamphletlarida feodal-aristokratlar bilan cherkov reaksiyasi fosh qiladi. Burjua –parlamenti tartiblarini yoqlab chiqadi.

Daniel Defoning adabiy faoliyati nihoyatda keng va rang-barang. Uning bir talay maqola va pamphletlaridan tashqari, ekonomika, tarix, pedagogika, statistika, geografiya, falsafa, meditsinaga bag'ishlangan bir qancha asarlari bor.

## «ROBINZON KRUZO» ROMANI

Daniel Defo buyuk kashfiyotlar davrida yashadi. U jahongashta sayyoohlар, savdogarlar, oson yo'l bilan boylik orttirish va dovrug' qozonishni orzu qilgan turli xil kishilar, yangi yerlar ochish, yangi savdo bozorlarini qidirib topish, odam oyog'i tegmagan manzillarni aniqlashga intilgan burjua vakillari hayotidan ko'plab asarlar yaratdi. Lekin yozuvchiga shuhrat keltirgan asari «Robinzon Kruzo» (1719) romani bo'ldi.

«Robinzon Kruzo» romani shunday bir davrda, Angliyada paydo bo'lishi ajablanarli emas. Chunki Buyuk Britaniya har tomonдан dengiz va okeanlar bilan o'ralgan xilma-xil sarguzashtlar, ajoyib-g'aroyib hodisalarga juda boy mamlakat ediki, bular D.Defoning romani uchun yaxshi matiyerial bergan. «Robinzon Kruzo» asarining yozilishiga sabab bo'lган ayrim konkret faktlar, materiallar ham bor.

1713 yili ingлиз yozuvchisi Richard Stil «Angliyalik» nomli jurnalda Aleksandr Selkirk to'g'risidagi ocherki bilan chiqadi. Aleksandr Selkirk Shotlandiya matrosi bo'lib, kema kapitani bilan janjallahшиб qoladi. Uni Janubiy

Amerikaning Chili qirg'oqlaridagi Xuan Fernandes orollaridan biriga tushirib ketadilar. Selkirk kimsasiz orolda 4 yil 4 oy hayot kechiradi. U deyarli yovvoyilashib qoladi. 1709 yili sobiq matrosni uchratgan ingliz kemasi uni Angliyaga olib ketadi. Aleksandr Selkirkning ko'rgan-kechirganlari katta shovshuvlarga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, D.Defo dengizchilar, sayyoohlar hayotiga oid ko'plab kitoblar bilan ham tanishib chiqqan. Bunday hodisalar «Robinzon Kruzo» romanining yaratilishi uchun turtki bo'lgan bo'lsa-da, D.Defoning kitobi mutlaqo original asar hisoblanadi. Agar Aleksandr Selkirk – jonli odam, kimsasiz orolda 4 yildan oshiqroq vaqt ichida yovvoyilashib ketsa, D.Defoning fantaziysi bilan yaratilgan qahramon Robinzon Kruzo 28 yil yashaydi va u bani odamga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni o'zida to'la saqlab qoladi.

Robinzon Kruzo yoshlik chog'idan dengizga juda qiziqadi. Shuning uchun u ota-onasining gapiga qulq solmay, uydan chiqib ketadi. Londonga borib savdo kemasining kapitani bilan do'stlashadi va u bilan Afrika sohillariga mol olib borib savdo qilib yuradi. Kunlardan bir kuni kemaga jazoyirli qaroqchilar hujum qilib, Robinzonni asir oladilar. Bir necha vaqt qullik azobini chekkan Robinzon o'ziga o'xshash qul negr yigitni Ksuri bilan birga qochadi. Ular ochiq dengizda Portugaliyaning kemasiga duch keladilar. Bu kema Robinzon va uning hamrohini Braziliyaga olib boradi, Robinzon Ksurini kema kapitaniga qul sifatida sotadi.

Braziliyada bir qancha vaqt dehqonchilik bilan shug'ullanangach, Robinzon oson pul topish maqsadida, yana savdo kemasiga chiqadi. Bu kema halokatga uchrab, Robinzonning yolg'iz o'zi kimsasiz orolga tushib qoladi. U o'zini yo'qotmay halokatga uchragan kemadan omon qolgan buyumlarni qirg'oqqa tashib oladi. Sohilga yaqin yerda boshpana quradi, yerto'la qazib, uning atrofini mustahkamlaydi. O'ziga yog'ochdan stol-kursilar yasab oladi, kalendar tutadi. Ovchilik qiladi, yovvoyi echkilarni tutib, qo'lga o'rgatadi. Dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Vataniga qaytish maqsadida qayiq yasash ishi bilan ko'p ovora bo'ladi. Orolda yashagan kuniga 25 yil to'lganda, ittifoqo bir yovvoyi yigitni orolxo'rlardan qutqarib, unga Jumaboy deb nom beradi. Yana birmuncha vaqt o'tgach, uning oroliga kelgan yovvoyilar qo'lidan Jumaboyning otasini va oq tanli bir ispaniyalik kishini qutqaradi. Orolda yashayotganining oxirgi yili bir ingliz kemasida isyon ko'targan matroslar kema kapitanini kimsasiz orolda qoldirib ketmoqchi bo'lganda, Robinzon o'z hamrohlari bilan u kapitanni qutqaradi. Buning evaziga ingliz kemasining kapitani Robinzon va uning sheriklarini Angliyaga eltilib qo'yadi.

«Robinzon Kruzo» romani bosilib chiqqach, katta shuhrat qozondi va adib bu muvaffaqiyatdan foydalanib, o'sha 1719 yili asarning ikkinchi qismini – «Robinzon Kruzoning keyingi sarguzashtlari» ni yozdi. Romanning ikkinchi qismida qahramon dunyoning juda ko'p joylarini aylanib chiqadi: Madagaskar, Hindiston, Xitoy, Sibir, Arxangelsk va Tobolskda bo'ladi. Ilgari yashagan kimsasiz orolga borib, koloniya tashkil qiladi.

D.Defo romanining ikkinchi qismi muvaffaqiyat qozonmasa-da, har holda kitobxonlarda birmuncha qiziqish uyg'otdi.

Bundan so'ng, ko'p o'tmay, D.Defo o'z asarining uchinchi qismi – «Robinzon Kruzoning jiddiy mulohazalari» ni (1720) yozdi. Ammo Robinzon Kruzo haqidagi so'nggi qism kitobxonlar ishonchini oqlamadi. Bu asar diniy, axloqiy mulohazalardan, tijorat ishlariga daxldor pand-nasihatlar yig'indisidan iborat bo'lib qoladi. Birinchi qismda chaqqon, tadbirkor bo'lган qahramon oxirgi qismda o'z jozibadorligini yo'qotib, kishini zeriktiradigan ezma nasihatgo'yga aylanadi.

D.Defoning trilogiyasi orasida eng ommalashgan, kitobxonlar hurmatini qozongani uning birinchi kitobidir.

«Robinzon Kruzo» romanining asosiy qismi yolg'iz insonning kimsasiz orolda yovuz tabiat kuchlari bilan yuzma-yuz olishuviga bag'ishlangan. Bu kurashda qahramon g'alaba qozonadi, yovvoyi orolni inson yashaydigan ajoyib makonga aylantiradi. U og'ir sharoitda faqat o'z kuchi, aql-irodasiga ishonib ish ko'radi. Yozhuvchi bu bilan go'yo inson kishilar jamiyatidan ajralgan holda ham yashay olishi mumkin, degan XVIII asr falsafasiga xos qarashni isbotlamoqchi bo'ladi.

Romanda XVIII asr kishilarining qarashlariga binoan «tabiiy odam» tushunchasi o'rtaga tashlanadi. Yozuvchi Robinzonni «tabiiy odam» sifatida olib, uning ibridoiy holatidan to burjuaziya madaniyatiga qadar bosib o'tgan yo'lini tasvirlaydi. Bu bilan insondagi «tabiiy odam» xususiyatlari hamma vaqt o'zgarmasdan qoladi, deb hisoblaydi. Tarix individlardan, «tabiiy odam»lardan boshlanadi, degan bunday xom xayollarni faylasuflar o'z vaqtida fosh qilgan edilar.

O'sha vaqtarda insoniyat taraqqiyoti zamirida ijtioiy mehnat munosabatlari yotadi, deb ta'kidlanar edi. Shuning uchun ham Robinzon Kruzo kimsasiz orolda 28 yil umr kechiradiki, uning ixtiyorida insoniyatning uzoq yillik tarixi davomida yaratilgan mehnat qurollari: bolta, mix, miltiq, o'q-dori, mato, ip, igna, siyoh, qog'oz hamda arpa va sholi doni, tavrot kitobi mavjud edi. Robinzon ana shu buyumlar yordamida yerto'la quradi, ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik qiladi, kiyim-kechak, oziq-ovqat tayyorlaydi. Agar kishilik kollektivi tomonidan yaratilgan ana shu mehnat qurollari bo'limganda, Robinzon orolda uzoq yillar yashab, tirikchilik qilolmas edi.

Robinzon oroldagi turmushi, kundalik mehnati ikir-chikirlarigacha bataafsил hikoya qilinadi. Qahramonning o'y-fikrlari, bajaradigan ishlari, tashvish va quvonchlari shu qadar sodda, haqqoniy tasvirlanadiki, kitobxon beixtiyor unga ishonadi. Robinzon Kruzo obrazi o'quvchining ko'z o'ngida jonli kishidek gavdalananadi. Syujet voqealarining sodda, qiziqarli tilda hikoya qilinishi asarning o'qimishli bo'lishini ta'minlagan.

## ROBINZON OBRAZI

Robinzon kuch-qudratli, tadbirkor kishi. Undagi tashabbuskorlik, iroda va g'ayrat bitmas-tuganmas. Robinzon eng og'ir daqiqalarda ham tushkunlikka tushmasdan, yuz bergen vaziyatdan qutulish yo'lini topadi. U zamonasining, o'sha davr uchun ilg'or fikrli burjua sinfining farzandi. Shuning uchun ham Robinzon

tabiatida qarama-qarshilik bor. Robinzon xarakteridagi burjua kishisiga xos alomatlarni dengizda savdogarchilik qilishi, afrikaliklarga asir tushganda do'stlashib qolgan negr yigitni Ksurini qul sifatida sotib yuborishi lavhalarida ko'rish mumkin.

Robinzon Ksurini qul sifatida sotayotganda, qora tanlilar oq tanlilarga butunlay qaram bo'lishi kerak, degan tushunchada edi. Shuning uchun ham chin do'stlik uning hayotida o'z ma'nosini yo'qotadi.

Odam oyog'i tegmagan orolga tushib qolgan Robinzon bu orolni o'zining xususiy mulki deb hisoblaydi. Og'ir mehnat qilayotganida, birorta yovvoyi odamni tutib olib, barcha og'ir ishlarni unga buyurish, o'zi esa xo'jayinlik qilish ilinjida yuradi. Darhaqiqat, Robinzon bиринчи bor uchrashgan yovvoyi odam – Jumaboyni o'z xizmatkoriga aylantiradi. Bu yovvoyi yigitni juma kuni odamxo'rللار qo'lidan qutqargani uchun unga Jumaboy deb nom beradi. Yigitning asl nomini hatto surishtirib ham o'tirmaydi. Robinzonning Jumaboya о'rgatgan ilk so'zi «janob» bo'ldi, negaki, Jumaboy Robinzonga murojaat qillganida daf'atan ana shu «janob» so'zini ishlatishi kerak. Lekin Robinzon Jumaboydagи aql, idrok, farosatni ko'rgach, unga nisbatan o'z fikrini o'zgartiradi. Jumaboy bilan yumshoq muomala qiladigan, uni o'ziga yaqin tutadigan bo'lib qoladi.

Robinzon Kruzo o'z orolida burjua kishisiga xos xo'jalikni barpo etadi. U tashkil qilgan dehqonchilik, chorvachilik chinakam «burjua» xo'jaligiga o'xshaydi. Chunki bu orol yolg'iz uning mulki, Robinzon esa orolning mutlaq hokimi hisoblanadi. Robinzon har bir narsaga xususiy mulkchi nuqtai nazaridan undan keladigan foydaga qarab baho beradi. Masalan, daraxtlar uning uchun faqat qurilish materiali, hayvonlar – oziq-ovqat manbai va hokazo.

Xuddi muallifning o'zi singari, qahramon ham har xil narsalarga ishonadi. Har bir ko'rgan tushi biror hodisadan darak beradi, deb o'laydi. Robinzon Kruzo kimsasiz orolga tushib qolganini ilohiy kuchning irodasi, otasining gapiga kirmagani uchun unga berilgan jazo, deb tushunadi. Har kuni uch mahal tavrot kitobini mutolaa qilishni esdan chiqarmaydi. Ammo Robinzon xarakteridagi boylarga xos sifatlar uning ishchanligi, uddaburonligi, chaqqon va tadbirkorligi oldida ojiz va rangsiz bo'lib qoladi. Robinzon eng avval mehnat kishisi. U kitobxonning ko'z o'ngida o'jar tabiatni o'ziga bo'ysundirgan zahmatkash inson sifatida gavdalananadi.

Robinzon orolda o'zi yakka qolganida umidsizlanmaydi, balki mudom vataniga qaytib borish, kishilar jamiyatiga qo'shilishni orzu qiladi. U orzumand inson sifatida kitobxonning diqqatini qozonadi.

Qahramon har kungi kechmishtalarining kundaligini yozib borishdan erinmaydi. U oroldagi hayoti bilan inson ijodiy imkoniyatlarining katta ekanligini namoyish qiladi. Yigirma sakkiz yil kimsasiz orolda mehnat bilan yashab, butun qobiliyati va iqtidorini takomillashtira boradi. Bu jihatdan D.Defoning romani XVIII asr ma'rifatchilik adabiyotining ilk namunasi ekanini ko'ramiz. «Robinzon Kruzo» ning tarbiyaviy ahamiyati, o'lmas asarlardan biri bo'lib qolishining boisi undagi o'jar tabiatni o'zgartiruvchi mehnatning madh etilishidir. Robinzon burjua jamiyati vakili, lekin unda insonparvarlikka xos qarashlar yo'q emas. Qahramon o'z hayotini xavf ostiga qo'yib bo'lsa ham, Jumaboyni, uning otasini, oq tanli

ispan kishisini hamda kema kapitanini o'limdan qutqaradi. Uning yovvoyi odamlar bilan bo'lgan munosabati (Jumaboy, uning otasi) haqiqiy do'stlikka aylanib ketadi.

«Robinzon Kruzo» romani bolalar kitobi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Robinzon bajarayotgan mehnat jarayonining batafsil hikoya qilinishi yosh kitobxonlarda alohida havas uyg'otadi. Qahramon o'quvchining ko'z o'ngida goh toshyo'nar, goh dehqon, goh duradgor, goh kemasoz, goh yer haydovchi, goh ovchi sifatida gavdalananadiki, bu yosh kitobxonga olam-olam huzur bag'ishlaydi. Robinzon bu xildagi ishlarni bajarar ekan, juda katta qiyinchiliklarga duch keladi. Ammo irodasi qattiq bo'lgan Robinzon o'z maqsadiga erishish uchun har qanday dushvorliklarni yengadi. Yosh kitobxon borgan sari kimsasiz orolda Robinzon hayotining mukammallahib, mazmun kasb etib borayotganiga guvoh bo'ladi. Ayniqsa, asarning sodda, jozibador tili va uslubi bolalarda qiziqish uyg'otib, ularda mehnatga hamda insonga hurmatini tarbiyalaydi.

D.Defo asarining tarbiyaviy ahamiyatini frantsuz ma'rifatparvari Jan Jak Russo va chex yozuvchisi Julius Fuchik yuqori baholagan.

«Robinzon Kruzo» romani bosilib chiqqandan beri ikki yarim asrdan ko'proq vaqt o'tdi. Shunga qaramay, D.Defoning ajoyib asari hamon kitobxonlarga badiiy zavq beradi.

«Robinzon Kruzo» romani dunyoning juda ko'p tillariga tarjima qilingan. Jumladan, o'zbek tiliga ham bir necha bor o'girilgan va o'zbek kitobxonining eng sevimli asarlaridan biriga aylangan.

O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi, 1870 yillardan boshlab Toshkentda «Turkiston viloyatining gazeti» ning nashr etilishi, jahon adabiyotining nodir asarlari mahalliy tillarga, jumladan, o'zbek tiliga tarjima qilinishi o'zbek kitobxonlarini ilg'or adabiyot namunalari bilan tanishtirish bobida qilingan bebaho ishlardan hisoblanadi. O'zbek tiliga ilk marotaba tarjima qilingan asarlar orasida Daniel Defoning «Robinzon Kruzo» romani birinchi o'rinnlarda turadi. Muhammad Fozilbek Otabek o'g'li tomonidan qilingan tarjimada asar qahramoni Robinzon o'ta dindor kishi sifatida berilgan. Romanning Yo'ldosh Shamsharov qalamiga mansub keyingi tarjimasi avvalgi xatolardan xoli va ancha mukammal chiqqan.

«Robinzon Kruzo»ning muvaffaqiyat qozonishi adibni yana bir qancha asarlarini yozishga undadi. «Kapitan Ginglton» (1720), «Kavalerning memuarlari» (1721), «Mashhur Moll Flendersning quvonch va iztiroblari» (1721), «Polkovnik Jakning tarixi va ajoyib hayoti», (1722), «Roksana» (1724) va boshqalar D.Defoning iste'dodli romanavis ekanligidan dalolat beradi. D.Defo romanlarining qahramonlari burjuva tuzuminingadolatsiz, rahm-shafqatsiz sharoitida tug'ilib o'sgan kishilar obrazlaridir. Ularning har biri ana shuadoltsiz jamiyat bilan yakkama-yakka, ayovsiz kurashga kirishadilar. Bu kurashda goh mag'lubiyatga uchrasalar, goh g'alaba qozonadilar.

D.Defo uzoq yillik jurnalistlik faoliyati yordamida o'zi yashab turgan Angliya burjuva mehnatini juda yaxshi o'rgangan. Bu esa asarlarida burjuva jamiyatnining chirkin hayotini haqqoniy tasvirlashga imkon bergan.

Daniel Defo realistik, ma'rifatparvarlik ruhidagi romanlari bilan ingliz adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan san'atkor yozuvchi. U o'z davri hayotini badiiy umumlashtirish orqali adabiyotning xalqchil bo'lishi uchun kurashadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Robinzon Kruzo kimsasiz orolga tushib qolmasdan avval qanday sarguzashtlarni boshdan kechirgan?
2. Robinzon Kruzoning kundaligi haqida nimalarni bilasiz?
3. Robinzon Kruzoning kimsasiz orolda yashab qolishi sabablari nimada deb o'ylaysiz?
4. Asarda inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlik nimalarda aks etgan?

## **SHARL PERRO (1628 —1703)**



Ma'lum yozuvchi tomonidan xalq ertaklari asosida yaratilgan asar adabiy ertak deyiladi. Yozuvchi adabiy ertakni yaratishda o'z oldiga qo'ygan maqsadga mos bo'lган xalq ertagini tanlab oladi va unda aks ettirilgan voqeа – hodisalarни qayta ishlab, o'zi yashab turgan davr talabi asosida yangi asar ijod etadi. Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor», Asqad Muxtorning «Adolat» ertaklari bunga misol bo'la oladi.

Jahon bolalar adabiyotida adabiy ertaklarning asoschisi sifatida buyuk fransuz shoiri va adibi Sharl Perro nomi ma'lum va mashhurdir. U o'zining «Zolushka», «Etik kiygan mushuk», «Qizil shapkacha» ertaklari bilan butun dunyo bolalari qalbini ishg'ol etgan edi. Ha, Sharl Perro shoir va tanqidchi olim bo'lishiga qaramay bizgacha yetib kelgan o'n bir adabiy ertak muallifi sifatida shuhrat qozongan. Aslida esa Sh.Perro yozgan ertaklar voqealari (syujeti)ni o'z xalqi og'zaki ijodidan olgan edi.

Qizil shapkacha haqidagi ertaklar o'rta asrlardayoq paydo bo'lган edi. Xalq ertagida buvasinikiga mehmonga keta turib yo'lda bo'riga duch kelgan qizaloq haqida hikoya qilinadi. Ha, Qizil shapkacha o'zining birinchi xavfli yurishiga chiqqanida XV asr edi. Demak, uning yoshi ancha ulug' – VI asrga teng ekan. XVI asrda bu ertakning adabiy nusxasi yangicha talqini Sh.Perro tomonidan yozildi. Unda onasining pand-nasihatlariga qulоq solmagan qizaloqni bo'ri paqqos tushiradi... Faqat o'rmonchilar tomonidan tasodifan buva va nabira qutqarib qolinadi. Demak, Sh.Perro o'z zamonasi uchun axloqiy qoidalarni qat'iylashtirdi, bolalarni laqma, maxmadona bo'lishidan qaytarishni ertakning g'oyaviy-badiiy maqsadiga aylantirdi.

XIX asrga kelib aka-uka Grimmlarning talqinidagi Qizil shapkacha begunoh qurban timsoliga aylantirildi. Bu ertakda ham ota-onasiga tarbiyasiga sadoqatlilik

g'oyasi saqlandi. Ammo, bu talqinga kuchli homiy – haloskor ovchi – poymol etilgan haqiqatni tiklovchiga umid g'oyasi qo'shildi. Ko'rindiki, har bir davr birgina syujetni yangicha talqin etadi, yangi muammolarni ko'ndalang qo'yib, yangi yechimlarni tavsiya etadi. Demak, adabiy ertaklarning paydo bo'lishi va taraqqiy etib borishini yangi davr, yangi zamon kishilarining ma'naviy ehtiyoji, yangicha estetik tafakkuri bilan bog'liq ekanligini ko'ramiz. Ulug' adabiy tanqidchi V. G. Belinskiy ta'kidlaganidek, har bir davrning o'z g'oyasi va shunga mos ifodaviy shakli mavjud bo'ladi, ya'ni har bir davr o'z mazmun va shakl birligiga egadir. Agar insoniyat taraqqiyotining ibtidoiy, quldarlik yoki feodalizm davrida, xalq og'zaki ijodida, ommaning umumiy fikri, orzu-intilishlari ertaklarda romantik usullarda ifodalansa, keyingi kapitalistik munosabatlar shakllana boshlagan, yozma adabiyot kuchayib shaxsning jamoadan ajralib kamol topishida realistik usul belgilari paydo bo'la boshladi. Endi ijodkorlar xalq og'zaki ijodi janrlaridan unumli foydalana boshlagan hamda unga yangicha mazmun berishga intilganlar. Adabiy ertaklarda ham shu tarzda ijodkor shaxsining o'ziga hos g'oya va qarashlari folkloragini syujetlardan bir ifoda vositasi sifatida foydalangan holda talqin etilganini ko'ramiz. Shuning uchun ham adabiy ertaklar nafaqat bolalar tomonidan, balki kattalar tomonidan ham birdek sevib o'qilishi mumkin. Chunki, endi o'tmishning ifoda vositasi – ertak yangi mazmun, yangi g'oyalarning aytish usuliga aylandi.

Adabiy ertaklarning yana bir xususiyati ertaklarda unda ijodkor shaxsining o'z davri, zamonning eng ilg'or, hali ko'pchilikka ma'lum bo'limgan tafakkuri mevalarini uqish mumkin. Ba'zan esa, yaqin kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqeа-hodisalarning «bashorati» ham ifodalangan bo'ladi. Antuan de Sent Ekzyuperining kichkina Shahzodasi oyga, o'zga sayyoralarga sayohat qiladi, ammo yerdagi, o'z uyidagi aziz tuyg'ularni, jonivorlarni, balki xotiralarini hech qayerdan topa olmaydi. Guliver o'z sayohati davomida ulkan va mitti odamlar yurtida (ulug'vor va bachkana jamiyatlar) bo'lib qaytadi. Umuman olganda shu kabi adabiy ertaklar o'z jozibasi bilan bolani o'ziga rom etadi. Uni vataniga va xalqiga sadoqatli, mehnatsevar, halol, pok, vijdonli inson bo'lib tarbiyalanishida muhim ro'l o'ynaydi. Shuning uchun keyingi 15-20 yil ichida bolalar adabiyotining obro' e'tibori, bunda adabiy ertaklarning o'rni nihoyatda kuchaydi. Rus adabiyotining S.Marshak, A.Barto singari adiblari asarlarini deyarli butun dunyo bolalari o'qib chiqishdi. O'zbek adabiyotida ham M.Osim, X. To'xtaboyevlarning hikoya va qissalarini Q.Muxammadiy, T.Adashboyev, A.Obidjon kabi shoirlarning she'r hamda ertaklarini respublikamiz bolalari qiziqib o'qishmoqda.

Taraqqiyotning bugungi bosqichiga kelib bolalar adabiyotining bunchalik qadr topishiga sabab, yosh avlodning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi, umuminsoniy – ma'naviy qadriyatlarga qanchalik sodiq bo'lib ulg'ayishi ko'p jihatdan bolalar adabiyotining bugungi saviyasi va darajasiga bog'liq bo'layotganligidir.

Hozirgi vaqtida yozuvchilarimiz tomonidan ijod etilayotgan ertaklarning ko'pchiligida zamonaviy mavzular, ilmiy texnikada erishilgan muvaffaqiyatlar, jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati kabi asosiy mavzular keng ko'lama talqin

etilmoqda. Bunday ishlar bilan shug'ullangan yozuvchilar qatoriga A.Obidjon, S. Siyoev, S. Ya.Sa'ydullaeva, A.Abdurazzaqov kabilarni kiritish mumkin.

Buyuk fransuz shoiri va tanqidchisi Sharl Perro badiiy ertak asoschisi sifatida ma'lum va mashhurdir. U o'zining "Qizil Shapkacha", "Zolushka" va "Etik kiygan mushuk" asarlari bilan jahonga tanildi.

Sh.Perro badiiy ertaklar ijod etishdan oldin xalq og'zaki ijodini mehr va ishtiyoq bilan chuqur o'rgandi. Shuning uchun ham u o'z ertaklarida xalq udumlarini dadil ilgari surdi. Perro qahramonlari o'z mehnatsevarliklari hamda sahiyliklari bilan ajralib turadilar. G'arazgo'ylik, maqtanchoqlik, qizg'anchiqlik o'rnini yaxshilik, mehribonlik bosib ketishi hamon kitobxonni shod etib kelmoqda.

Sharl Perrodan bor-yo'g'i 11 ertak saqlanib qolgan. Qaysi ertagiga nazar tashlamang, barchasida bolalar zavq oladigan qirralar bor ekanligini darrov payqaysiz. Dunyoda uning „Etik kiygan mushuk“ ertagini o'qimagan yoki ertak asosida yaratilgan multfilmni miriqib tomosha qilmagan bola topilmasa kerak.

Ertakda aqllilik, bilimdonlik, topag'onlik kabi fazilatlar ulug'lanadi. Boshqa asarlari kabi Sh. Perro bu ertakda ham folklor an'analariga sodiq qoladi. Ertak qahramoni tegirmonchining kenja o'g'li Karabas fahm-farosat, aql bilan ish ko'rib, o'z murod-maqsadiga yetadi, baxtiyor bo'ladi.

Sharl Perroning barcha personajlari yorqin, pishiq-puxta tasvirlangani bilan ajralib turadi. Ularning ko'pchiligi odamlarni, hayvon-u parrandalarni sevib, erkalab, e'zozlaydigan oliyanob bolalardir. Zolushkani („Zolushka“) olib ko'raylik. Uni o'gay ona-yu qizlar hush ko'rmaydilar, xolos. Qolgan barcha jonzot Zolushkani juda sevadi. Uning o'z baxtini topib, osoyishta turmush kechirishini istaydi. Zolushka juda chiroyli, odobli, shirinso'z, kamtarin, odamlarga, jonivorlar-u parrandalarga nisbatan mehribon. Uning bunday fazilatlari, mehnat, halollik va poklik bilan hayotda o'z o'rnini topishi, sevganiga turmushga chiqib baxtli bo'lishi ertak tinglovchisida yaxshi taassurot qoldiradi.

Sh. Perro ijodida "Qizil Shapkacha" alohida o'rinda turadi. Ertak nihoyatda ta'sirli va jozibalidir. Muallif Qizil shapkachani tabiiy va jonli holda tasvirlashga katta e'tibor beradi. Ertak qahramoni bolalar ko'z o'ngida dunyoda tengi yo'q, juda yoqimtoy qizcha qiyofasida gavdalanadi. Bo'rining yovuzligi, surbetligi, uning kampir qiyofasiga kirib olishi ertak tinglovchi har bir bolada chuqur nafrat hislarini qo'zg'aydi.

Boshqa ertaklarda bo'lgani kabi "Qizil shapkacha"da ham voqeа yaxshilik bilan tugashi bolalarning quvonchiga quvonch qo'shami.

Sharl Perroning "Havorang soqol", "Bob", "Eshak terisi", "Uyqudag'i malika" kabi ertaklari xuddi "Qizil shapkacha" kabi bolalarning sevimli asarlariga aylangan.

## QIZIL SHAPKACHA

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir qishloqda jajjigina bir qizcha bor ekan: u dunyoda tengi yo'q, juda yoqimtoy qiz ekan. Oyisi uni jonidan ham yaxshi ko'rар ekan, buvisi bo'lsa undan ham yaxshi ko'rар ekan.

Buvisi nevarasining tug'ilgan kuni munosabati bilan qizchaga bitta Qizil shapkacha sovg'a qilibdi.

O'shandan beri qizcha qayoqqa borsa, shu chiroyli, yangi Qizil shapkachasini kiyib borar ekan. Shuning uchun qo'ni-qo'shnilar uni ko'rganda:

– Ana, Qizil Shapkacha kelyapti! — der ekanlar. Bir kuni oyisi somsa pishirib, qizchaga aytibdi:

– Qizil Shapkacha, mana bu somsa bilan kuvachadagi yog'ni buvingga oborib bergen, eson-omonligini bilib kelgin.

Qizil Shapkacha kiyinib, buvisini ko'rgani narigi qishloqqa ketibdi. U o'rmondan o'tayotsa, oldidan bir Bo'ri chiqib qolibdi. Bo'ri Qizil Shapkachani yamlab yuborgisi kelibdi-yu, lekin botinolmabdi, chunki shu yaqin orada o'tinchilar daraxt kesib yurar, boltalarining taraq-turuq ovozi eshitilib turar ekan.

Bo'ri qizdan:

– Qizil Shapkacha, qayoqqa ketyapsan? — deb so'rabdi.

Qizil Shapkacha bo'lsa, o'rmonda to'xtab, Bo'ri bilan gaplashishning qanday qo'rqinchli ekanini bilmas ekan. Shuning uchun ham u Bo'ri bilan salomlashibdi-da, keyin:

– Buvimni ko'rgani ketyapman, buvimga mana bu somsalar bilan kuvachada yog' olib boryapman, – debdi.

– Buvningning uyi uzoqdam? – deb so'rabdi Bo'ri.

– Ha, ancha uzoqda, – deb javob beribdi Qizil Shapkacha, – tegirmon orqasidagi qishloq bor-u, hov ana, eng chekkadagi uyni ko'ryapsanmi – o'sha.

– Yaxshi, – debdi Bo'ri, – men ham buvingni ko'rib kelaman. Manavi yo'ldan boraman, sen bo'lsang anavi yo'ldan bor. Ko'ramiz, kim oldin borarkan.

Bo'ri eng yaqin yo'ldan g'izillab chopib ketibdi. Qizil Shapkacha bo'lsa, eng uzoq yo'ldan ketibdi.

Qizcha yo'lma-yo'l to'xtab, gullar teribdi, guldasta yasabdi.

Qizil Shapkacha hali tegirmon yo'lliga yetmagan ekan, Bo'ri kampirning uyiga yetib kelib, eshikni taqillatibdi.

– Kim? – deb so'rabdi kampir.

– Men nevarangiz Qizil Shapkachaman, – deb javob beribdi Bo'ri, ovozini ingichka qilib. – Siznikiga mehmon bo'lib keldim, somsa bilan kuvachada yog' olib keldim.

Kampir bu vaqt to'shakda kasal bo'lib yotgan ekan. U chindan ham Qizil Shapkacha kelgandir deb o'ylab, shunday debdi:

– Jonginam, ipni tort, eshik ochiladi!

Bo'ri ipni tortibdi – eshik ochilibdi. Bo'ri chopib borib, kampirni bir yamlab yutib yuboribdi. Bo'ri judayam och ekan, negaki u uch kundan beri ovqat yemagan ekan-da.

Keyin Bo'ri eshikni yopib, kampirning to'shagiga kirib yotibdi-da, Qizil Shapkachani kuta boshlabdi. Tezda Qizil Shapkacha kelib, eshikni taqillatibdi.

– Kim? – deb so'rabdi Bo'ri.

Qizil Shapkacha Bo'rining xunuk ovozini eshitib, avval qo'rqbidi, keyin: buvim tumov-pumov bo'lgandir, – deb o'ylab, javob beribdi:

– Men nevarangiz Qizil Shapkachaman. Sizga somsa bilan kuvachada yog' olib keldim.

Bo'ri yo'talib olib, ingichka ovoz bilan:

- Ipni tort, jonginam, eshik ochiladi, – debdi.
- Qizil Shapkacha ipni tortgan ekan eshik ochilibdi.
- Qizcha uyga kiribdi. Bo’ri bo’lsa ko’rpaga burkanib olib debdi:
- Somsani stolga, kuvachani tokchaga qo’y, o’zing yonimga kelib yot! Juda charchagandirsan?

Qizil Shapkacha bo’ri bilan yonma-yon yotib, undan so’rabdi:

- Voy, buvijon, qo’llaringiz buncha uzun?
- Seni mahkamroq quchoqlash uchun, jonginam!
- Buvijon, oyoqlaringiz buncha katta?
- Tezroq chopish uchun, jonginam!
- Buvijon, quloqlaringiz buncha katta?
- Yaxshiroq eshitish uchun, jonginam!
- Buvijon, ko’zlariningiz buncha katta?
- Seni yaxshiroq ko’rish uchun, jonginam!
- Buvijon, tishlaringiz buncha katta?
- Seni tezroq yeb qo’yish uchun, jonginam!

Qizil Shapkachaning dod-voylashiga qaramay, ochko’z Bo’ri uni shippagi va qizil shapkasi bilan qo’shib yutib yuboribdi.


Baxtni qarangki, shu vaqt uy yonidan o’tinchilar o’tib qolishibdi.

Ular shovqin-suronni eshitib, uyga bostirib kiribdilar va bo’rini o’ldiribdilar. Keyin uning qornini yorsalar, ichidan Qizil Shapkacha bilan buvisi eson-omon chiqishibdi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Adabiy va xalq ertaklari o’rtasidagi farq nimada?
2. Adabiy ertakning xususiyatlarini sanang.
3. Sharl Perroning bolalar adabiyotiga qo’shgan xissasi nimada?
4. “Qizil shapkacha” ertagini g’oya va xulosasini ayting.
5. “Etik kiygan mushuk” ertagi timsollari haqida nimalar bilasiz?
6. O’zbek bolalar adabiyotida kimlar adabiy ertaklar yaratishgan?

## **JONATAN SVIFT (1667–1745)**



„Gulliverning sayohatlari“ romani bilan jahonga tanilgan J. Swift Irlandiyaning poytaxti Dublinda ruhoniylasida tavallud topdi. 1698-yilda ona yurti Angliyaga keladi. Bu yerda yaqin qarindoshi, yozuvchi, davlat arbobi sifatida faoliyat ko’rsatayotgan Vilyam Templga kotiblik qiladi, yaxshi-yomon odamlar bilan tanishadi, hayotning past-balandini o’rganadi, Vilyam Templning boy kutubxonasidan foydalanadi. Dublinga qaytgan Swift bu yerda universitetning diniy fakultetiga o’qishga kiradi. Uzoq yillar Dublin ibodatxonasining noziri

vazifasida xizmat qiladi, badiiy ijod bilan shug'ullanadi. Richard Stil tomonidan nashr etiladigan „Laqma“ hajviy jurnalida she'r va hikoyalari bilan ko'zga tashlana boshlaydi.

Natijada adibning „Kitoblar jangi“, „Bochka haqida ertak“, „Movutfurush ertaklari“ kabi romanlari yuzaga keldi. Swift o'nlab roman, ocherk, pamflet va boshqa asarlar yozgan bo'lsa-da, ammo u faqat „Gulliverning sayohatlari“ asari bilan keng kitobxonlar ommasiga tanildi.

Bu asar zamirida Swift o'z zamonasidan, o'sha davr Angliyadagi chirkin turmushdan, urf-odatlaridan, davlat siyosatidan, fan va madaniyatning tubanligidan qattiq kuladi. Asar mazmunining teranligi, obrazlarning quymaligi, lavhalarning ma'no va mazmunga boyligi uch asrdan ziyodroq vaqtdan beri yosh kitobxonlarga katta estetik shavq va zavq bag'ishlab keladi.

Asar qahramoni mittivoylar o'lkasida Tog' odamga aylanadi. Oyog'i ostida liliputlar uymalashadi. Gulliverning ro'molchasida chavandozlar ot o'ynatadi, qahramon 600 ta to'shakda uxlaydi. Darozlar o'lkasida esa Gulliverning o'zi mitti bo'lib qoladi va kichkina quticha sandiqda yashaydi.

So'ng sandiqchani burgut changalida osmonga olib chiqib ketadi. Gulliver otlar o'lkasiga borib qoladi. Bu yerda otlar odamlarni minib yuradi... Gulliver afsonaviy joylarga borib, ajoyib-g'aroyib fantastik voqealarni boshidan kechirsa-da, uning xarakteri, fe'l-atvori, ichki dunyosi nihoyatda haqqoniy, realistik bo'yqoda chiziladi. U liliputlar o'lkasidagi ahmoqona tartib-qoidalarga norozilik bildirmay, ularga boshqa fuqarolar qatori bo'ysunadi. Faqat hayoti xavf ostida qolgandagina quvlik qilib, qochib ketishga muvaffaq bo'ladi.

Swiftning qahramoni zamonasining sofdil, insonparvar, haqiqatgo'y vakili. U Liliputiyada ekan, bosqinchilik urushlariga qarshi chiqadi. Gulliver yerli aholiga yordam berishga, maslahatlarini ayamaslikka tayyor. U o'zining kamtarligi, samimiyligi bilan kitobxonning muhabbatini qozonadi.

Gulliver o'tkir aql egasi, u hamma yerda ko'rgan-kechirganlarini chuqur idrok etadi. Qahramon o'zi sayohat qilib yurgan mamlakat amaldorlarining zolim bosqinchi ekanligiga qarshi bo'lsa, o'tmishning Brut singari ajoyib respublikachilar bilan faxlanadi. Qahramon obrazidagi bu xususiyatlar yozuvchining erkin, ijtimoiy tuzum tarafdoi ekanligini ko'rsatadi. Gulliver obrazining xalqchilligi ana shunda.

## GULLIVERNING SAYOHATLARI

(Romandan parcha)

„Antilopa“ degan uch machtali kema Janubiy okeanga suzib ketdi.

Kema vrachi Gulliver kemaning orqa tomonida turib, durbin bilan pristanga qaradi. U yerda uning xotini va ikki bolasi: Jonni degan o'g'li bilan Betti degan qizi qolgan edi.

Gulliver dengizda ko'p sayohat qilgan. U sayohat qilishni sevardi. Maktabda o'qib yurgan vaqtlaridayoq, otasidan kelgan pullarning hammasini deyarli dengiz xaritalariga va chet mamlakatlar haqida yozilgan kitoblarga sarf qilardi. U geografiya va matematika fanlarini astoydil o'rganardi, chunki bu fanlar hammadan ko'ra dengizchi uchun zarurdir.

Otasi Gulliverni o'sha vaqtdagi londonlik mashhur bir vrachga o'qishga bergen edi. Gulliver unda bir necha yil o'qidi. Lekin dengiz haqida o'yashini qo'yamadi.

Vrachlik ishi unga qo'l kelib qoldi: o'qishni tamomlagach, „Qaldirg'och“ degan kemaga vrachlik xizmatiga kirib, shu kemada uch yarim yil yurdi. So'ngra „Umidbaxsh“ nomli katta kemada Sharqiy va G'arbiy Hindistonga bir necha martalab sayohat qildi.

Dengiz safarida Gulliver hech qachon zerikmasdi. U kemadagi o'z hujrasida uyidan olib chiqqan kitoblarini o'qir, qirg'oqqa chiqqan mahallarida esa begona qabilalarning turmush kechirishlarini tomosha qilar, ularning tili va urf-odatlarini o'rganar edi. Safardan qaytishda u yo'lda ko'rgankechirgan hodisalarini mufassal yozib borardi.

Gulliver bu galgi dengiz sayohatiga chiqishda ham kattakon qo'yin daftarini yoniga solib oldi.

Bu daftarning birinchi betida: „1699-yil 4-mayda kema bilan Bristoldan jo'nab ketdik“, deb yozilgan edi.

„Antilopa“ Janubiy okeanda haftalab, oylab suzib yurdi. Huzurbaxsh esgan shabada Gulliverning quvonchiga quvonch qo'shdi. Xullas, sayohat ko'ngildagidek bo'ldi.

Biroq kunlarning birida kema Sharqiy Hindistonga o'tayotganida juda qattiq bo'ronga uchradi. Shamol va to'lqinlar kemani qay tomonga surib ketayotgani ma'lum emasdi.

Kemada esa oziq-ovqat va suv tugay deb qolgan edi. Charchoq va ochlikdan o'n ikki matros o'ldi. Qolganlarining ham tinka-madori qurib bitdi. Kema to'lqinda qattiq chayqalib, yong'oq po'chog'iday o'ynardi. Bo'ronli qorong'i kechalarining birida shamol „Antilopa“ni suv tagidan chiqib turgan katta qoyatosh tomonga surib ketdi. Matroslar bu hodisani vaqt o'tgandan keyingina sezib qoldilar. Kema qoyatosh qirralariga urilib, parcha-parcha bo'lib ketdi.

Faqat Gulliver bilan beshtagina matros qayiqchaga tushib omon qoldi.

Ular shu yaqin orada quruqlik borligini bilardilar, shuning uchun o'sha yerga yetib olishni ko'zladilar. To'lqinlar ustida harakat qilaverib, kuchlari obdan quridi. To'lqinlar esa tobora kuchaymoqda edi, nihoyat, eng baland bir to'lqin kelib, qayiqchani to'ntarib yubordi. Gulliverni suv ko'mib ketdi.

U suv betiga chiqqanda, yon-verida hech kimni ko'rmadi. Uning barcha hamrohlari suvga cho'kib ketgan edi. Yolg'iz qolgan Gulliverni shamol va to'lqin qayoqqadir oqizib ketaverdi. U oyog'ini dam-badam pastga uzatib, suv tagini bilmoqchi bo'lsa-da, biroq oyog'i suv tagiga yetmasdi. Uning endi suzishga sira ham madori qolmadni, ichlari liq-liq suvga to'lgan, ust-bosh, oyoq kiyimlari uni suv tagiga tortardi. Bo'g'ziga suv tiqilib, dami qayta boshladi.

Shu paytda to'satdan oyoqlari qattiq yerga tekkanini sezib qoldi.

Bu sayoz joy edi. Gulliver suv tagidagi qumda ehtiyyotlik bilan asta-sekin yura boshladi.

Yurish tobora yengillashaverdi. Oldin suv Gulliverning kiftidan kelardi, keyin beliga tushdi, nihoyat atigi tizzasidan keladigan bo'lib qoldi. Gulliver, qirg'oq juda yaqin bo'lsa kerak, deb o'yagan edi, lekin bu joyning tagi nishab bo'lgani uchun, Gulliverga yana uzoq vaqt tizzasidan suv kechishga to'g'ri keldi. Nihoyat, suv

bilan qum orqada qoldi. Gulliver juda yumshoq va maysa o'tlar bilan qoplangan ko'kalamzorga chiqdi va yerga yonboshlab, qattiq uyquga ketdi.

Gulliver uyg'onganda hamma yoq yop-yorug' edi. U chalqanchasiga yotgani uchun oftob uning xuddi yuziga tushib turardi.

U ko'zini uqalamoqchi bo'lgan edi, qo'lini ko'tarolmadi; turib o'tirmoqchi bo'lgan edi, qimirlayolmadi.

Uning qo'ltilqalaridan ikkala tizzasigacha butun badani chilvirlar bilan chandilgan; qo'l-oyoqlari ustiga esa chilvirdan qilingan to'r tarang tortilgan; barmoqlari chilvirlar bilan mahkam bog'lanib, uzun va quyuq sochlari ham yerga qoqilgan qoziqchalarga chandib tashlangan edi.

Gulliver xuddi to'rga tushgan baliqqa o'xshardi. „Hali ham uyquda ekanman“, deb o'yladi u.

Shu choq oyog'i ustida allanima xuddi sichqon singari pildirab yura boshladi. Hash-pash deguncha bu narsa Gulliverning qorniga chiqib olib, undan ko'kragida sekin-sekin emaklab yurdi, endi iyakka chiqib kelayotir, Gulliver „Bu nima ekan?“ degandek qilib, ko'z qirini soldi.

Ajabo, bu nima o'zi?

Uning xuddi iyagi oldida kichkinagina qurollangan chinakam odamcha turibdi.

Lekin bu odamcha bodringdan katta emas. Bundaylarning beshtasi Gulliverning kaftiga bemalol joylasha olardi.

Birinchi odamcha ketidan yana qirqtachasi Gulliverustiga chiqib oldi.

Gulliver hayronlikdan qichqirib yubordi.

Odamchalar hovliqib-oshiqib, tumtaraqay qochishdi.

Ular qochib ketayotganlarida qoqilib yiqlidilar va o'rinalidan yana turib, o'zlarini birin-ketin yerga otdilar.

Ikki-uch daqiqa hech kim Gulliverga yaqin kelmadni. Faqatgina uning qulog'iga xuddi chigirkalarning chirillashiga o'xhash tovush eshitilib turdi.

Lekin odamchalar tezda yana dadillanib, Gulliverning oyoqlariga o'rmalab chiqa boshladilar. Ulardan jasurrog'i esa Gulliverning betiga tirmashib chiqib, uning iyagiga nayza bilan bir turtdi hamda ingichka va aniq ovoz bilan:

— Gekina degul!— deb qichqirdi.

— Gekina degul! Gekina degul!— degan ingichka tovushlar har tomondan eshitila boshladi.

Gulliver tushunolmadi.

Gulliver shu zaylda chalqanchasiga uzoq yotib qoldi va qo'l-oyoqlari kesakday uyushib ketdi.

U bor kuchini yig'ib, chap qo'lini yerdan uzib olishga intildi.

Nihoyat, yuzlarcha ingichka, pishiq chilvirlar bog'langan qoziqchalarni sug'urib, qo'lini ko'tardi.

Shu on allakim pastdan turib:

— Tolgo fonak!—deb chiyilladi.

Birdan Gulliverning qo'li, yuzi va bo'yniga yuzlarcha o'q yog'ildi.

Odamlarning o'qlari igna kabi ingichka va o'tkir edi.

Gulliver ko'zini yumdi va tunga qadar shu taxlitda qimirlamay yotishga qaror qildi.

„Qorong’ida bo’shanish osonroq bo’ladi“, deb o’ylagan edi u, biroq maysazorda tunni kutishga imkon bo’lmadi.

Gulliverning o’ng qulog’i yaqinida, xuddi birov taxtaga mix qoqayotganday, allanarsaning tez-tez tiqillagan tovushi eshitildi.

Bolg’achalarning tiqillashi bir soatcha davom etdi. Gulliver boshini burib, yoniga qaray degan edi, chilvir va qoziqlar imkon bermadi. U boshi yonida hozirgina yasalgan taxta minbarchanigina ko’rdi.

Bir necha odamcha shu minbarga zinapoya yasadi.

So’ngra odamchalar qochib ketishdi va uzun to’n kiygan boshqa bir odamcha zinapoyadan sekin-sekin minbarga chiqdi.

Uning ketidan yana bir odamcha chiqaverdi. Bunisining bo’yi oldingisining yarim belidan kelardi. Bu odamcha oldindagisining uzun etaklarini ko’tarib chiqmoqda edi. U saroy xizmatidagi bola bo’lsa kerak. Bola Gulliverning jumjilog’icha kelardi.

Eng keyin minbarga qo’llarida o’q-yoy ko’targan ikki mergan chiqishdi. Uzun to’nli odamcha:

— Langro degul san! — deb uch marta qichqirdi va keyin qayin daraxtining bargiday kichkina bir qog’oz o’ramini ochdi.

Shu onda Gulliver yoniga odamchalardan elliktasi yugurib kelib, uning sochlariga chandilgan chilvirlarni qirqib tashladilar.

Gulliver boshini burib, uzun to’nli odamchaning o’qishiga qulq qola boshladi. Bu odamcha xatni uzoq o’qidi va uzoq gapirdi. Gulliver bundan hech narsa tushunmadi. Lekin shunday bo’lsa ham, bo’sh qo’lini ko’kragiga qo’ydi va „xo’p“ deganday qilib bosh qimirlatdi.

U o’z oldida har holda biron mo’tabar odam turganini, aftidan qirol elchisi ekanligini payqadi.

Gulliver dastavval elchidan ovqat berib to’yg’azishlarini iltimos qilmoqchi bo’ldi. Kemadan ajragandan buyon u tuz ham totmagan edi. Panjasini ko’tarib, qayta-qayta lablariga tegizdi.

Uzun to’nli odamcha, chamasi, Gulliverning bunday qilganiga tushungan bo’lsa kerak, minbarchadan tusha turib, Gulliver yoniga bir necha uzun narvon qo’yishni buyurdi.

Oradan chorak soat ham o’tmay, yuzlarcha hammol oziq-ovqat solingan savatchalarni shu narvonlar orqali Gulliver yoniga olib chiqib uyishdi.

Savatchalardagi ovqatlar: kattaligi no’xatdek keladigan necha ming dona mayda non, har biri yong’oqdek keladigan to’ng’iz nimtalari, qovurilgan jo’jalardan iborat bo’lib, har qaysi jo’ja go’shti pashshadan ham kichkina edi.

Gulliver ikki nimta bilan uchta kulchani birga yutib yubordi. U qovurilgan beshta ho’kiz go’shti, oftobda qoqlangan sakkizta qo’y, dudlangan to’qqizta cho’chqa va ikki yuzdan ortiq g’oz va jo’jalarni yedi.

Gulliverning qo’liga ikki bochka vinoni yumalatib keltirdilar.

Bochkalar juda katta bo’lib, har biri stakanday edi.

Hash-pash deguncha, Gulliver bir bochkaning, so’ngra ikkinchisining qopqog’ini ko’chirib tashlab, bir-ikki qultum yutish bilan ikkala bochkani ham bo’shatdi.

Vinodan so'ng Gulliverni tezda uyqu bosdi. U uyqu aralash yon-veridagi odamchalarining o'z ustidan u yoq-bu yoqqa chopib yurishlarini, tog'dan tushgandek ustidan o'mbaloq oshib tushishlarini, tayoqlar va nayzalar bilan qitiqlashlarini va uning u barmog'idan bu barmog'iga sakrashlarini sezib yotardi...

## «GULLIVERNING SAYOHATLARI» ROMANI

Jonatan Swiftga jahon miqyosida shuhrat keltirgan, ijodining gultoji bo'lib qolgan asari – «Lemyuel Gulliverning jahondagi bir necha olis kemalar kapitani sifatida qilgan sayohatlari» yoki qisqacha aytganda, «Gulliverning sayohatlari» (1726) dir. Roman qahramoni afsonaviy mamlakatlar – Liliputiyaga, ulkan odamlar mamlakati Brobdingnegga, Laputa, Glabbdobribga hamda aqqli otlar mamlakati bo'lgan Guigngiyaga sayohat qiladi. Qahramon o'z sayohati davomida uchratgan fantastik vaziyatlar, afsonaviy obrazlar, yozuvchi mubolag'asining kuchi bilan yaratilgan xilma-xil manzaralarning barchasi zamon voqeligini realistik tarzda chuqur tasvirlashga xizmat qiladi. Swift satirasining kuchi ham, u yaratgan ajoyib asarning asrlar davomida o'z qiymatini yo'qotmay kelayotganligininng sababi ham ana shunda.

Roman hayratomuz syujeti, ajoyib-g'aroyib obrazlar va lavhalarga boyligi bilan barcha yoshdag'i kitobxonlarni maftun etadi. Bu asar shunchaki kulgi uchun yozilgan bo'lmay, balki unda o'sha davr siyosati, fani va madaniyatiga nisbatan yozuvchining munosabati ham o'zining haqqoniy ifodasini topgan.

«Gulliverning sayohatlari» romani to'rt qismdan iborat. Birinchi qismda Liliputlar – jimit odamlar mamlakati haqida hikoya qilinadi. Bu mamlakat kishilari oddiy odamlardan 12 barobar kichikdir. Liliputiya, majoziy ma'noda, yozuvchi yashab turgan Angliya davlatidir. Undagi barcha hodisalar Angliyadagi ijtimoiy ahvolni eslatadi. Liliputiyada yashovchilar haddan tashqari kichkina odamlar bo'lsa-da, ularning o'z qiroli, ministrlari, harbiy qo'shini, dengiz floti va turli-tuman qonunlari mavjud. Bu mamlakat amaldorlari xalqning manfaatidan ko'ra o'z foydasini ko'proq o'ylaydi. Liliputiyada ham, Angliyada bo'lgani kabi ikki xil partiya bor. Bular baland poshnalilar hamda past poshnalilar partiyasi deb ataladi. Mazkur partiyalar Angliyadagi torilar bilan vigilar partiyasini eslatadi. Har ikkala partiya o'rtasida doimo nizo davom etadi. Ammo ularning siyosatlari orasida unchalik katta farq yo'q, tafovut faqat poshnasining baland yoki past ekanligidir.

Liliputiya qo'shni davlat – Blefuscuga qarshi harakatlarini olib boradi. Liliputlar qiroli qo'shni davlat qiroli bilan tuxumni qaysi tomonidan sindirib yeyish to'g'risida kelisha olmay urush boshlaydi. Pishgan tuxumni qanday iste'mol qilish-poynak tomonidanmi yoki nish tomonidan sindirib yeyish kerakmi, ana shunga ko'ra urushuvchi dushman tomonlar **poynakchilar** va **nishchilar** deb ataladilar. Bu lavhalarda diniy kelishmovchiliklar ham ayovsiz tanqid ostiga olinadi. Agar Liliputiya J.Swift yashayotgan Angliyani eslatsa, Blefuscu tisolida Fransiyani ko'rish mumkin. Bu janjal bizga Angliya bilan Fransiya o'rtasida uzoq davom etgan, ispan taxi uchun olib borilgan urushni anglatadi. Hukmron doiralarning urush siyosatidan xalq ommasi norozi edi. Demokratik kurash

tarafdori J.Svift bu adolatsiz urushni keskin qoralar ekan, xalqning noroziligini ifodalashga ham alohida e'tibor beradi.

Liliputiyadagi urf-odatlar, qonun-qoidalar Angliya mustabid tuzumiga, parlament partiyalariga, cherkov ixtiloflariga nisbatan o'tkir hajvdan iborat. Yozuvchi bachkana, juda mayda odamlarning kibru havosi, maqtanchoqligi, dimog'dorligini tasvirlash orqali Angliya hukmron doiralarining asl qiyofasini chizib beradi. Liliputlarning imperatori o'z fuqarolaridan atigi tirnoqcha baland ekanligi bilan mag'rurlanadi. Ana shu arzimagan narsa uchun katta lavozimlarga ko'tarilish ingichka arqon va ingichka tayoq ustidan mumkin qadar balandroq sakragan kishiga nasib qiladi.

Sotiboldi Yo'ldoshev tarjimasidan olingan quyidagi parcha Liliputiya mamlakati haqidagi yozuvchi kinoyasini ifodalaydi. «Dor ustida mohirlik bilan raqs tushadigan kishilarni eng yuqori davlat lavvozimlariga ko'tarish yoki yog'och ustidan chaqqonlik bilan sakraydigan, yoinki uning ostidan o'tadiganlarga ordenlar berish kabi sharmandali odatlarni olaylik, bu urf-odatlarni hozir hukmronlik qilib turgan imperatorning bobosi joriy etgan»<sup>1</sup>.

Agar Gulliver liliputlar mamlakatida ulkan odam – «Tog' odam» deb nom chiqargan bo'lsa, ulkanlar yurti Brobdingnegda o'zi liliput holiga tushib qoladi. Chunki ulkan odamlar oddiy odamlardan 12 barobar katta va bahaybat qiyofadadir. Bu yerda Gulliver «mayda hashorot» ga o'xshaydi. Ulkan odamlar mamlakati – Brobdingneg yozuvchi tasviridaadolatli monarxiyani eslatadi. Ulkan odamlar qiroli o'z mamlakatini insof,adolat va aql kuchiga tayanib idora qiladi. Urushlarni qoralaydi. Gulliver ulkan odamlar orasida ekan, uning bu mamlakat qiroli bilan olib borgan suhbatlari diqqatga sazovor. Gulliver qironga o'z vatani Angliya haqida, uning ijtimoyi tuzumi, hayot sharoitlari, armiyasi, amaldorlari, harbiy qurol-aslahalari va qo'shni davlatlar bilan olib boradigan urushlari haqida bat afsil gapirib beradi. Ulkanlar qiroli bundan juda hayratlanadi. Shu qadar mayda odamchalarining qo'lidan bunchalik ko'p ish kelishiga ishonmaydi. Gulliver qironga Angliyada bo'lgani kabi porox va zambarak yasashni o'rgatmoqchi bo'lganida, qirol g'azablanib, tinchlanishni buyuradi. Agar yana qurol haqida gap ochsa, Gulliverni jazolayman, deb qo'rkitadi.

Bu sahifalarda yozuvchi Angliya voqeligini hikoya qilar ekan, yo'l-yo'lakay uning urishqoq siyosatini tanqid ostiga oladi. Ulkanlar mamlakati ideal davlat sifatida J.Svift zamonasidagi Angliyaga qarama-qarshi qo'yiladi.

Gulliver sayohatlarining uchinchi qismida olimlar mamlakati – Laputaga boradi. Bu yerda oimlarning ajoyib ixtiolarini ko'zdan kechiradi. Balnibarbi mamlakatiga borib, Lagadodagi Buyuk akademiya bilan tanishadi. Glabbdobrib mamlakatida yashovchi maftunkor va sehrgarlarni uchratadi. So'ng Yaponiyaga o'tadi.

Turmushdan, hayot talablaridan ajralib qolgan, hech kimga foydasi tegmaydigan fanni J.Svift achchiq kulgi ostiga oladi. Laputada bir olim sakkiz yil mobaynida qanday qilib bodringdan quyosh energiyasini ajratib olib, undan yoz sovuq kelganda foydalanishni mo'ljallaydi. Boshqalari o'rgimchak inidan jun,

<sup>1</sup> Swift J., Lagerlyof C. G'aroyib sayohat: Qissalar. – T.: Yulduzeha, 1989.- B. 31 .

muzni kuydirib porox olish, uyni poydevoridan emas, balki tomidan qurish kabi loyihalar ustida bosh qotiradilar.

J.Swift bu bilan Buyuk akademiya olimlarining xomxayol, o'zлari esa turmushdan ajralib qolgan kishilar ekanligi ustidan kuladi. Yana boshqa bir olim yerni to'ng'iz kuchi yordamida haydash usulini «ixtiro» qiladi, bu usul omoch, yer haydaydigan hayvon va ishchi kuchini tejar emish. Shunday qilib, bu xomxayol olimlar uchuvchi oroliga joylashib olib, yerda yuz berayotgan voqealardan butunlay bexabar ish ko'radilar. Yozuvchi barcha ilm ahlini emas, balki soxta fanni, hayotdan ajralib qolgan xayolparast olimlarni tanqid qiladi.. J.Swift Lagado akademiklarining bu «ixtirolari», «takliflari»dan birortasi ham nihoyasiga yetkazilmaganini qayd etadi.

Muallif olimlar mamlakatini ta'riflar ekan, «universal dohiy» nomini olgan mashhur bir olim haqida yozadi: «Olimning gapiga ko'ra, u o'ttiz yildan beri butun tafakkurini insoniyat hayotini yaxshilashga bag'ishlayotgan mish. Uning qo'l ostida ellikta yordamchi ishlayapti. Birlari havoni quruq, zikh moddaga o'xshatib quyultirishib, undan selitra olishmoqda, suv qismini suzishmoqda, boshqalari marmarlarni yostiq va to'g'nag'ich sanchadigan bolishchalar uchun maydalashayapti, uchinchilari tirik otning tuyog'iga toshday qattiqlik berish bilan ovora. Olimning o'ziga kelsak, – yaqin kelajakda qirolikda yaydoq qo'yalar zotini yarataman, degan umidda».

Romanning to'rtinch qismi – guigngnmlar mamlakatiga sayohat – burjua tuzumiga nisbatan g'azabli zaharxandadan iborat bo'lib, yozuvchi unda o'z vatandoshlari hayotining g'ayriinsoniy va nohaqlik asosiga qurilganligini ko'rsatishga harakat qiladi. Bu mamlakatda inson qiyofasidagi ikki oyoqli mahluqlar – yexular hamda aqli, dono, halol mehnat bilan kun kechiruvchi jonivorlar – otlar yashaydi. Otlar bilan yexular bir-biriga keskin qarama-qarshi. Yexular ham ichki, ham tashqi qiyofasi iflos va kishini nafratlantiradigan darajada tubandir. Ular qahramonga borgan sari uning Angliyadagi vatandoshlarini eslatadilar. Yexular lagabardor, xunuk, urishqoq hamda axloqi tubanlashib ketgan maxluqlardir. Ular hammadan ham yaltiroq toshlarga o'ch bo'ladilar. Ana shu tosh uchun bir-birlarini o'ldirishga tayyor turadilar. Yexular o'zlarining barcha illatlari bilan Angliya zodagonlarini eslatadilar.

J.Swift romanining oxirgi qismi bir qancha burja tanqidchilarining yozuvchini odamovi deb ayblashtalariga sabab bo'ldi. Ammo mutlaqo unday emas. J.Swift mehnatkash xalqni chin qalbdan sevar edi. Uning og'ir qismatini ko'rib achinar, ammo bu ahvolni yaxshilash yo'lini topolmas edi. Yozuvchi o'zi tasvirlagan ijtimoiy tuzum illatlaridan qutulish yo'lini ko'rsata olmadidi. Chunki u yashab turgan davrda burjua tuzumini o'zgartiradigan kuch mavjud emas edi.

Romanning uchinchi qismida J.Swift zolim va bosqinchilarni qirib tashlab, mazlum xalqlar huquqini tiklamoqchi bo'ladigan kishilar haqida hikoya qiladi, ammo bu narsaning realligiga uning o'zi ham ishonmaydi. Kitobning so'nggi qismida tilga olingan ideal tartib odamlar obrazi orqali emas, balki otlar timsolida beriladi. Zotan, shunday ideal tuzum odamlar tomonidan amalga oshirilishiga ishonmaydi. J.Swift hajviyotining g'amgin va hazinligi ham shunda.

## **GULLIVER OBRAZI**

Gulliver obrazi yozuvchining katta yutug'idi. Gulliver XVIII asr Angliyasining o'qimishli, ma'rifatli kishisi. J.Swift qahramoni zamonasining sofdil, insonparvar, haqiqatgo'y vakilidir. Gulliver obrazining o'ziyoq roman muallifini odamovilikda ayblagan burjua tanqidchilarining fikri xato, asossiz ekanini isbotlaydi. Chunki Gulliver hamma yerda insof,adolat yuzasidan ish ko'rib, fikr yuritadi. U Liliputiyada ekan, bosqinchilik urushlariga qarshi chiqadi. Gulliver yerli aholiga yordam berishga, maslahatlarini ayamaslikka tayyor. U o'zining kamtarligi, samimiyligi bilan kitobxonning muhabbatini qozonadi. Qahramon o'zidagi kamchiliklarini sira yashirmaydi, Ayni vaqtida maqtanish, kibrilanishga yo'l qo'ymaydi. Albatta, buyuk hajviyotchi J.Swift o'z qahramoni obrazini yaratar ekan, o'zidagi bir qancha xususiyatlarni unda jamlagan. Gulliverdag'i gumanizm, o'zgalarning baxt-saodatini o'yash – bularning barchasi burjua adabiyotshunoslaring adib haqidagi tuhmatlarini rad qiladi. Gulliver o'tkir aql egasi, u hamma yerda ko'rgan-kechirganlarini chuqur idrok etadi. Qahramon o'zi sayohat qilib yurgan mamlakat amaldorlarining zolim bosqinchi ekanligiga qarshi bo'lsa, o'tmishning Brut singari ajoyib respublikachilari bilan faxrlanadi. Qahramon obrazidagi bu xususiyatlarni yozuvchining erkin ijtimoiy tuzum tarafdoi ekanligini ko'rsatadi. Gulliver obrazining xalqchiligi ana shunda. Gulliver obrazi orqali muallif liliputlar, olimlar va yexularning Angliyadagi barcha prototiplariga qaqshatqich zarba beradi. Liliputiya mamlakatidagi bema'niliklar ustidan kulish, olimlarning soxtalignini fosh qilish, maymun qiyofasidagi insonlar – yexulardan nafratlanish roman qahramonining oljanob insonligini anglatadi.

## **ROMANNING BADIY XUSUSIYATLARI**

«Gulliverning sayohatlari» romanida J.Swift xilma-xil badiiy vositlardan foydalanadi. Ayniqsa, realistik fantastika romanda juda ustalik bilan qo'llanilgan. Muallif birin-ketin aql bovar qilmaydigan uydirmalar, mubolag'alarni to'qib tashlaydi. Amмо ana shu uydirmalar, to'qima lavha va hodisalar J.Swift zamonasi uchun real bo'lgan hayot voqeliklarini bayon qilishga xizmat qiladi.

Liliputlar, ulkan odamlar, yexu va otlarning hayratomuz g'aroyib obrazlari romanda ijtimoiy hodisalarni umumlashtirish uchun bir vositadir. Yozuvchi hajviyoti hamma vaqt Angliyaning davlat tuzumiga, u yerdagi ma'muriy idoralarning bajarayotgan vazifasiga, qirov va saroy amaldorlarining xatti-harakatlariga qarshi yo'naltirilgan. Liliputlar jimit kishilar, ularning aqli, fikrlash qobiliyatları ham nihoyatda tor va bachkana. Ulkan odamlar har jihatdan ham ulug'dirlar. Yexular esa yirtqich qiyofasi, olchoqligi, vahshiyligi bilan o'zlarining tubanlashgan tabiatini namoyish etadilar.

J.Swift romanning tiliga alohida e'tibor bergan, uning jumlalari sodda, salmoqli. Har bir narsa, hodisaga beriladigan ta'rif-tavsiflar nihoyatda qisqa.

«Gulliverning sayohatlari» o'zining yuksak badiyiligi, tanqidiy yo'nalishi bilan jahon adabiyotining ajoyib asarlaridan biri bo'lib qoldi. XVIII asr ingliz ma'rifatchilik realizmi adabiyotining yaxshi namunasi «Gulliverning sayohatlari»

romani bolalarning sevimli kitobi sifatida ham mashhur. Bu kitobga N.G.Chereshevskiy, I.S.Turgenev yuqori baho bergenlar. A.M.Gorkiy «Gulliverning sayohatlari» romanidagi o'tkir satirani alohida ta'kidlagan.

Buyuk satirik J.Swift jahon adabiyoti tarixiga birinchi galda «Gulliverning sayohatlari» nomli o'lmas asari bilan kirgan.

O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda ham J.Swift romani bir necha bor tarjima qilindi va o'zbek kitobxonalarining sevimli asariga aylanib qoldi. 1930 yillarda va undan keyin buyuk ingliz hajvchisining asariga bo'lgan qiziqish kuchayib, 1937, 1948, 1952, 1954, 1974 yillarda «Gulliverning sayohatlari» romani Fattoh Abdullayev, Abdulla Xo'jaxonov, Sotivoldi Yo'ldoshevlar tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilindi. O'zbek maktablari darsliklarida mazkur asar ham munosib o'r'in olgan. Bularning barchasi «Gulliverning sayohatlari» rosmanni umri boqiy asar ekanligidan darak beradi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. J.Swift hayoti va ijodi haqida so'zlang.
2. "Gulliverning sayohatlari" asarining asosiy xususiyati nimada?
3. Romanning satirik hajviy xususiyatlari haqida gapiring.
4. Liliputiya mamlakatining boshqaruvi, siyosatidagi ijobiy va salbiy jihatlarini ko'rsating.

## **XANS KRISTIAN ANDERSEN (1805–1875)**



O'zining ajoyib va g'aroyib ertaklari bilan jahonga tanilgan buyuk so'z ustalaridan biri Xans Kristian Andersen Daniyaning Odens shahrida 1805-yilda dunyoga keldi. Bo'lajak adib Spagels maktabiga o'qishga kirdi. 1828-yilda Kopengagen universitetida o'qishni davom ettirdi. U 30-yillarda Fransiya, Shveysariya, Italiya, Gretsya va Ispaniya bo'ylab sayohat qildi. Sayohat davomida yozuvchi juda ko'p narsalarni ko'rdi, eshitdi. Xalq og'zaki ijodi bilan yaqindan tanishdi.

Ijodiy mashqini 20-yillardan boshlagan Andersen o'z kuchini lirika, roman, dramaturgiya, sayohat ocherklarida sinab ko'rdi.

Uning, ayniqsa, tarix-ertak asarlari yosh kitobxonlar uchun maroqlidir. „Bolalar uchun aytilgan ertaklar“ (1835—1842), „Yangi ertaklar“ (1843—1848), „Tarix“ (1852—1855), „Yangi ertaklar va tarix“ (1858—1872) va boshqa kitoblari Andersennen nomini mashhur qildi, jahonga tanitdi.

Andersen bu kitoblarni yaratishda xalq og'zaki ijodidan unumli foydalandi, ularning orzu-armonlarini qog'ozga tushirishga harakat qildi. Ertaklardagi xarakter va jonli nutqni yanada mukammallashtirishga erishdi. Shuning uchun ham Andersen yaratgan barcha ertaklar sodda, kitobxon uchun tushunarli bo'lishi bilan birga, o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanadi.

Andersen ertaklarining qahramonlari o'zlarining samarali mehnatlari, aql-idroklari, axloq-odoblari bilan kitobxon tahsiniga sazovor bo'ladilar. Uning „Qo'ng'iroqli girdob“, „Kumush tanga“, „Kolbasa sixidan sho'rva“, „Go'ng-qo'ng'iz“ va boshqa ertaklari fikrimizga yorqin misol bo'la oladi. Masalan, „Qo'ng'iroqli girdob“ asarini olib ko'raylik. Ertakda asrlar mobaynida ezilgan, og'ir mehnat va zulmdan tinka-madori qurigan mehnatkash xalq vakili Blakening o'z xo'jasiga qarshi kurashi kitobxonni quvontiradi.

«Bolalar gurungi» asarida hech kim taqdirini, kichkintoy o'sib-ulg'aygach kim bo'lib yetishishini bilishi mumkin emasligini, bu ko'proq o'sha bolaning o'ziga, intilishiga, o'qishiga, kattalarning ibratomuz pand-nasihatlariga qanchalik qulq solishiga bog'liq ekanligini o'qiyimiz.

Shohona qasrga to'plangan, bashang kiyingan bir to'da aslzoda bolakaylar og'izlarini to'ldirib maqtanishar, kelajakda ota-onalaridan ham badavlatliroq bo'lism uchun harakt qilishlarini kibor bilan ta'kidlar edilar. Bu boy-badavlat bolalarning bir-birlariga gap bermay maqtanishlarini yirtiq-yamoq kiyim kiyib olgan bir kambag'al bola tinglab chuqur xo'rsinar, «bularga yetishga bizga yo'l bo'lsin», deb qo'yari edi o'zicha.

Yillar o'tib o'sha juldurvoqi kiyimli bola yaxshi o'qib, o'z taqdirini o'zi hal qiladi, mashhur rassom bo'lib yetishadi, mamlakatda eng boy odamlardan biriga aylanadi, o'ziga munosib bir qasr qurdiradi, «qasr hamda uning ichidagi xazinani ko'rish»ni hamma istardi.

Ertakchining „No'xat ustidagi malika“ asari ham yosh kitobxonning kulgisini qistatadi, ham tannoz malikaga nisbatan qahr-g'azabini keltiradi.

Bir shahzoda haqiqiy malikaga uylanish uchun butun yer yuzini, shahar-u qishloqlarni qidirib hech qayerdan haqiqiy malikani topa olmaydi. Hafsalasi pir bo'lgan, tarvuzi qo'ltig'idan tushgan shahzoda qasrga qaytadi.

Kunlardan bir kuni ko'z ko'rib, qulq eshitmagan mo'jiza yuz beradi:

„Bir oqshom havo aynigandan-aynibdi: shunday chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gulduros solibdiki, yomg'ir chunonam chelaklab quyib beribdiki, dahshatning o'zginasi!

To'satdan shahar darvozasi taqillab qolibdi: keksa qirol borib darvozani ochibdi.

Darvozada malika turardi. Yo qudratingdan, uni nimaga o'xshatish mumkin! Suv malikaning sochlari, ko'yaklaridan sharillab oqib, to'ppa-to'g'ri boshmoqlarining uchlariga, tovonlariga tushardi, u bo'lsa pinagini buzmay, men haqiqiy malikaning xuddi o'ziman, derdi“.

Malikani sinab ko'rish ishlari ham juda g'alati bo'ladi. Tunda qirq qavat ko'rpa ostiga bitta no'xatni yashirib, joy solib beradilar. Tannoz, oqbilak qiz ertalab o'rnidan turar ekan, „Qanday uxbab turdingiz?“ deyilgan savolga nolish, ichki dard bilan javob beradi:

„Ey, juda yomon! — deydi u.— Ko'zimni yummadir, desam ham bo'ladi! Men qandaydir qattiq narsaning ustida yotdim, butun a'zoyi badanim ko'karib ketibdi! Naqadar dahshat!“

Shahzoda qizning haqiqiy malika ekanligini bilib, unga uylanadi.

Bolalar odatda, hayvonlar, parrandalar, hashorotlar haqidagi ertaklarni sevib o'qiydilar. X.K.Andersen yaratgan ertaklarning juda ko'pchiligi ana shu mavzuni qamrab olishi bilan xarakterlanadi. Uning «Dyumchaxon», «Irkit o'rdakcha», «Botqoqlik shohining qizi», «Baqa», «Burga bilan professor» singari ertaklari o'zbek kitobxonlarining ham sevimli asarlariga aylanib ketgan.

Xullas, Daniya ertakchisi Xans Andersennenning ijodi uzoq yillardan beri yosh kitobxonlarga zavq-shavq bag'ishlab kelmoqda.

## BOLALAR GURUNGI

Bir badavlat savdogar bolalarga ziyofat berdi. Ziyofat kechasiga boy va dongdor xonadonlarning bolalarini taklif qildi. Savdogar ishlari gumburlab yurishib turgan, o'zi ham o'qimishli odam edi, o'z vaqtida gimnaziyani bitirgandi. Gimnaziyada o'qishga uning hurmatli otasi majbur qilgan edi. Otasi yoshligida chayqovchilik qilgan bo'lsa-da, lekin halol, mehnatkash odam edi. Serharakat ota qancha mol-dunyo orttirgan bo'lsa, o'g'li uni yanada ko'paytirdi. Savdogar hushyor, rahmdil kishi bo'lsa-da, lekin odamlar uning bu fazilatlaridan ko'ra, boyliklari haqida ko'proq gapirishardi.

Uning „aslzodalar“ va „ulug'vor boyonlar“dan tanishbilishlari ko'p edi. Shuningdek, na u va na bu mo'tabar toifaga aloqasi bo'lмаган kishilar bilan ham muomala qilar, tanish-bilish orttirar edi.

Xullas, uning uyida kattagina yig'ilish bo'ldi, yig'ilganlar faqat bolalar edi. Ular tinimsiz javrashar, tillariga kelganini qaytarmay gapirishar edi. Bolalar orasida g'oyat chiroyli, lekin o'taketgan dimog'dor bir qizcha ham bor ekan. Qizchaning jismiga kibr-havo ataylab kiritilmagan, balki maqtov-e'zozlar bilan singdirilgan ekan. Yana kimlar deng, qizchaning ota-onasi emas, unga qaraydigan xizmatkorlar uni shunday „kasalga“ chalintirib qo'yishgan ekan. Qizchaning otasi kamer-yunker bo'lgan ekan. Qizchaning tasavvurida bu „favqulodda muhim“ unvon bo'lib tuyulgan.

—Men kamer-yunker qiziman! — derdi u.

Bu qizcha baqqol yoki biror boshqa kasb-korli kishining farzandi bo'lib tug'ilishi ham mumkin emasmi? Ha, darvoqe, u yoki bu oilada tug'ilish bizning istak-ixtiyorimizdan mustasno hol. Xullas, qizcha boshqa bolalarga o'zining „aslzoda“lardan ekanini, oqsuyaklar nasabidanligini uqtirib:

— Kimki oddiy toifadan bo'lsa, undan biror e'tiborli odam chiqmaydi. Har qancha o'qima, intilma, o'rghanma — baribir qoning toza bo'lmasa, aslzoda bo'lmasang hech narsaga erisholmaysan, — derdi. — Familiyasi „sen“ bilan tamomlanadigan kishilarni tilga olmasa ham bo'laveradi — ulardan odam chiqmaydi! Biz aslzodalar har qanday „sen“lardan nariroqda, qo'lni belga qo'yib, ularga qiyo boqmay turishimiz lozim.

Shundan so'ng fuqaro oldida o'zini qanday tutish kerakligini ko'rsatish uchun nozik qo'llarini ikki biqiniga qo'yib, tirsaklarini oldinga chiqargancha g'urur bilan turardi. Uning nozik qo'llari chiroyli, o'zi bag'oyat istarasi issiq, go'zal edi.

Biroq savdogarning qizi undan ranjib qoldi, nega desangiz, uning otasining familiyasi Massen edi. Mana shu zahoti u boshini baland ko'tardi-da, shunday dedi:

—Mening otamni bilasanmi, otam yuz regsdalerning hammasiga novvot sotib olishi va uni sochib tashlab yuborishi mumkin. Sening otang shunaqa qila oladimi?

—Mana, mening otam esa, —dedi bir yozuvchining qizchasi,—sening otang, hozirgi dunyodagi hamma otalar haqida ham gazetaga yozishi mumkin. Oyim „Hamma otangdan qo'rquadi“, deydi, axir gazeta uning aytganini qilar ekan-da.

Shu so'zlardan so'ng qizcha takabburona kekkaygancha turib oldi, uning kibr-havosiga go'yo olam torlik qilardi.

Devor orqasida kambag'al bir bola turgan edi, u qiya ochiq turgan eshikdan astagina mo'ralab bolalarga qaradi. Eshikni olib, tengqurlari oldiga kelishga jur'at eta olmasdi. Bunday kambag'al, bechora bolaga badavlat, aslzoda bolalar davrasiga kirish yo'l bo'lsin? Bola bugun oshpaz xotinning buyrug'iga ko'ra oshxonada qarashib yurgan edi, yumushni tugatgach, bolaga qiya ochiq eshikdan yasanib-tusanib olib, o'yin-kulgi qilayotgan bolalarni tomosha qilishga ruxsat berildi. Shuning o'zi ham kambag'al bola uchun katta baxt edi.

„Qani endi men ham shularning o'mida bo'lsam!“ dedi o'zicha havasi kelib, biroq shu paytda u mahmadonalik qilayotgan qizchalarining gap-so'zlarini eshitib qoldi. Bola ularning gapidan o'sal bo'lib, umidsizlikka tushishi mumkin edi. Nega desangiz, bu bolaning ota-onasida ortiqcha qora chaqa ham yo'q edi-da, gazetaga obuna bo'lishiga kelganda, hech imkon yo'q edi. Bunday odamlar gazeta nashr etishni loaqlal xayoliga keltira olarmidi? Lekin eng yomoni shundaki, otasining familiyasi, demak, uning o'z familiyasi ham „sen“ bilan tamom bo'lardi! „Xullas, mendan hech qachon biror durust odam chiqmaydi! — deb o'yladi kambag'al bola. —Mana baxtsizlik. Lekin mening tomirimda chinakam toza qon aylanyapti! Bu haqda tortishib o'tirishga o'rinn ham yo'q!

“O'sha kuni kechqurun bolalar gurungida mana shunday gap-so'zlar bo'lib o'tgan edi.

Oradan ko'p yillar o'tib ketdi, o'sha bolalar allaqachon ulg'ayib, katta bo'lishdi.

Bu vaqtida o'sha shaharda xazinalar liq to'la bir uy paydo bo'ldi. Hamma shu uyga kirishni, undagi mo'jizalarni tomosha qilishni istardi, hatto bu yerga o'zga shaharlardan ham odamlar kelishardi.

Xo'sh, savdogar uyiga yig'ilishgan o'sha bolalardan qaysinisi endi bu mening uyim, der ekan-a? Bunday qaraganda „Falonchi aslzodaniki bo'lishi mumkin“, deb aytish turgan gap, lekin bunday emas. Ha, bu uy o'sha kuni kechqurun oshxonada xizmat qilib, eshikdan mahmadonalik qilayotgan bolalarga qarayotgan kambag'al bolaniki! Ana o'sha bolaning familiyasi „sen“ bilan tamom bo'lsa-da, lekin undan odam chiqdi. Mashhur rassom Torvaldsenni kim tanimaydi, deysiz?

Boshqa bolalar-chi? Nasl-nasabi, boylik va otasining o'tkir farosatini pesh qilib, gerdagan bolalar endi kim bo'lgan ekan? Albatta, biror kimsa bo'lgani turgan gap. Axir ular hammasi bola edi-da, bolalarda sodda, sof tushuncha, murg'ak, o'tkir zehn bo'ladi. O'sha kechki gurungdag'i ularning fikr-xayoli, gap-so'zlar shunchaki bir bolalik edi, xolos.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. X.K.Andersen ijodi haqida nimalar bilasiz?
- 2.“Duyumchaxon” ertagidagi timsollarini bilasizmi?
- 3.“Irkit o’rdakcha” ertagini matni ustida ishlash qiyinchiliklari haqida gapirib bering.
4. Andersen ertaklarining xususiyati nimada?
5. “Bolalar gurungi” ertagini g’oyasi haqida so’zlang.
6. “Familiyasi „sen“ bilan tamomlanadigan kishilar” deganda muallif kimlarni nazarda tutgan deb o’ylaysiz?

## **AKA-UKA GRIMMLAR**



Aka-uka (Yakob 1785–1863, Vilgelm 1786–1859) Grimmlar Germanyaning Frankfurt-Mayn shahri yaqinidagi Xanau shaharchasida tug'ilgan. Ular Kasseldagi o'rta mакtabni tugatishgandan so'ng Marburg universitetining huquq fakultetiga o'qishga kirdilar. Marburg universitetida o'qib yurgan chog'laridayoq nemis tarixi va madaniyati, huquq va morfologiyasi, xalq og'zaki ijodi hamda til va adabiyot bilan shug'ullana boshladilar.

Ayniqsa ular K. fon Savini yordamida tarix va filologiyani chuqur o'rgandilar. Savini ularda ushbu fanlarga qiziqish uyg'ota oldi va kelajakda aka-ukalar xalq og'zaki ijodini o'rganishni maqsad qilib oldilar. O'qishdan so'ng Yakob professor Savini bilan birga Parijga qadimiy qo'lyozmalarni qidirish ushun yo'l oldi. 1808 yilda Yakob o'sha paytlarda Vestfaliya qiroli bo'lган Jerom Bonapartning shaxsiy kutubxonachisi bo'ldi. Sakkiz yildan keyin ukasi Vilgelm kotib bo'lib ishlayotgan Kassel kutubxonasiga kutubxonachi sifatida qaytib keldi. Ular bu erda juda ko'p ishlarni amalga oshirdilar. Xalq og'zaki ijodiga mansub ertak va afsonalarini yig'dilar.

O'qish, o'z ustlarida qattiq ishlash Grimmlar uchun baxt yo'li bo'ldi. Yakob nemis tili tarixi grammatisasi bilan mifologiyani, Vilgelm esa nemis adabiyoti va xalq og'zaki ijodini o'rgana boshladilar. Nemis xalq og'zaki ijodining gullabyashnashiga, olam kezishiga bir ko'prik yasadilar. Nihoyat, 1812-yilda Grimmlar tomonidan yaratilgan ertaklarning birinchi jildi „Bolalar va oilaviy ertaklar“ yuzaga keldi. 1815-yilda ikkinchi jild, 1822-yilda esa har ikkala jildni umumlashtiruvchi uchinchi jild bosilib chiqdi. 1816-1818 yillarda “Nemis xalq ertaklari” deb nomlangan kitoblari nashr etildi. 1830 yilda aka-ukalar Gyottingen universitetida talabalarga filologiyadan saboq berdilar. Keyinchalik, yaniy 1840 yilda Prussiya qiroli Fridrix Vilgelm IV tomonidan Berlin Fanlar Akademiyasi a'zosi etib tayinlandilar.

Grimmlar ertaklarning ko'pchilik qismini bevosita ertak aytuvchilardan tinglab, ba'zilarini esa dehqonlar bilan suhbatlashib yozib oladilar. Xalqdan

olingan ertaklarning har biri Grimmlar tomonidan qayta ishlanib, badiiy tus berilib, yana xalqqa qaytariladi.

Grimmlarning uch jildlik kitoblariga ikki yuzdan ortiqroq ertaklar jamlangan bo'lib, unda mualliflar ko'proq afsonaviy, maishiy va hayvonlar haqidagi ertaklarni umumlashtirishga harakat qilganlar. Har bir ertakda saxiylik, mehnatsevarlik, botirlik kabi fazilatlar bilan birga, qo'rkoqlar ustidan kulish, dangasalik va yolg'onchilikni qattiq qoralash birinchi o'rinda turadi. Shunisi ham quvonchliki, ko'pincha, bu ertaklarning asosiy qahramonlari shoh va shahzodalar emas, balki kambag'al, beva-bechoralarning o'g'il-qizi, cho'pon yoki askar bo'ladi. Ular o'zlarining ibratomuz ishlari bilan ertak tinglovchida chuqur taassurot qoldiradilar.

Aql bilan ish ko'rish, bilimdonlik mavzulari „Tilla g'oz“, „Shishadagi arvoh“, „Uch aka-uka“ ertaklarida yaxshi aks ettirilgan.

Grimmlarning dunyoga mashhur bo'lgan „Zolushka“, „Qorqiz“ ertaklarining qahramonlari hammadan turtki yeydigan, so'kish eshitadigan va eng past, qiyin yumushlarni bajaradigan qizlar bo'lib, ertak davomida o'zlarining halol mehnatlari, yoqimli so'z va tabassumlari bilan baxtiyor bo'ladir.

„Yalqov Geys“, „Gansning baxti“, „Botir tikuvchi“, „Yosh pahlavon“, „Bremen musiqachilari“ kabi ertaklari o'zbek bolalarining ham sevimli asarlariga aylanib qolgan.

«Yo pahlavon» ertagidagi botir obrazi kichik mакtab yoshidagi bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. U halol, pok inson. U rostgo'ylik, to'g'riso'zlik shaydosi. Shu sababga ko'ra u yo'lida uchragan har qanday to'siq va g'ovni shoshilmay, jasorat va mardlik bilan yengadi, maqsadiga erishadi.

«Botir tikuvchi»ning syujeti ko'pchilikka yaxshi tanish. Qahramon nogahon bir nechta pashshani bir urishda nobud qilish bilan o'ziga o'zi botir, dovyuraklik tamg'asi – shiorini yozib yelkasiga osib oladi. U o'z baxtini, taqdirini sinab ko'rish, peshonasida borini qo'lga kiritish maqsadida safarga otlanadi.

Botir tikuvchi tadbirkor, epchil-chaqqon. Yotib qolguncha otib qol qabilida dovyuraklik bilan ish ko'rish unga katta shuhrat keltiradi. Puxta-pishiqligi bilan g'orda behisob devlar ustidan g'olib chiqadi. Dev ko'tarib olgan daraxt shoxlari ustida qush kabi o'tirishi, devning savollariga qo'rqlmay, ustalik bilan javob berishi asrlar osha kitobxonni hayratga solib kelmoqda.

Botir tikuvchi uchun og'ir sinov o'rmondagi ikki pahlavon bilan «olishuv» bo'ldi. Podsho tomonidan ikki pahlavonni mag'lub qilish vazifasini olgan botir tikuvchi tavakkal qilib yo'lga tushadi. Ustilariga tosh tashlash bilan ular o'rtasida nifoq chiqaradi. Ikki jangchi bir-birini tosh bilan urib nobud qiladi.

O'rmondagi shoxdor mahluqni mag'lub qilgan ertaklardagi kabi tadbirkor yigit bilimdonlik, o'ylab ish ko'rish bilan shoxdor mahluq ustidan g'olib chiqadi.

Botir tikuvchining yumshoq so'zligi, muloyimlik bilan ish ko'rishi yosh kitobxonda yaxshi taassurot qoldiradi. Ularda ham xuddi o'sha botir tikuvchi kabi yetuk insonlar bo'lishga, botir, pahlavon bo'lishga havas uyg'otadi.

Aka-uka Grimmlarning qaysi asarini olmang, hammasida eng avvalo, mehnatkashlik, mehnatga muhabbat g'oyasi ilgari suriladi. Ikkinchidan, har qanday holda ham, har qanday mushkul ish boshiga tushganda ham o'sha qahramon chora

qidiradi, tadbirkorlik, ishbilarmonlik yo'lidan boradi va ofatdan qutiladi. Masalan, «Tulki bilan G'ozlar»ni olaylik. Tulki kabi hiyla va makr ishlata digan jonivor bo'lmasa kerak. Aka-uka Grimmlar unga qarama-qarshi qilib g'ozlar obrazini yaratadi.

G'ozlar har doim chorasziz – bo'sh, beg'am hayot kechiradilar. Aka-uka Grimmlar vaqt kelganda o'sha boqi beg'am g'ozlar ham sergak, tetik, tadbirkor, ishbilarmon bo'lib ketishlarini, hayotda o'zlarini himoya qila bilishlarini, olg'ir, muttaham tulkilarni ham dog'da qoldirishlarini mazkur asarda ishonarli tarzda tasvirlab bergenlar.

Tulki o'tloqda yurgan g'ozlarni yemoqchi bo'ladi. Ular o'limlari oldidan bitta qo'shiq aytib, so'ngra tulkiga yem bo'lislarni so'raydilar. Ammo uzundan-uzoq «g'a-g'a»lari tulkini zerikatiradi, uning tinka madorini quritadi, axiyri g'oz – o'ljadan voz kechishga majbur bo'ladi. Quyida ushbu ertak matnini keltirishni o'rinni deb bildik.

## BIR XURMACHA SHAVLA

Bor ekan, yo'q ekan, bir qizcha yashar ekan.

Qizcha bir kuni o'rmonga maymunjon olib kelish uchun bordi va u yerda bir kampirni uchratdi.

—Assalomu alaykum, —dedi qizcha kampirga.

—Menga rahm etib maymunjonningni bersang-chi!

—Mana oling — dedi qizcha.

Kampir maymunjoni yeb bo'lib:

— Sen menga maymunjon berding, men ham senga biron narsa sovg'a qilaman. Mana senga xurmacha, sen unga qarab „Bir, ikki, uch, Xurmachada shavla pish“ deysan. Shunda u shirin, mazali shavla pishira boshlaydi! Shundan so'ng aytasanki, „Bir, ikki, uch, Pishirishdan kech“. Xurmacha shavla pishirishdan to'xtaydi.

—Rahmat, buvi, —dedi qizcha va xurmachani olib, uyiga— onasining oldiga ketdi.

Onasi bundan juda suyundi.

Mehnatsiz, ovorasiz, hamma vaqt shirin va mazali shavla bo'lsa-yu, tag'in nega suyunmasin?

Bir vaqt qiz uydan qayoqqadir ketdi. Onasi bo'lsa xurmachani o'z oldiga qo'yib:

—Bir, ikki, uch, Xurmachada shavla pish, — dedi. Xurmacha shavla pishira boshladi. Ko'p shavla pishirdi. Onasi to'yib-to'yib yedi. Xurmacha esa shavlani hadeb pishiraverdi.

Lekin onasi „Bir, ikki, uch, Pishirishdan kech“ deyishni esidan chiqarib qo'ygan edi. Xurmacha hamon shavla pishiraverdi. Uy ham shavлага to'ldi, uy oldi ham, tomda ham shavla, hatto ko'chalar ham shavлага to'ldi, u hamon to'xtamay, shavla pishiraverdi. Onasi juda qo'rqi va qizchasiga yugurdi. Lekin yo'lida issiq shavla daryo bo'lib oqqani uchun o'tish juda qiyin edi. Yaxshiyam qizchasi uydan uzoqda emas edi. Qizcha ko'chadagi voqeadan xabardor bo'lib darrov uyga

yugurdi. Juda qiyinlik bilan kelib, eshikning xalqasidan ushlab ochdi va: „Bir, ikki, uch, Pishirishdan kech,“ deb qichqirdi.

Shunda xurmacha shavla pishirishdan to'xtadi.

Ammo xurmacha shunday shavla pishirdiki, kimning qishloqdan shaharga borishiga to'g'ri kelgan bo'lsa, unga bu shavla shaharga yetguncha kifoya qilar edi.

Hech kim bundan shikoyat qilmadi. Chunki shavla juda shirin va mazali edi.

## TULKI BILAN G'OZLAR

Bir kuni Tulki o'tloqqa kelibdi. O'tloqda ajoyib, semiz-semiz g'ozlar sayr etib yurgan ekan. Tulki ularni ko'rib, juda sevinib ketibdi-da:

—Maza bo'ldi, hozir hammangni yeyman! —debdi.

G'ozlar esa:

—Tulkijon, bizlarni yema, rahm qil! —deb yalinishibdi.

—Rahm qilish-a, bo'lмаган gap. Hammangni yeyman, — dedi yana Tulki.

G'ozlar endi qanday qilib qutulsak ekan, deb o'ylab qolishibdi.

Shunda bittasi:

—Tulkijon, o'lish oldidan bitta qo'shiq aytishimizga ruxsat ber. Qo'shiqni aytib bo'lganimizdan keyin hammamizni yeysan. Hatto o'zimiz qarshingda qator tizilib turamiz, semiz-ozg'inligimizni tanlashing oson bo'ladi, —debdi.

— Mayli, qo'shiq aytsanglar ayta qolinglar, — debdi Tulki.

Dastlab bitta g'oz qo'shiq aytibdi. Uning qo'shig'i mana bunaqa uzundan uzoq ekan: „G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!..“

Undan keyin ikkinchi g'oz jo'r bo'libdi: „G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!..“

Undan keyin uchinchi g'oz: „G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!..“

Ulardan so'ng to'rtinchisi xonish qilibdi: „G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!..“

To'rtinchchi g'ozdan keyin beshinchi g'oz ham: „G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!..“ —deb qo'shiq boshlabdi.

Oxiri hamma g'ozlar birgalikda qichqirib, „g'a-g'a-g'a“lashishga tushibdi: „G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!..“

Qachonki g'ozlar qo'shig'i tamom bo'lsa, ertak ham tugaydi. Shundagina tulki g'ozlarni yeydi.

Biroq aqlli g'ozlar qo'shiqni to'xtatishni o'yashmabdi. Ular hozir ham „G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a“, deb qichqirib turishgan emish.

### Savol va topshiriqlar:

1. Aka-uka ertakchilarning hayoti va ijodi haqida so'zlang.
2. Ularning jahonga mashhur ertakchilar bo'lib yetishishlari sababi nimada deb o'ylaysiz?
3. Mavzulariga ko'ra aka-uka Grimmlarning ertaklari necha guruhga bo'linadi?
4. "Bir xumcha shavla" va "Tulki bilan g'ozlar" ertagining g'oyaviy xulosasini ayting.
5. "Qo'li gul qiz", "Mitti odamchalar" ertagi timsollari haqida gapirib bering.

6. Ertakni sahnalashtirish, amaliyotga bog`lash, tarbiyaviy maqsadni yoritish yo`llarini o`rgatishning qanday qiyinchiliklari maqvjud.



## REDYARD JOZEF KIPLING (1865–1936)

Redyard Jozef – jahonda yosh kitobxonlar tomonidan eng ko`p asarlarini sevib mutolaa qilinadigan ingliz adiblaridan biri. U 1865-yilda Londonda tug'ilgan. Uning otasi Jozef ingliz sultanating Hindistondagi yirik amaldorlaridan edi. Shu bois, Redydarning ilk bolaligi Hindistonda kechdi. Boshlang'ich ta'limni shu yerda oldi. Hind va bengal tillarini, mahalliy xalq urf-odatlarini, xalq og'zaki afsonalarini sinchkovlik bilan o'rgana boshladi. Oliy ta'limni Angliyada xatm qildi. Juda yoshligidan she'riy ijod bilan ham shug'ullanadi. Shu bilan birga, nasriy ijodga ham qo'l urdi. 1886 yilda «Departament navolari» she'riy to'plami va 1888 yilda «Tog'dagi oddiy ertaklar» hikoyalar to'plamlarini nashr ettirdi. Kipling o'zining she'r va hikoyalarida anglo sakson irqining Sharqning «qoloq» xalqlari orasidagi «Madaniyatparvarlik» faoliyatini ko'klarga ko'tarib maqtadi. 1889 yilda nashr etilgan «Oq irqning tashvishlari» she'riy to'plamida bu g'oyalarni yanada izchillik bilan tashviq etdi.

Kipling 90-yillarning oxiridan boshlab yozuvchi sifatida mashhur bo'ldi. U «Nur so'ndi» (1890) nomli ilk romanida iste'dodli musavvirning fojiaviy-hayotiy sarguzashtini juda ta'sirli bayon etdi. 1901 yilda bitilgan «Kim» romanida ingliz sultanati tojiga xizmat qilgan aqli o'g'lonning hayoti haqida qiziqarli rivoyat yaratdiki, u o'zining mazkur asarlari vositasida g'arb kitobxonlari orasida katta shuhrat qozondi. Shu tariqa, Kipling 1890-1910 yillar orasida birin-ketin «Qal'a qo'shiqlari», «Yetti ummon», «Besh millat» kabi bir qattor she'riy to'plamlarini e'lon qildi. Mazkur to'plamlariga jamlangan she'rlarida askarlar, kichik amaldorlar, ingliz mustamlaka qo'shinining o'zga oddiy zahmatkashlarning hayot tarzi, vatanparvarlik tuyg'ularini romantik tarzda kuyladi, ularning toju taxtga nisbatan bo'lgan sadoqat va fuqarolik mayllarini ayniqsa bo'rttirib tasvirlashga intiladi.

Kipling o'z ijodiy inkishofining ikkinchi bosqichida yarim afsonaviy qissalar yaratish bilan mashg'uł bo'ldi. Uning «Dovyurak dengizchilar», «Oddiy rivoyat» kabi qator roman va qissalari ravon, qiziqarli uslubga, maroqli tasvirga keltirilganligi tufayli keng kitobxonlar ommasi orasida juda tez shuhrat qozondi. Ayniqsa, yozuvchining changalzor o'rmon (jungli) vahshiy hayvonlari orasida yashagan odam farzandi Maugli «qurbaqacha» sarguzashtlarini rivoyat qilgan «Jungli kitobi», «Jungli haqida ikkinchi kitob», «Rikki-Tikki Tavi» qissalari jahon bolalari va o'smirlari adabiyotining eng sevimli kitoblariga aylanib qoldi. Dunyoning juda ko'p tillariga shu jumladan, rus tiliga bir necha bor tarjima qilindi. Yosh kitobxonlar Kipling qissalarining ixchamlashgan yig'iq bayoni bo'lgan

«Maugli» asari bilan 1956 yilda Rostov va Donda nashr etilgan nusxasidan 1974 yilda tarjimon Muhsin Zokirov tomonidan qilingan tarjima orqali tanishish imkoniga ega bo'ldilar.

**Savol va topshiriqlar:**

1. R.Kipling nomini mashhur qilgan asarlar haqida gapiring.
2. Kipling ertaklari jozibadorligi nimalarda ko'rindi?
3. "Maugli" qissasi bosh qahramonining siz havas qiladigan jihatlarimi so'zlang.
4. Qissaning bosh g'oyasini topishga harakat qiling.

## JANNI RODARI (1920-1980)



Qadrli talabalar! Siz aka-uka Grimmlar, Sharl Perro, Hans Kristian Andersen hamda boshqa adiblar qalamiga mansub ertaklar va bu asarlar asosida yaratilgan kino va sahma asarlari bilan tanishsiz. Esingizda bo'lsa, o'tgan darslarda Hans Kristian Anderssenning «Bulbul» nomli ertagini o'rgangansiz. Bilasizki, ertaklarda afsonaviy, o'ylab topilgan voqealar tasvirlanadi. Biroq ular zamirida kishini ezgulikka. xayrli ishlarga undovchi, insonni ma'naviy jihatdan go'zallashtiradigan sehrli bir kuch mavjud. Kattalarning ham, kichiklarning ham ertaklarni birdek yaxshi ko'rishi shundan bo'lsa, ajab emas. Italiyalik ertakchi Janni Rodari yuqorida biz nomini tilga olgan buyuk ijodkorlardan ancha keyin yashab o'tgan bo'lsa-da, o'zining mo'jizali, o'quvchini hayratga soluvchi ertaklari bilan jahon bolalarining qalbini rom etgan adibdir.

Janni Rodari 1920-yilning 23-oktabrida Italiya shimolidagi Omenya shahrida hunarmand oilasida tavallud topdi. Jannining bolalik yillari mashaqqatli kechdi. Uning otasi Juzeppe Rodarining kasbi novvoy bo'lib, Jannining bolaligi, adibning o'zi ta'kidlaganidek, «olov jizillab turadigan tandir yonida, un va ko'mir solingan qoplar orasida» kechdi. Jannining otasi nisbatan erta vafot etadi. Tirikchilik og'irlashgach, ularning oilasi boshqa shaharga ko'chib ketadi. Janni bolaligida qo'g'irchoq yasovchi usta yoki rassom bo'lishni va boshqa qiziqarli kasblarni egallahni orzu qilgan edi. Biroq kambag'allik tufayli hech orzu qilmagani diniy maktabga o'qishga kirishga majbur bo'ladi. Chunki bu yerda o'quvchilarga ovqat va kiyim-kechak tekin berilar edi. Shunday bo'lsa-da, Rodari bu maktabda ikki yildan ortiq o'qiy olmaydi.

Yosh Janni universitetga o'qishga kiradi. Ayni vaqtda boshlang'ich maktabda o'qituvchilik bilan shug'ullanadi. Maktabdagi o'quv jarayoni, bolalar bilan yaqindan muloqotda bo'lish, ularning fe'l-atvori, qiliqlari, qiziqishlarini chuqur o'rganish Rodarining bolalar yozuvchisi sifatida shakllanishida jiddiy omil bo'ldi, deya olamiz. Yosh o'qituvchi Janni Rodari o'quvchilari bilan uzoq suhbat qurar, ularning ba'zan javob berish mushkul bo'lgan xilma-xil savollaridan zavqlanar, bu savollarga javob berish uchun turli xil voqealarni hikoya qilib berardi. J.Rodari bu jarayonda o'zi ham bilmagan holda kichik ertaklar to'qir, ularni yosh do'stlariga

aytib berar edi. Keyinchalik u o'zi to'qigan ertaklarni qog'ozga tushira boshlaydi. Ana shu tarzda yozuvchining ilk to'plami – «Quvnoq she'rlar kitobi» yuzaga keladi. Shundan keyin u Italiyada va boshqa mamlakatlarda mohir ertakchi adib sifatida taniladi. Yozuvchining «Chippolinoning sarguzashtlari», «Telefonda aytilgan ertaklar», «Jelsamino yolg'onchilar mamlakatida», «Osmondag'i tort», «Televizorga kirib qolgan Jip», «Rim ertaklari», «Uchtadan oxiri bor ertaklar» kabi mutoyibaga boy, ta'sirchan hikoyalar turkumi maydonga keldi. Bu asarlarning ko'pchiligi o'zbek tilida ham nashr etilgan. Janni Rodari asarlari o'zining xayolotga boyligi, samimiyligi mutoyibasi bilan o'quvchini hayratga soladi. Janni Rodari ahamiyati jihatidan Nobel mukofotiga teng bo'lган Hans Kristian Andersen mukofotiga sazovor bo'lган adib edi. Mashhur yozuvchi 1980-yil 14-aprelda vafot etdi.

### **JANNI RODARI ERTAKLARI HAQIDA**

Ertaklar – xayolot mahsuli. Deyarli barcha ertaklardagi umumiy jihat shundaki, ushbu janrga mansub asar qahramonlari og'ir vaziyatga tushib qolganlarida, chigal muammoga duch kelganlarida ularga qayerdandir madad yetib keladi. J.Rodarining «Hurishni eplolmagan kuchukcha» va «Shahzoda Plombir» ertaklari ham ana shunday voqealar zaminiga qurilgan. Avvalo, «Hurishni eplolmagan kuchukcha» ertagiga to'xtalaylik.

Bu ertak zamirida ham chigal muammoni qandav hal etish masalasi ko'ndalang bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki. Janni Rodari «Uchtadan oxiri bor ertaklar» turkumi bilan jahon ertakchiligidagi yangi bir usulni yaratdi. Bu yangilik shundan iborat ediki, ularda voqealar yechimi uch xil yakun topadi. Bunda har bir yakun o'zining boshqasidan tubdan farq qiladigan mazmun-mohiyatiga ega bo'ladi. Ushbu turkumga kirgan «Sehrli nog'ora», «Ayyor Buratino», «Sahrodagi uy», «Milanda yoqqan shlyapa yomg'iri», «Rinaldoning sarguzashtlari» kabi o'quvchini o'ta qiziqtiruvchi ertaklarning barchasi uch xil yakun topadi. «Hurishni eplolmagan kuchukcha» ham shu turkumga mansubdir. Ertakda tasvirlanishicha, bir kuchukcha aslida hurishi lozimligini eshitgani holda, uning qanday bo'lishini tasavvur qila olmaydi. Qolaversa, o'zining qaysi zotga mansubligi, nima bilan shug'ullanishi lozimligini uzoq vaqt anglay olmay sarson bo'ladi. Kimdir unga «Kuchuk degani huradi-ku» deb ta'na qilganda. yordam so'rab xo'rozga, kakkuga, sigirga murojaat qiladi. Biroq ular o'z tabiatlariga ko'ra nimaga qodir bo'lsalar, kuchukchaga shuni o'rgatadilar: kuchukcha ular «yordamida» xo'rozday qichqirishni, kakkuday sayrashni, sigirday mo'rashni o'rganib oladi, o'zicha bu hunarlar orqali mashhurlik darajasini egallyayman, deb xomxayolga beriladi. Bir dehqon qo'liga tushganda esa, uning umuman hurmasligi evaziga bo'yniga zanjir osiladi, har kungi nasibasi bir parcha suyak bo'ladi.

Nihoyat, kuchukcha ovchi itning ko'magi bilan o'z mashg'uloti «vovullash»dan iborat ekanligini tushunib yetadi va vovullab rohatlanadi. Bu, albatta, ertakning yuzaki mazmunidir. Buyuk adib ushbu ertak bilan nima demoqchiligidagi e'tibor bering. «Men astoydil enakning uchinchi tugashini yoqlayman. Inson uchun avvalo yaxshi bir ustoz darkor». Haqiqatan ham bu fikrga qo'shilsa bo'ladi. Adibning fikrlarini davom ettirib, ularga quyidagilarni

qo'shimcha qilish mumkin: tabiat va jamiyatda hamma narsaning o'z o'rni bo'lishi lozim. Jajji kuchukcha hayotda o'z o'rnini, mashg'ulotini topguncha qiyndi, o'ziga yot bo'lgan mashg'ulotlar – xo'rozday qichqirish, kakkuday sayrash, sigirday mo'rashni ham foydali tomonga yo'naltirishga harakat qildi go'yo. Hatto, hurishni bilmay turib ham o'ziga munosib ish topib olgandek ham bo'ldi. Biroq u faqat ovchi itiga duch kelgandagina ichida tushuntirish va tushunish qiyin bo'lgan tuyg'uni boshdan kechiradi. Avvaliga qayerdan kelayotgani noma'lum bo'lgan g'alati ovoz uning yuragiga jiz etib tekkanday bo'ladi, yuragini o'ynatib yuboradi...

Endi bir savol ustida o'ylab ko'raylik: kakkudek sayrashni, xo'rozdek qichqirishni, sigirdek mo'rashni tinimsiz mashq qila-qila zo'rg'a o'rgangan kuchukchadagi bu o'zgarishning, hayajonning boisi ne? Nima uchun u «birdaniga hura ketadi»? Hamma gap shundaki, yozuvchi mana shu mitti kuchukcha taqdirida odamzodga xos bo'lgan muhum va abadiy muammolardan biriga javob izlagan. Ya'ni, dunyodagi har bir mavjudot, ayniqsa, inson, avvalo, o'zini, o'zligini tanimaguncha, kimning avlodi ekani, asosiy vazifasi nimadan iborat ekanini anglamagunga qadar hayotda o'z o'rnini hech qachon topa olmaydi. Bunday kimsalarning o'zgalar kulgisi va mazaxiga duchor bo'lishi aniqdir.

Bu jihatdan kuchukchaning dehqon qo'lida tushgan holati Siz-u bizni, ayniqsa, jiddiy o'nga toldirmog'i lozim. O'z tabiatidan yotlik, hayotdagи chinakam vazifasini anglamaslik kuchukchaning bo'yniga temir zanjirni soladi, rizqini esa bir parcha suyakdan iborat qilib qo'yadi.

Demak, har bir odamning, har bir xalqning avvalo o'z tabiatiga sodiq bo'lmosh'i, ajdodlari an'analarini teran anglab yetmog'i, ularni har narsaga chalg'imay davom ettirmog'igina uning o'zligini tanishiga garov bo'la oladi. Janni Rodari Siz bilan bizni ana shu haqiqatni unutmaslikka chaqiradi. Ertakdan kelib chiqadigan eng muhim xulosaning ma'nosi ham, asarning tarbiyaviy ahamiyati ham aynan shunda.

«Shahzoda Plombir» ertagini qahramoni sinyor Molteni «Qo'shaloq qutb» firmasidan kreditga, ya'ni qarzga xolodilnik (muzlatkich) olgan. Ma'lumki, kreditga olingan buyumning haqini oyma-oy oz-ozdan to'lab borish kerak. Lekin sinyor Molteni bu qarzni ikki oydan beri to'lay olmayapti. Buning oqibati esa ma'lum: qarzini o'z vaqtida to'lay olmagani uchun firma uning xolodilnigini qaytarib oladi.

Xuddi shu o'rinda mo'jiza ro'y beradi. Sinyor Molteni yashaydigan ko'p qavatli uyning barcha xonodonlaridagi xolodilniklar ichiga samoviy kelgindilar — marsliklar joylashib olishadi. O'z sayyoralarida falokat xavfi tug'ilganligi sababli ular Yerning Shimoliy qutbiga yo'l olishadi. Biroq kemalarining yonilg'isi tugab (bu yonilg'i yangi yoqqan qor ekanligi ertakdan ma'lum), ular sinyor Molteni yashaydigan uyga qo'nishga majbur bo'lischadi.

Xullas, bu voqeа haqidagi xabar butun shaharga, shahardan esa butun dunyoga tarqab ketadi. Ayniqsa, sinyor Moltenining xolodilnigiga joylashib olgan kelgindilarning boshlig'i – shahzoda Plombirni ko'pchilik yaxshi ko'rib qoladi. Uning hatto televizor orqali so'zga chiqishi katta shov-shuylarga sabab bo'ladi.

Hurmatli talabalar, siz «bozor iqtisodiyoti» degan ijtimoiy sharoitni yaxshi tushunasiz. Bozor iqtisodiyotining xususiyatlaridan biri shuki, unda biron-bir firma yoki kompaniya o'z mahsulotini qanchalik ko'p sotsa, u shunchalik boyiydi va yanada taraqqiy etadi. Shuning uchun ham ular o'z mahsulotlarini reklama qilish uchun katta-katta mablag' sarflaydilar.

«Shahzoda Plombir» ertagida ham yozuvchi reklamaning ajabtovur xususiyatini muammolar yechimiga asos qilib oladi. Ya'ni sinyor Molteni xolodilnigiga joylashgan shahzoda Plombir bayonot berib, unda «Qo'shaloq qutb» markali xolodilniklarni Quyosh sistemasidagi eng ajoyib muzlatkichlari deb e'lon qiladi. Demak, endi bu firmaning ming-minglab xaridorlari paydo bo'ladi, firma egalariga katta daromad oqib kela boshlaydi. Shahzoda Plombir aytganidek, sinyor Moltenidan «Qo'shaloq qutb» firmasi nafaqat to'lanmagan qarzni, hatto qolgan pulni ham talab qilmaydi.

An'anaviy xalq ertaklarida og'ir vaziyatga tushib qolgan qahramonga odatda hayvonlar, qushlar, hasharotlar va boshqalar yordamga kelishadi. J.Rodarining ushbu ertagi esa zamонавиyligi bilan ajralib turadi. Unda bugungi uy-ro'zg'or buyumlaridan tortib to fazoviy kemalargacha bo'lgan ashylarni uchratamiz. Demak, har qanday zamonda ham insonning qadri oddiy ashylardan baland turadi, har qanday davrda ham kimgadir yaxshilik qilish eng go'zal fazilat bo'lib qolaveradi, degandek bo'ladi Janni Rodari.

Siz quyida Janni Rodarining «Uchtadan oxiri bor ertaklar» turkumidagi «Hurishni eplolmagan kuchukcha» hamda «Rim ertaklari» kitobidan olingan «Shahzoda Plombir» nomli ertaklar bilan tanishasiz.

### **«UCHTADAN OXIRI BOR ERTAKLAR» TURKUMIDAN HURISHNI EPLOLMAGAN KUCHIKCHA**

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, hurishni eplolmaydigan bir kuchukcha bo'lgan ekan. U na hora olarkan, na miyovlay olarkan, na ma'rashni va na kishnashni bilarkan, qisqasi, hech bir maxluq tilida gapirishni uddalay olmaydigan shunday bir go'rso'xta ekan. Asli-naslini so'rasangiz, o'zi bir mushtdaygina, juda ham oddiy kuchukcha ekan. Ilgarilari kuchuk asari ko'rinxmaydigan bu qishloqda uning qayerdan paydo bo'lib qolganini hech kim bilmas ekan. Albatta, shundoq bo'lgandan keyin «men nega hurishni bilmayman-a?» – degan o'yni xayoliga ham keltirmas ekan. Lekin kunlarning birida kimdir uni savolga tutibdi:

- Qiziq, sen nega sira hurmaysan?
- Hurish?.. Bu nima deganingiz? Axir men bu yerlik emasman, men hurishni bilmayman...
- Obbo jinqarcha-yey! Nahotki, hamma kuchuklar vov-vov deb hurishini bilmasang?
- Nimaga huradi?
- «Nimaga» deganing nimasi? Axir kuchuk bo'lgandan keyin huradi-da! O'tkinchilarga qarab huradi, ko'ziga shubhali ko'ringan mushuklarga qarab huradi. Oyga qarab huradi, hayotidan mamnun bo'lganda huradi. Jahli chiqqanda, g'ashi kelganda huradi. Ko'pincha kunduz kunlari huradi, lekin tunda hurgan paytlari ham bo'ladi.

- Gapingizda jon borku-ya, lekin men...
- Sen juda kim bo’libsan? Yoki sen to’g’ringda gazetalarda yozishlarini xohlaysanmi?

Kuchukcha nima deb javob berishni bilmay, jimb qolibdi. U hurishni bilmagani uchun ham uni qanday o’rganishga aqli yetmabdi-da.

– Unday bo’lsa, men nima qilsam, sen ham shunday qil, – kuchukchaga ichi achiganidan maslahat solibdi xo’rozcha. U o’zining jarangdortovushi bilan bo’ynini gajak qilib bir necha marta Qu-qu-qu-quvvv!» deb qichqiribdi.

– Bu sen o’ylaganchalik osonga o’xshamaydi, — debdi kuchukcha.

– Be, shu ham gap ekanmi! Yaxshilab qulog sol, mening tumshug’imga diqqat qil. Qisqasi, men nima qilsam, sen ham shunday qil.

Xo’rozcha yana «qu-qu-qu-quvvv!» deb qichqiribdi.

Kuchukcha unga taqlid qilmoqchi bo’libdi-yu, biroq tomog’idan qandaydir beo’xshov «qih-qih» degan ovoz chiqibdi, xolos. Shu yerda donlab yurgan tovuqlar cho’chib, har tomonga qochib qolibdi.

– Hechqisi yo’q, — tasalli beribdi xo’rozcha, — birinchi martaga bu juda yaxshi chiqdi. Endi esa takrorla. Qani!

Kuchukcha yana bir marta qichqirishga urinib ko’ribdi, biroq yana hech narsa chiqmabdi. Shunda u kunda-kunda oz-ozdan mashq qila boshlabdi, goho u o’rmonga kirib ketarkan-da, u yerda xalaqit beruvchi hech kim bo’lmay, ko’ngli istagancha qichqirar ekan.

Kunlardan bir kun ertalab u shunaqangi qotirib qichqiribdiki, azbaroyi ovozi tiniq va jarangdor chiqqanidan o’zi ham zavqlanib ketibdi. Xo’roz qichqirig’i qulog’iga chalingan tulkivoy o’zicha: «Xudoga shukur, xo’rozvoy holimdan xabar olgani keldi! Bu himmati uchun unga darrov minnatdorchilik izhor qilib qo’yishim kerak», deb o’ylabdi o’zida yo’q suyunib. U xo’rozcha istiqboliga oshiqibdi, Albatta, pichoq, vilka va salfetka olib olishni ham unutmabdi, chunki o’zingizga ma’lumki, tulki uchun babaq xo’rozdan shirinroq taom dunyoda bo’lmaydi. Lekin babaq xo’roz o’rniga dumida cho’nqayib o’tirgancha ovozining boricha paydar-pay «qu-qu-qu-quvvv!» deb qichqirayotgan kuchukchani ko’rganda, tulkivoyning qanchalik hafsalasi pir bo’lganini aytmasa ham o’zingiz bilsangiz kerak.

– Eh, – debdi tulkivoy, — bu ahvolda qopqonga tushib qolmasam go’rga edi!

– Qopqonga deysanmi? — ajablanib so’rabdi kuchukcha.

– Ha-da! Men seni ataylab o’zini o’rmonda adashib qolganga solib, xo’roz bo’lib qichqiryapsanmi deb o’ylabman. Yaxshiyamki, paytida ko’rib qoldim seni. Lekin bunday ov qilish g’irromlikdan boshqa narsa emas. Kuchuklar odatda ovchi kelayotganidan ogohlantirib, hurib ovoz beradilar.

– Yolg’on gapisam, o’lay agar... Ov qilish mening xayolimga ham kelgani yo’q. Men bu yerga faqat mashq qilgani kelganman.

– Mashq qilgani kelganman deysanmi? Nimani mashq qilasan?

– Men hurishni o’rganyapman, ancha o’rganib qoldim ham. Qulog solgin-a, juda yaxshi hora olaman.

Shunday deya kuchukcha yana «qu-qu-qu-quvvv!» deb baralla qichqiribdi.

Tulki ichaklari uzilgudek qotib-qotib kulibdi. Yerga dumalab, qornini ushlab shunaqangi kulibdiki, sira o’zini to’xtatolmabdi. Kalaka qilib kulganlaridan

kuchukcha qattiq xafa bo'libdi, — axir buni o'rganguncha ozmuncha mehnat qildimi! Bechora yig'lamoqdan beri bo'lib, dumini qisgancha uyg'a qaytibdi. Bir vaqt yo'lida u bir kakkuga duch kelibdi. G'amgin ketayotgan kuchukchani ko'rib, kakkuning unga rahmi kelibdi va ko'ngil so'rabdi:

- Senga nima bo'ldi, kuchukvoy, tinchlikmi?
- Hech narsa bo'lgani yo'q.
- Bo'lmasa nega buncha g'amgin ko'rinasan?
- Eh... so'rab nima qilasan?.. Hamma balo hurishni eplolmaganidam.

Buning ustiga birov o'rgatib qo'yay ham demaydi.

— Gap faqat shunda qolgan bo'lsa, men senga ko'z ochib-yumguncha o'rgatib qo'yanim bo'lsin. Yaxshilab quloq sol, men sayrayman: kuk-ku, kuk-ku! Bildingmi?

- Unchalik qiyingga o'xshamayapti...
- E, oppa-oson! Men juda kichkinaligidan kukulashni bilaman. Qani, takrorla: «Kuk-ku, kuk-ku, kuk-ku, kuk-ku!..»
- Ku, — sayrashga urinibdi kuchukcha, — ku...

U mana shu «kuk-ku»ni yana ko'p martalab takrorlabdi, o'sha kuni kechgacha va ertasiga ham faqat shuni mashq qilibdi, bir haftadan keyin esa ajabtovur kukulaydigan bo'lib qolibdi. U o'ziga o'zi qoyil qolib, o'ylabdi: «Mana, nihoyat men chinakam huradigan bo'lib qoldim. Endi meni hech kim kalaka qilib, ustidan kulolmaydi».

Ayni shu kunlari ov mavsumi boshlangan paytlar ekan. O'rmonda ko'p ovchilar paydo bo'libdi. Ular ichida to'g'ri kelgan tomonga va duch kelgan jonivorga qarab o'q otaveradiganlari ham bor ekan. Agar ovozlari quloqqa chalingudek bo'lsa, bulbullami ham ayab o'tirishmas ekan. Ana shunday ovchilardan biri o'nnonda ketayotib, butalar orasidan: «Kuk-ku, kuk-ku...» degan ovozni eshitib qolibdi. Ovchi darhol miltig'ini qo'liga olib mo'ljalabdi-da, ustma-ust: «Paq-paq!» — o'q uzibdi. Xayriyat, o'q kuchukchaga tegmabdi. Xuddi qulog'ining ostidan vizillab o'tib ketibdi. Bechora kuchukchaning shunaqangi o'takasi yorilibdiki! Qochib ketayotib, o'zicha o'ylar emish: «Hoynahoy, bu ovchining esi joyida bo'lmasa kerak, bo'lmasa kelib-kelib hurishni biladigan kuchukka qarab o'q uzadimi...»

Ovchi esa bu paytda o'ljasini qidirish bilan ovora ekan. U mo'ljalga aniq urganiga shubha qilmagan ekan-da.

«Hoynahoy urgan qushimni allaqayoqdan paydo bo'lgan haligi kuchukcha ilib ketgan», o'ylabdi u.

Alamini bosish uchun ovchi inidan mo'ralab turgan sichqon bolasiga qarab o'q uzibdi, lekin bu ham mo'ljalga tegmabdi. Kuchukcha bo'lsa chopib ketaveribdi, ketaveribdi...

Kuchukcha chopib ketaveribdi, ketaveribdi, bir vaqt bir sigir bemalol o'tlab yurgan o'tloqzordan chiqib qolibdi.

- Qayoqqa shoshib ketyapsan, kuchukvoy?
- O'zim ham bilmayman.
- Unday bo'lsa to'xtab, birpas damingni ol. Bu yerning o'tlog'ini qara, ko'mko'k.

- Eh, gap o'tloqda bo'lganda-ku, o'zim bilardim-a...
- Ha, nima bo'ldi? Tobing yo'qmi?
- Undan battari. Men hurishni bilmayman!
- Seni qara-yu, dunyoda eng oson narsa shu-ku! Qulog sol: «Mo'-o'! Mo'-o'! Mo'-o'!..» Xo'sh qalay, yoqdimi?
- Durust. Lekin bir narsani ko'nglim sezib turibdi, menga kerak bo'lgan narsa bu emas. Chunki, sen sigirsan...
- Ha, albatta, sigirman...
- Men esa sigir emas, kuchukchaman.

### **Ertakning birinchi tugashi**

- Kuchukcha bo'lmay nimasan? Kuchukchasan. Xo'sh, nima bo'pti shunga? Mening tilimda gapirishni o'rganib olsang, buning nimasi yomon ekan?
- Bu bilan sen juda zo'r fikmi o'rta ga tashlaganingni bilasanmi?
- Qanaqa fikrni?
- Mana, hozirgina mening miyamga kelgan fikrni-da. Men barcha hayvonlar tilini o'rganib olaman-da, sirkda tomosha ko'rsataman. Hamma meni olqishlab, qarsak chaladi, men boyib ketaman va shoh qiziga uylanib olaman. Kuchuklar shohining qiziga, albatta...
- Barakalla, juda yaxshi o'yabsan buni! Qani, belni mahkam bog'lab, ishga kirishaver. Yaxshilab eshitib ol: «Mo'-o'-o'! Mo'-o'-o'!»
- Mo'-o'... – o'zicha g'o'ng'illabdi kuchukcha.
- Hurishni eplolmagan, lekin boshqa tillarni o'rganishda zo'r qobiliyatga ega bo'lgan kuchukcha qaysi desa, hech ikkilanmay shuni ko'rsatavering, yanglishmaysiz.

### **Ertakning ikkinchi tugashi**

Kuchukcha chopib ketaveribdi, ketaveribdi... Yo'lda unga bir dehqon uchrabdi.

- Buncha shoshib, qayoqqa ketyapsan, hoy kuchukvachcha?
- O'zim ham bilmayman...
- Unda men bilan yur. Menga xuddi senday bir kuchukvachcha juda zarur edi – tovuqxonamni qo'riqlaysan.
- Siz bilan jon deb borar edim-u, lekin bir aybim bor – hurishni bilmayman.
- Ayni muddao-da! Hurishni biladigan kuchuklar faqat o'g'rilarga qo'l keladi – cho'chitib, o'g'rini qochirib yuboradi. Sening ovozingni esa ular eshitmaydi, yaqinroq keladi, shunda sen ularni shappa tutib olib, talab-talab tashlaysan, ular qilmishiga yarasha jazosini oladi.
- Bo'pti, roziman, — deb javob beribdi kuchukcha.
- Shu tariqa hurishni bilmaydigan kuchukcha o'ziga munosib ish topib olibdi. bir umr bo'yniga zanjir tushib, kunda bir kosa suyak nasibasi bo'libdi.

## **Ertakning uchinchi tugashi**

Kuchukcha chopib ketaveribdi, chopib ketaveribdi... Birdan qulog'iga qandaydir maxluqning: «Vov-vov! Vov-vov!» degan g'alati ovozi chalinibdi-yu, taqqa to'xtabdi.

«Qulog'imga tanish va issiq eshitilyaptimi?» – o'zicha o'ylabdi kuchukcha, – Garchi bu qanaqa jonivor ovozi ekanini bilmasam ham yuragimga jiz etib tekkanday bo'lди-ya».

– Vov-vov!

– Balki bu jirafadir! Yo'q, bu timsoh bo'lsa kerak. Ha, bu xuddi o'sha serjahl timsoh... Ehtiyot bo'lish kerak.

Butalar orasiga bekinganicha kuchukcha «vov-vov!» degan ovoz kelayotgan tomonga emaklab ketibdi. Yo xudoym, bu ovoz uning yuragini buncha o'ynatib yubormasa!

– Bu hech shubhasiz, kuchuk bo'lishi kerak!

To'ppa-to'g'ri! Tag'in kelib-kelib kimning kuchugi deng: kukulagan ovozni eshitib, haligina o'q uzgan ovchining kuchugi bo'lib chiqsa-ya!

– Salom, kuchuk!

– Salom, kuchuk!

– Nega bunaqa ovoz chiqaryapsan?

– Ovoz! Shuni bir bilib qo'yki, bu shunchaki ovoz emas, balki hurishdir.

– Hurish deysanmi? Hali sen hurishni bilasanmi?

– Bilganda qandoq. Axir, ko'rib turibsan-ku, filga o'xshab dunyoni boshimga ko'tarayotganim yoki sherga o'xshab na'ra tortayotganim yo'q.

– Unda menga ham o'rgat hurishni.

– Iye, hali sen hurishni bilmaysanmi?

– Yo'q...

– Unday bo'lsa quloq sol. Bu mana bunday qilinadi: «Vov-vov!..»

– Vov-vov! – kuchukcha birdaniga hura ketibdi. Sevinchi ichiga sig'may: «Nihoyat, yaxshi ustozni topib oldim!» deb o'ylabdi o'zicha. Shu topda dunyoda undan baxtiyor maxluq yo'qday tuyulibdi unga.

## **«RIM ERTAKLARI» TURKUMIDAN SHAHZODA PLOMBIR**

Sinyor Molteni (uchinchi qavat, 12-kvartira) juda bezovta edi. U kreditga «Qo'shaloq qutb» markali ajoyib xolodilnik sotib oldi, ammo ikki oydirki, navbatdagi qarzni to'lay olmayapti. Bir vaqt desangiz magazindan qo'ng'iroq qilib qolishdi-ku: «Yo darhol badalni to'lab qo'ying, yo xolodilnikni qaytaring». Biroq sinyor Moltenining na puli va na boyvachcha do'stlari bor edi. Nima qilish kerak?

O'sha kuni ertalab u xolodilnikka g'amgin boqqancha uni asta-asta silab xuddi odam bilan gaplashayotganday shunday dedi: «Azizim, bir-birimizdan judo bo'lmasak deb qo'rqaman, sen ketsang uyim dashti biyobonday huvillab qoladi!» Xolodilnik muz qotganday churq etmasdi, sinyor Molteni, baribir uning nima demoqchiligin tushundi va xayrixohlik bildirdi: «Ha, buni bilaman, sen pul emas, sovuq chiqarishing kerak!»

Shu kuni ertalab sinyora Sandrelli (to'rtinchi qavat, 15-kvartira) bir shisha sut olmoqchi bo'lib, o'zining oddiygina «Pingvin» xolodilnigini ochdi. Ochdi-yu, taxta bo'lib qoldi: xolodilnikning ichi mayda-mayda odamchalar bilan liq to'la edi! Odamchalardan biri hatto tuxum ustiga chiqib o'tirib olibdi.

Odamchalar egniga kumush korjoma va shaffof skafandr kiyib olishgandi, kiyimlari ostidan ularning sariyog' rangli yuzlari bilan och binafsha sochlari ko'rinish turardi. Odamchalar moshrang ko'zлari bilan sinyora Sandrelliga xotirjamgina qarab qo'yishdi va loaqal joylaridan qilt etishmadi ham. Faqat haligi tuxum ustida o'tirgani «Chao, chao!» degandek unga qo'lini silkib qo'ydi.

– Yo parvardigor, marsliklar! – qichqirib yubordi sinyora Sandrelli, – Ular bunchalik kichkina bo'ladi deb xayolimga ham kelmagandi! Hoy, mening xolodilnigimda nima qilyapsizlar? Sen tirrancha, darrov tuxumdan tush-chi, pachoq qilib qo'yasan!

Biroq odamcha uning gapiga quloq solmadi. Shunda juda ham chaqqon ayol bo'lgan sinyora Sandrelli astagina ikkita barmog'ining uchi bilan uni ushladi-da, sardina balig'i bankasi ustiga olib qo'ydi.

– Marslikmisan yoki yo'qmi, faqat shu narsa qulog'ingda bo'lsinki, bu yerda mening hukmim yuradi!

– Xolodilnik eshigini yoping, ichkariga issiq havo kiryapti! – degan qat'iy va amrona ovozni eshitdi sinyora.

– Nima, nima?

– Biz muz qoplagan sayyoradan uchib keldik, hali sizning ob-havoyingizga o'rganganimizcha yo'q. Iltimos, sizga buyurilganidek eshikni yoping.

– Menga buyruq berishga jur'at etgan bahodir kimligini bilsam bo'ladimi? — xitob qildi sinyora Sandrelli battar fig'oni chiqib, – Undan tashqari, qanday qilib sizlar mening uyimga kirib oldingizlar?

– Oshxona derazasining darchasidan. Siz uni kechasi tasodifan gaz chiqib qolmasin degan o'nda ochiq qoldirasiz-ku.

– E-ha, aftidan, sizlar ko'p narsadan xabardor ko'rinasizlar-ku.

– Bo'lmasam-chi. Bosib olishdan ilgari biz sizlarning urf-odatlaringizni, shuningdek, tilingizni ko'p oy mobaynida o'rganib olganmiz. Eshikni yoping!

– Nega endi zabit etishni kelib-kelib aynan mening xolodilnigimdan boshlappingiz kerak bo'lib qoldi?

– Bu yog'i bilan ishingiz bo'lmasin. Buning ustiga biz bu uydagi xolodilniklarning hammasini zabit etganmiz. Shunday qilib, eshikni yoping va bizni o'z holimizga qo'ying!

– Yopadi deb xayolingizga ham keltirmay qo'ya qoling! To'g'rirog'i, yopaman-u, ammo xolodilnikni o'chirib qo'yaman, tushunyapsizmi? Bosib olish qanaqa bo'lishini ko'rsatib qo'yaman sizlarga!

Odamchalar ichidan bittasi barmog'ini bigiz qilib – harholda keyinroq sinyora Sandrelli shunday hikoya qilib bergandi – stulni ko'rsatib:

– Avval ana uni bir ko'rib qo'ying-chi! – deya taklif etdi.

Oq bo'yoqqa bo'yagan stul birdan qip-qizarib, bir zumda hech qanday tutunsiz yonib ketdi. Undan faqat bir hovuch kul qoldi, xolos. Buning hammasiga roppa-rosa o'ngacha sanashlik vaqt kifoya qilibdi.

- Tokni o'chirgudek bo'lsangiz, butun uyni yondirib yuboramiz. Sinyora Sandrelli zarb bilan xolodilnik eshigini yopdi-da, darvozabonni chaqirdi:
  - Sinyora Anna, bilasizmi, nimalar bo'lyapti o'zi?
  - Nima gap, sinyora Sandrelli? Isitish batareyasi sovib qolibdimi?
  - Gap shundaki, haligi...

Sinyora Sandrelli bo'lган gapni bir boshdan darvozabon ayolga so'zlab berdi. O'з navbatida u boshqalarga yetkazdi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, uyning birinchidan tortib to beshinchigacha bo'lган barcha qavatdagi kvartiralarda bir xil voqeа yuz berdi: xolodilniklarning eshiklari ochilishi bilanoq qayta yopilaverdi – ba'zilar hayron bo'lar, kimlarnidir qo'rquv bosar, hamma joyda hayrat va hayajon ovozlari eshitilardi. Sinyor Molteni ham o'zining «Qo'shaloq qutb»iga tashlandi va uning ichida kumushrang korjomalarda churq etmay o'tirgan kelgindilar to'dasi orasida baland bo'yи va ajoyib oltinrang korjomasi bilan ajralib turgan odamchani darrov payqadi.

- Balkim, siz bo'lsangiz kerak eng kattasi? — deb qiziqib so'radi Molteni, bu ajoyib o'yinchoqlarni olmoqchi bo'lган kichik qizining qo'lini itarib.

– Men shahzoda Plombirman, – javob qildi oltinrang korjomali odamcha, — Bizning tilimizda ismim, o'z-o'zidan ma'lum boshqacha jaranglaydi. Lekin siz uchun shunday desa ham bo'laveradi. Undan tashqari siz menga nisbatan janobi oliylari deb murojaat etishingizga to'g'ri keladi.

- Albatta, janobi oliylari, – rozi bo'ldi sinyor Molteni, – Siz janobi oliylari, bu yerda qanchalik uzoq turishlariningizni ayta olmaysizlarmi?

– Bu ob-havoga bog'liq, — javob qildi shahzoda Plombir, — Yulduzlararo uchuvchi kemamizga yonilg'i olishimiz uchun bizga yangi yoqqan qor kerak. Qor yog'ishi bilan biz sayohatimizni davom ettiramiz. Shimoliy qutbga qo'nmoqchi bo'lib yo'l olgandik, biroq bu yerga tushib qoldik.

- Bundan chiqdi, sizlar Yerda yashashni mo'ljallayapsizlar, shundaymi?

– Men sizga aytdim-ku. Shimoliy qutbda deb, Sizlar baribir u yerda yashamayapsiz-ku. Sayyoramizning muzini eritib yuborishi mumkin bo'lган kometa bilan to'qnashish xavfi tug'ilib, Somon Yo'lining bu qismidan boshpana qidirishimizga to'g'ri keldi. Men bosh razvedkachi otryadini boshqaraman. Biz Shimoliy qutbga joylashishimiz bilanoq sayyoramizga xabar qilamiz va u yerda qolgan barcha vatandoshlarimiz bu yerga yetib kelishadi.

- Qiziq, janobi oliylari, agar sir bo'lmasa, qanchasizlar?

– Bor-yo'g'i, bir yarim milliard. Biz juda kam joyni egallaymiz. Bordi-yu, Shimoliy qutbga yetib borganimizda ham sizlarga o'zimiz haqimizda ma'lum qilishni o'ylamagandik, ko'rib turibsizki, sharoit o'zgarib qoldi. Endi esa, agar xizmat bo'lmasa, eshikni yopib qo'ysangiz, chunki bunday issiq havodan boshim og'riy boshlaydi.

Sinyor Moltenining buyruqqa itoat etishdan o'zga iloji qolmadi, so'ng deraza yoniga kelib osmonga qaradi. Fevral oyi osmoni tiniq va ko'm-ko'k: quyosh bor nurini bahorning issiq kunlaridek saxiylik bilan sochib turadi. U mamnun kayfiyatda kaftini kaftiga bir-ikki ishqalab qo'ydi.

- Tentak! — jahl bilan dedi sinyora Molteni, — Oshxonada bosqinchilar to'lib yotibdi-yu, seni bo'lsa sevinchdan og'zing qulog'ingda.

– Sening nimaga aqling yetuvdi o’zi, — javob qildi sinyor Molteni, — omadimiz kelganini sen qayoqdan bilib o’tiribsan...

Shu daqiqada sinyora Moltenining qanday qilib omadlari kelganiga aqli yetmaganligi rost edi, chunki kimdir kvartira qo’ng’irog’ini chalib qoldi. Bu «Qo’shaloq qutb» firmasining xizmatchisi edi.

— Sinyor Molteni, assalom-u alaykum. Men xolodilnikni olib ketgani keldim. Yoki, balkim, siz, harholda, navbatdagi qarzingizni uzarsiz?

— Eh, ming afsuslar bo’lsinki, hozir yonimda sariq chaqa ham yo’q.

— Unday bo’lsa...

— O’z-o’zidan ma’lum, — dedi sinyor Molteni, — shunday bo’lgandan so’ng siz shunday qilishga majbursiz... Va hokazo, va hokazo. Faqat sizning qo’lingizdan hech narsa kelmaydi.

— Qanday qilib qo’limdan hech narsa kelmas ekan?

— Janobi oliylari bunga ijozat etishlariga ko’zim yetmaydi...

— Tag’in qanaqa «janobi oliylari»? Ahmoqona hazilingizni qo’ysangiz-chi, sinyor Molteni...

— Bu yoqqa bir marhamat qilib yuboring, keling, bu yoqda, oshxonada biroz o’tiraylik.

— Mana bu boshqa gap.

— Ha, ammo oqibati siz o’ylaganday bo’lib chiqmaydi-da. Dunyoda shunaqasi ham bo’lar ekan.

Sinyor Molteni xolodilnikni ochdi-yu, shahzoda Plombirga o’z uzrini aytishga shoshildi.

— Janobi oliylari, kechirasiz, mana bu sinyor...

— Eshitdim, hammasini eshitdim. Hurmatli Molteni, bizning o’z aloqa usulimiz bor. Xotirjam bo’ling, ayni vaqtida xolodilnik menga qarashli. Unga hech kim qo’lining uchini ham tekkiza olmaydi.

— Qanday hazil bu? — «Qo’shaloq qutb» finnasi xizmatchisining jahli chiqib, ko’zları olaydi, — Bu qanaqa mitti odamlar tag’in? Menga qarang, sinyor Molteni, pul to’lamaslik uchun siz qanday nayrang o’ylab topgansiz, hech aqlim yetmay qoldi, lekin sizga aytib qo’yayki, mening firmam hali hech kimga o’zini aldatib qo’ymagan, sizdan ko’ra pix yorganlari ham unnab ko’rgan paytlar bo’lgan-u, ammo uddasidan chiqolmaganlar. Sizlar-chi, hoy mitti janoblar, marhamat qilib, o’zingizga boshqa boshpana qidirib ko’ring, juda bo’limganda mana bu chanoq ichida. Mening firmam bu xolodilnikni qo’lga kiritish payida bo’lsa-yu, bir nechta arzimagan qo’g’irchoq bu maqsadning amalga oshirilishiga yo’l qo’ymay tursa, g’irt sharmandalik-ku.

Bunday haqoratni eshitgan shahzoda Plombir va uning qo’l ostidagilar qattiq g’azablandilar. Ammo janobi oliylarining ovozi hammanikidan baland va juda amrona jaranglar edi.

— Sinyor xizmatchi, jazo chorasi tariqasida stol ostiga kiring-da, qo’lingizni og’zingizga tiqib oling, ana shunday, hech bo’limganda ovoz chiqarmay o’tirasiz,

Bu hol g’oyat jo’n va shu bilan birga o’ta ajablanarli sodir bo’ldi, — shu zahotiyoyq «Qo’shaloq qutb» firmasining xizmatchisi o’novlon barmoqlarini baravar og’ziga tiqib, stol tagiga kirib ketdi va yuzini devor tomonga o’girib oldi.

Faqat yig'idan yelkalarini silkinib-silkinib qo'yayotgani ko'zga tashlanib turadi. Moltenining oilasi hamjihatlik bilan qarsak chalib yubordi.

— Janobi oliylari, bu qanday qo'lingizdan keldi, a?

— Arzimagan narsa-ku. Biz miyangizni obdan o'rganganmiz va sizlarni bo'ysundirish sirlarini egallab olganmiz. Endi eshikni yopib qo'ysangiz ham bo'laveradi.

— Xayr, Xayr, janobi oliylari! Doim xizmatingizga tayyorman! — Endi sinyor Molteniga hech narsani tushuntirib o'tirishiga hojat qolmagandi. U chaqqonlik bilan deraza yoniga keldi.

— Agarda shunday ob-havo uzoqroq turib berganda, qanday zo'r bo'lardi-ya!  
— dedi u hayajon bilan.

Rostdanam ob-havo ancha vaqtgacha uning ko'nglidagidek bo'ldi, ko'm-ko'k musaffo osmonda quyosh bir me'yorda charaqlab nur sochib turdi. Bu orada samoviy kelgindilar xolodilniklarni bosib olishibdi, degan xabar barcha gazeta sahifalarida bosilib chiqdi. Bosqinchilar deb nom olgan plombirlar bilan sayyoraning turli burchaklaridan yig'ilgan olimlar o'rtasida bo'lgan suhbatlar tafsilotini gazetxonlar benihoyat qiziqib o'qirdilar. Biroq, odatdagidek, odamlarni ko'proq turli-tuman oldi-qochdi gaplar qiziqtirardi. Ular shahzoda Plombir nonushtaga nima tamaddi qilganini, biroz shakar sepilgan oddiy muz taom, shuningdek, sinyora Sandrelli o'zining mehmonlaridan bilib olgan ma'lumotlarni (turli xil muzlangan, o'z-o'zidan ma'lum, bir-biridan shirin taom turlarini) yozib olardilar hamda sinyor Moltenini «Qo'shaloq qutb» firmasi sudga bergenligidan qayg'urishardi. Xullasi kalom, Makmagon ko'chasidagi uy yonida yangilik kutib, ertalabdan kechgacha odamlar hech arimasdi.

— Shahzoda Plombir yana qirq qizning sevgisiga ega bo'ldi...

— Aytishlaricha, eshik og'asining qizi ham unga maftun bo'lib qolganmish...

— Ikkinci qavat, to'rtinchi kvartirada yashovchi plombirlar sariyog'dan allergik kasaliga chalinib qolganmish...

Shahzoda Plombir televizor orqali so'zga chiqishga rozilik bergenida butun shahar aholisi ekranga juda yaqin o'tirib, qiziqib tomosha qildi. Shundan keyin beshala qit'adan minglab oshig'i shaydo o'z sevgisini unga izhor eta boshladи. Ammo shahzoda Plombir ularga o'zining nikohlangani, bo'lajak kelin o'z vatani Lun-Lun, ya'ni «gul bosgan muzlik»da istiqomat qiladigan bir qiz bilan qachonlardir beshikkerti qilib qo'yilganini ma'lum qildi.

Va nihoyat, osmonni kulrang bulut qopladi, metereologlarning axborotiga ko'ra qor yog'ishi kutilardi. Plombirlar xolodilnikning eng pastki qismida, ko'katlar ostiga yashirib qo'yilgan o'zlarining yulduzlararo uchuvchi kemalarini olib, uchishga hozirlik ko'ra boshladilar.

Sinyor Molteni qattiq tashvishda edi. Sudda hamma narsa uning foydasiga hal bo'lmayotgandi. U yaqin kunlarda yana og'ir vaziyatda qolishi mumkin edi: yo qarzni to'lab qo'yishi, yoki xolodilnikdan mahrum bo'lishiga to'g'ri kelayotgandi. U ertalab shundoq derazadan qaragan ekan, ko'chalar va uy tomlarini qalin qor qoplaganini ko'ribdi. «Hammasi tugadi! — debdi u, — Juda bo'lmaganda birinchi bo'lib bu yangilikni janobi oliylariga yetkazay».

Biroq shahzoda Plombir qor yoqqanidan xabardor edi.

– Ko’rdim, ko’rdim, – javob qildi u, – Biz xolodilnik eshigini ochmay turib ham ko’rish qobiliyatiga egamiz. Balkondan qor yig’ib oldik, yulduzlararo uchuvchi kemalarimiz uchishga shay.

– Unday bo’lsa, xayr-xo’sh! — bexos chuqur xo’rsindi sinyor Molteni. Ichida esa: «Alvido, senga ham, xolodilnigim!» — deb qo’shib qo’ydi.

– Yo’g’-e, – deya kului shahzoda Plombir, xuddi uning fikrini uqib turganday, — U bilan xayrlashmang. Mana bunga bir qarasangiz-chi! «Bu» degani bir varaq qog’oz bo’lib, unga shahzoda Plombir o’z qo’li bilan yirik-yirik harflarda bayonot yozgan edi (mitti odamchaga yirik harflar bilan yozish qanchalik qiyin bo’lganini ko’z o’ngingizga keltirib ko’ring-a). Bayonotning mazmuni quyidagicha edi: «Qo’shaloq qutb» markali xolodilniklardan birida menga nisbatan ko’rsatilgan mehmondo’slik qilinganini o’zim uchun bir omad deb hisoblayman. Men butun javobgarlikni bo’ynimga oлган holda bu xolodilnikni Quyosh sistemasidagi eng ajoyib xolodilnik deb ma’lum qilaman, Shahzoda Plombir».

– Mana ko’rarsiz, — davom etdi janobi oliylari, — bunday reklamani olgandan so’ng «Qo’shaloq qutb» firmasi nafaqat to’lanmagan qarzni, hatto yangisini ham talab qilmaydi. Xolodilnikni o’zimni deb hisoblayverishingiz mumkin va siz bundan buyon bir chentezimo ham to’lamaysiz!

Shunday bo’ldi ham. Do’stlaridan birortasi puldan siqilib qolgundek bo’lsa, sinyor Molteni unga ko’pincha shunday tasalli berardi: – Tashvishlanma! Marsliklar joningga ora kiradi!

## **«TELEFONDA AYTILGAN ERTAKLAR» TURKUMIDAN QUTBDAGI GUNAFSHA**

Bir kuni ertalab Shimoliy qutbda katta ayiq uyqudan uyg’onibdi. Uyg’onibdiyu, havoni hidlay boshlabdi. O’ng tomonga qayrilib hidlabdi – hech nimaning isi kelmabdi, chap tomonga o’girilib hidlabdi — birdan g’alati bir hid sezibdi.

– Hm, – deb to’ng’illabdi ayiq yonidagi urg’ochi ayiqqa, — bu tomonga biror ekspeditsiya kelib qolganga o’xshaydimi?

Lekin shu payt ayiq bolalari sal naridan binafsharang gunafsha topib olishabdi. Gunafsha juda nimjon, poyasi ham ingichka ekan. U sovuqda dir-dir qaltirarmish, lekin sira bo’sh kelmay, dadil hid taratarmish, chunki bu uning burchi ekan-da.

– Oyi! Dada! — deb qichqirishibdi ayiqchalar.

– Shu atrofda g’alati bir narsa bor deb darrov aytdim-a, — debdi oq ayiq oilasiga, — Lekin menimcha, bu baliqqa o’xshamaydi.

– Albatta, baliq emas, — debdi ona ayiq, — Qush ham emas.

– Ha, to’g’ri aytding, – debdi ayiq, xotinining gapini chuqur o’ylab olgach. Kechga borib bu yangi gap butun qutbga tarqalibdi. Bepoyon, ko’z ilg’amas muz sahosida ushoqqina binafsharang jonivor paydo bo’lib, chor atrofga g’alati bir xushbo’y hid taratarkan. U birgina ingichka oyoqchasida qad ko’tarib turarmish va o’lmas emish.

Gunafshani tomosha qilgani kelganlarning son-sanog’i yo’q emish. Sibirdan bug’ular chopib kelishibdi. Amerikadan ho’kizsimon hayvon darak topib kelibdi,

morj va tyulenlar suzib kelishibdi, qayoqdandir uzoq-uzoqlardan oq shimol tulkisi kelib qolibdi, bo'rilar yetib kelishibdi, birinchi bo'lib, albatta, chaqimchi dengiz zag'izg'onlari yetib kelishibdi. Hamma bu g'alati, yovvoyi gulni, uning ingichka qaltiroq poyasini ko'rib hang-u mang bo'libdi, uning nafis xushbo'y hididan to'yib-to'yib nafas olishibdi.

Shunisi qiziqliki, uning hidi kech kelganlarga ham yetibdi. Eng so'nggi daqiqada ham u avvalgiday hid taratib turibdi.

– Doimo shunday xushbo'y hid taratib turish uchun, – debdi tyulen, – butun bir omborxonaga ega bo'lismish kerak. Uning muz tagida, qayerdadir hoynahoy ombori bo'lsa kerak.

– Men buni darrov sezgandim, o'sha zahoti aytdim-a, – debdi oq ayiq, – O'sha yerda bir nimasi bor!

Ayiq hecham bunaqa demagandi, albatta, lekin hech kim uning gapirgan-gapirmaganini eslayolmabdi.

Hammadan keyin chayka qaytib kelibdi, uni g'alati notanish haqida biror narsa bilib kelgin, deb janubga jo'natishgan ekan, u nafasini rostlab olgach, bu kichkina xushbo'y jonivorning gunafsha deb atalishini, boshqa joylarda – janubda ular millionlab topilishini gapirib beribdi.

– Yuborgan elchimizni qarang-u, – debdi tyulen ensasi qotib, — Biz biror yangi gap bilganimiz yo'q. Xo'sh, bu gunafsha boshqa yerga emas, xuddi shu joyga qanday kelib qoldi? Yo'q, to'g'risini aytsam, nima gapligiga hech aqlim yetmay qoldi, juda hayron bo'lib qoldim.

– U nima dedi, nima bo'lib qoldim dedi? — shivirlab so'rabdi ayiq xotinidan.

– Hayron bo'lib qoldim deyapti, – urg'ochi ayiq ham shivirlab javob beribdi,  
– Xullas, boshi qotib qolganmish-da, qaysi oyog'ini bosishni bilmasmish.

– Ha, ha, – deb gapni ilib ketibdi ayiq, – Men xuddi shunday deb o'ylovdim-a, ko'nglimda xuddi o'sha so'zlarni takrorlovdim-a.

O'sha kuni kechasi butun qutb kuchli qars-qurs va gumburlashdan larzaga kelibdi. Butun-butun muz parchalari dag'-dag' qaltirab, yupqa oynaday chirs-chirs sinibdi. Bechora gunafsha muzday havoga o'zidagi bor muattar hidini taratibdi, go'yo u bu bepoyon muz sahrosini bir zumda eritib, iliq moviy dengizga yoki ko'm-ko'k maysa bilan qoplangan poyonsiz ko'kalamzorga aylantirmoqchi bo'layotganday edi. Keyin gunafsha holdan toyib, boshini egib, qaddini bukibdiyu, shu-shu boshqa o'rnidan turolmabdi.

Tongda hamma gunafshaning so'lib qolganini ko'ribdi, u ingichka tolasida egilib, oppoq qor ustida rangsiz va jonsiz yotganmish. Agar uning oxirgi o'yfikrlarini so'zda ifodalash mumkin bo'lsa, biz, hoynahoy quyidagi so'zlarni eshitgan bo'lardik:

«Mana, men o'lyapman, Lekin kimdir boshlashi kerak edi-da. Qachonlardir bu yerda million-million gunafsha ochilib yotadi. Muzlar eriydi, orollar hosil bo'ladi, ulardan bolalarining qo'ng'iroqday sho'x kulgisi eshitilib turadi».

## HECH QAYOQQA OLIB BORMAYDIGAN YO'L

Uylar tamom bo'lgandan keyin qishloqning katta ko'chasidan uch yo'l ajralib chiqarkan. Bir yo'l dengizga olib borarkan, boshqasi to'g'ri shaharga borarkan, uchinchisi hech qayoqqa olib bormas ekan.

Martino buni juda aniq bilarkan, chunki uning so'ramagan odami qolmabdi, hammasi ham bir xil javob qilibdi.

– Qaysi yo'l, huv anovi yo'lmi? Hech qayoqqa olib bormaydi. U yo'ldan yursang bekor charchaganing qoladi.

– U yo'l qayergacha boradi?

– Hech qayerga bormaydi deyapman-u, tushundingmi?

– Unda nega qurishgan?

– Uni hech kim qurban emas. U doimo bo'lган.

– Nahotki bitta-yarimta borib ko'rmagan ham?

– Voy, judayam o'jar ekansan-da! U yerda hech nima yo'q deyapman-ku senga, demak, ko'radigan narsaning o'zi yo'q.

– Siz qayoqdan bilasiz, siz axir u yerda hech qachon bo'lmagansiz-ku.

U shunaqayam o'jar, so'zini o'tkazadigan, sabotli ekanki, qishloqda hamma uni Martin o'jar deydigan bo'libdi. Lekin u bu laqabga hecham xafa bo'lmaabdi, hamon o'sha hech qayoqqa olib bormaydigan yo'l haqida o'layveribdi.

Oradan ozmi-ko'pmi vaqt o'tibdi. Martino o'sib, ulg'ayib, ko'chadan buvasining qo'lidan ushlamay o'tadigan yoshga yetibdi. Kunlardan bir kun u saharlab turib, qishloqdan chiqibdi-da, o'ylab-netib o'tirmay, o'sha sehrli yo'ldan ketaveribdi. U sira to'xtamay oldinga ketaveribdi, ketaveribdi, yo'l bo'lsa tobora yomonlasha boribdi. U yer-bu yerda tarvaqaylab o'sgan o'tlar paydo bo'libdi, o'nqir-cho'nqirlarning hisobi yo'q emish. Yaxshiyamki, havo issiq ekan, bo'lmasa hamma yoqni ko'lmak suv bosib, o'tishning iloji qolmasdi. Avvaliga yo'lning ikki tomonida ham changalzor boshlanibdi, birozdan keyin o'rmon kelibdi. Osmono'par bahaybat daraxtlar baquvvat shoxlarini bir-birlariga cho'zishib, yo'l ustida balandlikda matashib ketishganmish: ko'rinishdan u hecham yo'lga o'xshamasmish, ko'proq qorong'i, zax tunnelga o'xshab ketaganmish. O'qtin-o'qtin quyosh nuri barglar orasidan yerga tusharkan, xuddi kechasi dengizdagi mayoqday oldinda porlab turarkan.

Martino yuraveribdi, lekin tunnel tugamabdi, yo'lning ham keti ko'rinnabdi. Juda tinka-madori quribdi, oyoqlarini ko'tarolmay qolibdi. Endi orqaga qaytmasa bo'lmas, deb o'ylabdi. To'satdan qayoqdandir it paydo bo'lib qolibdi.

«Bo'ldi, – deb o'ylabdi Martino, – it bor joyda xonodon, juda bo'lmasa odam bo'ladi».

It uning oldiga chopib kelibdi, dumini likillatib, qo'lini yalabdi-yu, yana qorong'i yo'ldan chopib ketibdi. It chopib borayotib, Martino kelyaptimi-yo'qmi deb orqasiga qarab-qarab qo'yarmish. Ozgina yurib, yana to'xtab qararmish.

– Ha, men ketyapman, ketyapman, – debdi Martino, lekin o'zicha: «Tavba, bu qanday mo'jiza?» deb o'ylabdi.

Mana, o'rmon ancha siyraklashib osmon ko'rina boshlabdi. Yo'l kattakon temir darvozaga kelib taqalibdi-yu, ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Martino yo'g'on po'lat panjaradan mo'ralab qarabdi — park o'rtasida saroy turganmish. Saroyning eshik va derazalari lang ochib qo'yilganmish, mo'rilaridan

buralib-buralib tutun chiqayotganmish, balkondan esa chiroyli bir sinyora qo'l siltayotganmish — sinyora shunaqa go'zal, shunaqayam barno ekanki, Martino bunaqangi sohibjamolni hech ko'rmagan ekan.

— Kir, kirgin, Martin o'jar! — deb qichqiribdi sinyora.

— Ana, xolos, — deb g'o'ldirabdi Martino xursand bo'lib, — Bu yoqqa kelib qolishimni o'zim ham bilmagandim, u bo'lsa meni darrov tanidi-ya.

Martino uzoq o'ylab o'tirmay, eshik tavaqasini itarib ochibdi, parkdan o'tib saroy zaliga kiribdi. Shunday kirishi bilan sinyora chiroyli zinadan tushib, unga peshvoz kelayotganmish. Shunday dilbar, chiroyli ekanki, ta'rifiga til ojizmish. Kiyimini aytmaysizmi. Farishta-yu malikalar uning oldida ip esholmasmish. U zinadan tushib kelayotib, ichagi uzilguday bo'lib, qotib-qotib kularmish. Sinyora judayam sho'x, quvnoq bo'lsa kerak.

Martino unga ta'zim qilibdi-da, qani bu yog'i nima bo'larkin, deb kutib turibdi.

— Shunday qilib, — debdi sinyora quvnoqlik bilan, — ishonmading-a?

— Nimaga?

— Nimaga bo'lardi? Yo'lning hech qayoqqa olib bormasligiga-da.

— Bu bir bema'nilik-da, shuning uchun ham ishonmadim. Men o'zimcha shunday o'layman: bu dunyoda xilma-xil joylar son ming, to'lib-toshib yotibdi, yo'llar juda oz.

— To'g'ri. Doim biror yangilik ko'rish mumkin, xohish bo'lsa bas. Eng muhimi — bir joyda o'tirmaslik kerak. Yurgan daryo, o'tirgan bo'yra, degan gap bor-ku. Endi yur, men senga saroyni ko'rsataman.

Voy-vuy, saroyda xona, zal, bo'lmlar shunaqayam ko'pki, sanog'i-ga yetib bo'lmaydi! Yuzdan oshiq bo'lsa oshiqki, kam emas. Har xonada zeb-ziynat, qimmatbaho buyumman deganing tiqilib yotganmish. Xuddi uyqudag'i malika yoki butun umri befoyda boyliklarini deb so'lib, adoyi tamom bo'lgan o'lmas Kashcheyning afsonaviy qasriga o'xshaydi-ya!

Bu yerda istagan narsani topish mumkin ekan! Bebaho olmos deysizmi, chaqnab turadigan toshlar deysizmi, oltin-u kumushlarni gapirib o'tirmasa ham bo'ladi.

U quvnoq sinyora bilan saroy zallarini aylanib yurarkan, sinyora hadeb takrorlabdi:

— Ol, olaver, ko'nglingga yoqqanini olgin, sira tortinma. Olib ketishga qiyalsang, karetamni beraman.

Martinoning ko'p narsa so'rab o'tirishiga hojat ham qolmabdi. U ketayotganda bunday qarasa, kareta oltin-u qimmatbaho toshlarga to'lib-toshib yotganmish. Izvoshchi o'tiradigan joyda it o'tirganmish. O'zimizning xonaki oddiy it emas, o'qigan it emish. U otlarni juda ustalik bilan haydar boribdi, otlar yurishni sekinlatса yoki yo'lдан chetga chiqsa, it qattiq vovullarmish.

Tug'ilib o'sgan qishlog'ida esa hamma Martinoni o'ldiga chiqarib qo'yibdi, uni tirik ko'rishga hech kim umid qilmay qo'ygan ekan. Martino o'jarning qishloqqa piyoda emas, karetada kirib kelganini ko'rib, hamma hang-u mang bo'lib qolibdi, odamlar ko'zlariga ishonishmabdi. Izvoshchi it karetadan hamma boyliklarni yerga tushiribdi-da, hurmat-ehtirom yuzasidan dumini ikki marta

likillatibdi-yu, karetaga o'tirib jo'nab qolibdi. U bir zumda ko'zdan g'oyib bo'libdi, orqasidan chang to'zoni ko'tarilib qolibdi.

Martin do'stlariga ham, dushmanlariga ham talay sovg'a-salom beribdi, boshidan kechirgan sarguzashtlarini ularga yuz martalab hikoya qilibdi. U hikoyasini tugatar-tugatmas eshitib o'tirganlardan goh bittasi, goh boshqasi uyiga chopib borarkan-da, ot ni aravasiga qo'shib, hech qayoqqa olib bormaydigan yo'ldan choptirib ketarkan. Biroq o'sha kuni kechqurun ular horib-charchab, darg'azab bo'lishib qup-quruq qaytib kelisharkan. Ulardan ba'zilari yo'l o'rmon o'rtasida daraxtlar orasida yo'qolib qoldi, boshqalari yo'l o'tib bo'lmas changalzorga borib taqalarkan, deb hikoya qilisharkan. Hech kim hech qanday temir darvozani, shohona saroyni, go'zal sho'x sinyorani ko'rmabdi! Chunki shunday xazinalar bor emishki, ular hamma mashaqqatlarni yengib o'tib, o'sha yerga birinchi bo'lib borgan odamgagina ochilarkan. Mana, masalan, Martin o'jarga o'xshagan odamlar o'sha xazinadan bahramand bo'larkan.

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Adibning hayoti va faoliyatini hikoya qilib bering.
2. Janni Rodarining mohir ertakchi bo'lib yetishishiga nimalar sabab
3. Adib qanday xalqaro mukofotga sazovor bo'lgan?
4. Janni Rodari ertakchilikka qanday yangilik kiritdi?
5. «Hurishni eplolmagan kuchukcha» ertagidagi kuchukcha obrazining uch xil yakundagi holatini izohlab bering.
6. Ertakning uchinchi yakunida kuchukchaning suyunib ketish sababini tushuntiring.
7. Nima uchun adibning o'zi ushbu ertakning uchinchi yakunini yoqlaydi?
8. Ertak mazmunidan yana qanday ma'nolar uqdingiz?
9. Ertakning to'rtinchi tugashini uyda o'zingiz o'ylab toping-chi.
10. «Shahzoda Plombir» ertagida sinyor Moltenini qanday voqeа qarzdorlikdan qutqaradi?



### ALEKSANDR SERGEYEVICH PUSHKIN (1799–1837)

Har bir xalqning donishmandligi va qalb nazokatini o'zida mujassamlashtirgan shoiri bo'ladi. Rossiyada inson ma'naviy olamining musavviri, shubhasiz, Pushkindir. U nurga intilib, doim ozodlik uchun kurashuvchi shoir, buyuk optimist bo'lib yetishdi. Rus xalqining yana bir buyuk shoiri Aleksandr Blok: „Pushkinning nomi naqadar jarangdor“ deb ta'riflagan edi.

A.S.Pushkin xalq og'zaki ijodini bolalikdan berilib o'rgandi. Buloqdek qaynab-toshgan xalq og'zaki ijodi shoirning ilhomiga ilhom qo'shdi. Kelajakda mashhur shoir bo'lib, jahonga tanilishida boy manba bo'lib

xizmat qildi. U, ayniqsa, o'zining ertak-dostonlari bilan yosh kitobxonlarning hurmat-olqishiga sazovor bo'lib kelmoqda.

A. S. Pushkin o'zining „Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak“ (1831), „Baliqchi ham baliq haqida ertak“ (1833), „O'lik malika va yetti bahodir haqida ertak“ (1833), „Oltin xo'roz haqida ertak“ (1834) kabi ertak-dostonlari bilan jahon bolalar adabiyoti xazinasini yanada boyitdi.

Yuqorida biz ta'kidlab o'tgan asarlarning hammasi boy va rang-barang xalq og'zaki ijodi ta'sirida yuzaga kelgan. Bu asarlar zamirida faktik materiallar yotganligini ko'ramiz. Masalan, shoir „Ajoyib bolalar“ xalq ertagi asosida „Shoh Saltan haqida ertak“, „Qurumsoq kampir“ ertagi va rus xalq folklorining to'plovchilaridan biri V. Dal hikoya qilib bergen sujet asosida „Baliqchi ham baliq haqida ertak“, „Sehrli ko'zgu“ ertagi asosida „O'lik malika va yetti bahodir haqida ertak“, uzoq yillar xalqni ayovsiz ishlatib, unga rahm-shafqat nima ekanligini bilmay o'tgan va uning hatto pok xizmatlarini o'zida mujassamlantirgan „Shabarsha batrak“ asosida „Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak“ yotganligini ko'ramiz. Bu ertaklarning hammasi shoirning ijodiy laboratoriyasida ishlanib, sayqallanib, yanada o'qimishli, ta'sirli qilib yaratilgan.

A.S.Pushkin oddiy, mehnatkash xalqni yaxshi ko'radi, uni iloji boricha himoya qilishga, yon bosishga harakat qiladi. Shuning uchun ham uning ertak-dostonlarida xalqqa bo'lган cheksiz hurmat tuyg'usi barq urib turadi.

Dadon shohni oling („Oltin xo'roz haqida ertak“). U g'irt ahmoq. Na xalqni sevadi va na farzandlariga mehribon otalik qila oladi. Dadon o'taketgan darajada maishatparast va kaltabin. U butun podsholigidan, xalqidan, farzandlaridan o'zga yurtli makkora ayolni ustun qo'yadi. Buni xalq, xudo kechirmaydi. Natijada shoh xalq qahr-g'azabiga duchor bo'ladi. Oltin xo'roz tepkisidan halok bo'lган shohga birovning rahmi kelmaydi, aksincha, shohning o'llimi ularga shodlik va ozodlik baxsh etadi.

Pop („Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak“) obrazini shoir juda mahorat bilan ko'rsatib berdi. Tekinxo'r, ochko'z, o'zgalar hisobiga umr kechiradigan bir pastkash kimsa ekanligini keskin oolib tashlaydi. Unga qaramaqarshi qilib oddiy va halol, mehnatkash va bahodir yigit Balda obrazini ijod cho'qqisiga ko'taradi.

Ikki qahramonning bozordagi o'zaro suhbatidanoq kitob xon kim qanday odam ekanligini darhol sezadi:

„Bo'lzin oshpaz, otboqar ham duradgor,  
Ayt-chi, bunday arzon malay qayda bor?“  
Balda debdi: „Yaxshi malay bo'layin,  
Bergan obi-yovg'oningga ko'nayin.  
Xizmatimga haq to'laysan shu xilda:  
Peshaningga uch chertaman bir yilda“.  
Pop bo'lsa-chi ancha o'ylab qolipti,  
Peshanasin qashib qo'li tolipti.  
Pop o'ylarmish: bir gap bo'lar — to'lar haq,  
Chertkilardan chertkilar ham qilar farq.  
Balda qo'ygan shartiga ko'nib, debdi pop:

„Bu shart senga va menga ham ma’qul xo’p:

Endi mening hovlimda kun ko’raver,

G’ayrat bilan xizmat qilib yuraver“.

Ha, hayotda har bir narsaning, jumladan, tekinxo’rlik, ochko’zlikning ham poyoni, oxiri bor. Kaltabin pop chertkini yeb halok bo’ladi.

„Baliqchi ham baliq haqida ertak“ dostonida shoir pok muhabbat mangu bo’lishini orzu qiladi. Boylik, mansab deb o’tgan kunni unutmaslikni istaydi. Bundan tashqari, kimki halol peshana teri to’kib boylik orttirmasa, birovlar hisobiga boyiydigan bo’lsa, u hech qachon yuqmasligini, birovniki birovnikiligicha qolib ketishini kampir qismati bilan chog’ishtirib hikoya qiladi. Yer yuzi, butun olam hukmroni bo’lib olgan kampir cholni mensimaganligi uchun, ochko’z va badbaxtligi uchun yana eski hammom, eski tos bilan qolib ketaveradi:

Qaytdi kampir yoniga axir,

Ko’rsa, tag’in o’sha yerto’la,

Bo’sag’ada o’tirar kampir,

Qarshisida teshik tog’ora.

Rostgo’y, haqiqatni yoqlovchi shoir „O’lik malika va yeti bahodir haqida ertak“, „Shoh Saltan haqida ertak“ asarlarida haqiqat bir kun emas, bir kun o’z o’rnini topadi, hamma baxtli bo’ladi, degan fikrni ilgari suradi.

A. S. Pushkinning xalq og’zaki ijodiga asoslanib yozgan „Ruslan va Lyudmila“ asari ham bolalar qalbiga ancha yaqin turadigan dostonlardan biri hisoblanadi. Rus ertaklari, qo’shiqlari, afsonalari bu g’aroyib asarga favqulodda go’zal mazmun bergen. Yuksak insonparvarlikni o’zida mujassamlashtirgan yorqin iste’dod egasagina shunday asar yarata olardi.

Mashhur rus romantik shoiri Jukovskiy „Ruslan va Lyudmila“ dostoni nashr etilgach, Pushkinga „G’olib o’quvchimga mag’lub murabbiyidan“ deb yozilgan portretini sovg’a qiladi. Bu buyuk shoir dahosiga, qaysiki ustozdan g’olib kelib va zamondan ilgarilab ketgan kurashchan Insonga berilgan xolisona baho edi.

Mana shuning uchun Pushkinga rus xalqining mangu, otashin shoiri bo’lib qolmoq baxti nasib etdi.

O’zbek adabiyotida bu kabi holatni hazrat Alisher Navoiy va shoir Lutfiy o’rtasida bo’lib o’tgan suhbat parchasida ham ko’rish mumkin. Alisher Navoiyning zamondoshi tarixchi Xondamirning xabar berishicha, kunlardan birida shoir Lutfiy Navoiydan yangi yozgan she’rlaridan o’qib berishni so’ragan. Alisher Navoiy yangi yozgan bir g’azalini o’qib bergen. G’azal quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Orazin yopqoch ko’zimdan sochilur har lahza yosh,

Bo’ylakim, paydo bo’lur yulduz, nihon bo’lg’och quyosh.

Mazmuni:

Yor yuzini yopsa, ko’zimdan har doim yosh sochiladi, bu quyosh botgandan keyin yulduzlarning paydo bo’lishiga o’xshaydi.

Baytda Navoiy yorning yuzini quyoshga, ko’z yoshi tomchilarini yulduzlarga o’xshatgan. O’xshatish nihoyatda go’zal va ishonarli chiqqan. Bu ajoyib g’azaldan jonlangan shoir Lutfiy: «Agar mumkin bo’lsa edi, men o’zimning forsiy va turkiy tillarda aytgan o’n-o’n ikki ming misra she’rimni shu bir g’azalga almashar edim», – degan mazmunda so’zlagan ekan. Bu fakt Alisher Navoiyning zo’r iste’dod egasi

bo'lib yetishayotganidan darak berar edi. Shuning uchun A.S.Pushkinga Jukovskiy tomonidan berilgan xolisona bahoni ham mazkur voqeadan kelib chiqib, qabul qilish kerak.

### BALIQCHI HAM BALIQ HAQIDA ERTAK

O'tgan chog'da dengiz bo'yida  
Chol va kampir umr surgandi.  
Yerto'lada – eski uyida  
O'ttiz uch yil birga turgandi.  
Chol to'r solib ovlarkan baliq,  
Kampir esa yigirar urchuq.  
Chol dengizga to'r soldi bir gal,  
Baqa yaproq ilindi yolg'iz.  
To'r solganda chol ikkinchi gal,  
Ilindi-ku dengiz o'lani.  
To'r solganda chol uchinchi gal,  
Chiqib keldi bir chavoq baliq,  
Jo'n baliqmas, naq oltin baliq.  
Oltin baliq xuddi odamday,  
Tilga kirib, yolvorib qoldi:  
„Qo'yib yubor dengizga, bobo,  
Katta to'lov to'layman senga.  
Ko'ngling ne tilasa, bergayman“.  
Hayron bo'ldi chol, qo'rqib ketdi,  
Rosa o'ttiz uch yil ovladi baliq,  
Ammo baliq so'zlaganin u  
Eshitmagan edi umrida.  
Chol baliqni qo'yib yubordi,  
Shunday dedi unga mehribon:  
„Oltin baliq, tangri yor bo'lsin,  
Kerak emas menga to'loving,  
Mayli tushgil zangor dengizga,  
Erkin-erkin o'ynab yuraver!“  
Chol qaytdi-da kampir yoniga,  
Aytди shundoq qiziq mo'jiza:  
„Tutib oldim bugun bir baliq,  
Jo'n baliqmas, naq oltin baliq.  
Baliq tilga kirib so'zladi,  
Ko'p yalindi qo'yib yubor, deb.  
O'z uyiga — yashil dengizga.  
Katta to'lov to'layin, dedi.  
Ne istasang berayin, dedi.  
Men olgani botinolmadim,  
Qo'yvordim zangor dengizga“.  
Cholni qarg'ay boshladi kampir:

„Ey tentak chol, go’l, devona chol!  
Ololmabsan baliqdan to’lov!  
Hech bo’lmasa bitta tog’ora —  
So’rab olmaysanmi undan sen,  
Tog’oramiz teshik-ku axir!“  
Chol jo’nadi zangor dengizga,  
Mavj urmoqda dengiz qarasa,  
Ham chaqirdi baliqni suvdan,  
Baliq chiqib so’radi undan:  
„Nima kerak senga, chol bobo?“  
Ta’zim bilan javob berdi chol:  
„Podsho baliq, holimga achin,  
Xo’p urishdi kampirim meni.  
Tinchlik bermas, qariding demas,  
Kerak emish yangi tog’ora.  
Tog’oramiz teshilgan, axir“.  
Oltin baliq aytadi javob:  
„Qayg’urmagil, tangri yor bo’lsin,  
Borgil, yangi tog’orang bo’lur!“  
Chol qaytsaki kampir yoniga,  
Tog’oralik bo’libdi kampir.  
Lekin urishdi kampir battarroq:  
„Ey tentak chol, go’l, devona chol!  
Kir tog’ora so’rab oldingmi?  
Kir tog’ora mol bo’larmidi?  
Jo’na, tentak, baliqqa borgin.  
Ta’zim qil-u uy so’rab olgin“.  
Chol jo’nadi zangor dengizga,  
(Zangor dengiz loyqalangandi.)  
Chaqirdi u baliqni suvdan,  
Baliq chiqib so’radi undan:  
„Nima kerak senga, chol bobo?“  
Ta’zim qilib, shunday dedi chol:  
„Podsho baliq, holimga achin,  
Meni kampir qarg’adi battar,  
Tinchlik bermas, qariding demas,  
Jag’i tinmas, uy so’rar nuqul“.  
Oltin baliq aytadi javob:  
„Qayg’urmagil, tangri yor bo’lsin“.  
Borgil, uy ham bo’ladi nasib!“  
Yerto’lasi tomon qaytsa chol:  
Yerto’ladan iz ham qolmabdi.  
Mo’rilari g’ishtdan, oqlangan,  
Eman yog’ochidan yasalgan —  
Darvozali bir uy turibdi,

Uy yonida mehmonxona bor.  
Derazaning yonida esa,  
O'tiribdi kampir taltayib.  
Qarg'amoqda cholni battarroq:  
„Ey tentak chol, go'l, devona chol!  
Kelib-kelib uy so'rabsan-da!  
Jo'na darrov baliq yoniga,  
Ta'zim qilgil unga sen tag'in,  
Qora dehqon bo'lmayman ortiq.  
Men begoyim bo'lish istayman!“  
Chol jo'nadi zangor dengizga,  
(Dengiz notinch, to'lqin urmoqda.)  
Chaqirdi u baliqni suvdan.  
Baliq chiqib so'radi undan:  
„Nima kerak senga, chol bobo?“  
Ta'zim qilib, chol shunday dedi:  
„Podsho baliq, holimga achin,  
Kampirni jin urdi battarroq.  
Tinchlik bermas, qariding demas,  
Qora dehqon bo'lmasmish ortiq,  
U begoyim bo'lish istarmish!“  
Oltin baliq aytadi javob:  
„Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin“.  
Chol qaytdi-ku kampir yoniga,  
Nima ko'rар? Baland bir saroy,  
Peshayvonda turar kampiri.  
Suvsar po'stin uning egnida,  
Boshida ham alvon dakana.  
Qator-qator inju bo'ynida,  
Qo'llarida oltin uzuklar,  
Oyog'ida qirmizi etik.  
Atrofida oqsoch xotinlar,  
Qoq o'rtada kampir turardi,  
Sochlaridan sudrab urardi.  
Kampiriga so'z qotdi chol:  
„Salom, aslzoda begoyim,  
Ko'ngling endi to'ldi, shekilli?..“  
Kampir unga o'shqirdi battar,  
Otxonada ishlashga soldi.  
O'tdi hafta ketidan hafta,  
Kampir tag'in mindi qahriga,  
Baliq tomon yo'lladi cholni:  
„Tez bor, ta'zim qilgil baliqqa!  
Ortiq men begoyim bo'lmayman,  
Podsho xotin bo'lish xohlayman“.


Qo'rqib ketdi chol, shunday dedi:  
„Eshakmiya yedingmi, kampir?  
Yurish-turish nima, bilmaysan.  
Podsholik masxara bo'ldimi?“  
Kampir battar mindi qahriga,  
Chol yuziga tarsaki urdi:  
„Qora dehqon, qanday botinding,  
Kim qo'yibdi senga so'z aytmoq.  
Menga — menday begoyimga-ya?  
Yaxshilikcha jo'nab qol, deyman,  
Jo'natgayman bog'lab, bormasang“.  
Chol dengizga qarab yo'l soldi.  
(Zangor dengiz qora rang oldi.)  
Chaqirdi u baliqni suvdan,  
Baliq chiqib so'radi undan:  
„Nima kerak senga, chol bobo?“  
Ta'zim qilib, so'z aytdi chol:  
„Podsho baliq, holimga achin,  
Kampir tag'in boshladi g'avg'o  
Bo'lmas emish ortiq begoyim,  
Bo'lar emish erkin malika!“  
Oltin baliq beradi javob:  
„Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin,  
Mayli, kampir bo'lar malika“.  
Chol qaytdi tez kampir yoniga,  
Qarasaki, shohona qasr.  
Qasr to'rida ko'rinar kampir —  
O'tirardi malika bo'lib,  
Xizmatida beklar, amirlar,  
Asl sharob quyib bermoqda  
Ham malika quymoq yemoqda.  
Atrofida talay yasovul,  
Yelkalarda oyboltalari,  
O'rak turar juda bahaybat.  
Buni ko'rib qo'rqib ketdi chol  
Va so'z aytar yetti bukilib:  
„Savlatli malika, salomalaykum!  
Shoyad endi to'lgandir ko'ngling?“  
Qayrilib ham boqmadi kampir.  
Tez haydang deb buyurdi, xolos.  
Sakrab turdi beklar, amirlar,  
Cholni sudrab, haydab soldilar.  
Yasovullar eshik yonida  
Sal bo'lmasa chopcha yozdilar.  
Mazax qilib qoldi olomon:

„Qilik’ingdan topding, nodon chol!  
Bundan keyin bo’lg’usi saboq:  
O’z ko’rpangga qarab cho’z oyoq!“  
O’tdi hafta ketidan hafta,  
Kampir battar mindi qahriga.  
Erin izlar, chopar yuborib,  
Cholni topib keldilar axir.  
Kampir shunday dedi choliga:  
„Jo’na tag’in baliq yoniga,  
Ta’zim qilib, o’tingil darrov.  
Bo’limgayman ortiq malika  
Dengiz shohi bo’lish istayman.  
Dengiz-okeanda yashayman,  
Xizmatimda tursin baliq ham,  
Baliq bo’lsin menga xizmatkor“.  
Botinolmas so’z aytishga chol,  
Bo’la olmas kampir so’zini.  
Tag’in bordi zangor dengizga,  
Qora quyun ko’rar dengizda.  
To’lqinlar o’shqirar g’azabkor,  
Ham to’lg’anar, ham uvlar tinmay.  
Chaqirdi u baliqni suvdan,  
Baliq chiqib so’radi undan:  
„Nima kerak senga, chol bobo?“  
Ta’zim qilib, shunday dedi chol:  
„Podsho baliq, holimga achin,  
Jonga tegdi la’nati kampir,  
Ortiq bo’lmas emish malika,  
Dengiz shohi bo’lish istarmish  
Va dengizda yashash istarmish.  
Sen ham borarmishsan xizmatga,  
Bo’larmishsan unga xizmatkor“.  
Bitta so’z ham demadi baliq,  
Suvga urib dumini faqat  
G’oyib bo’ldi dengiz tagiga.  
Javob kutib turdi sho’rlik chol,  
Uzoq qolib dengiz bo’yida...  
Qaytdi kampir yoniga axir,  
Ko’rsa, tag’in o’sha yerto’la.  
Bo’sag’ada o’tirar kampir,  
Qarshisida teshik tog’ora.

**Savol va topshiriqlar:**

1. “Rus she’riyatining quyoshi” nomini olgan buyuk shoir asarlaridan qaysilarni bilasiz?

2. Shoirning bolalar uchun yozilgan asarlarini sanang.
3. Maktabda yodlaganingiz shoir ijodidan namunalarni ifodali o'qing.
4. Agar siz ertak qahramoni – chol o'mnida bo'lganingizda kampirni o'z niyatlaridan qayerda to'xtatgan bo'lar edingiz?
5. Ertakning g'oyasini qaysi maqol bilan ifodalay olasiz?



## LEV NIKOLAYEVICH TOLSTOY (1828–1910)

Rus bolalar adabiyotining taraqqiyotida L.N.Tolstoy katta rol o'ynadi. Bolalar uchun asarlar yozish har bir qalamkashning fuqarolik burchi deb bilgan pedagog-adib ijodda ko'p narsalarga erishdi.

Tolstoy 1859-yilda o'z ona qishlog'i Yasnaya Polyanada mакtab ochib, muallimlik qilar ekan, o'quvchilar-u o'qituvchilar uchun darslik va qo'llanmalarining yo'qligini, borlari ham talabga javob bera olmasligini tajribadan o'tkazdi. Endigina savod chiqarish ishiga kirishgan bolalarga mos ertak, she'r, masal va hikoyalar darsliklarda o'z aksini topishi darkor, deb tushundi va bu xayrli ishga qo'l urdi.

Darslik juda qiyinchilik, og'ir ijodiy mehnat bilan 1872-yilda „Alifbe“ nomi bilan nashr etildi. Dehqon bolalariga mo'ljallangan bu kitob, alifbedan tashqari, ruscha o'qish uchun to'rt kitob, slavyancha o'qish uchun to'rt kitob, arifmetika va muallim faoliyatidan tashkil topgan edi. Bu darslik ham bolalarga hech qanday yengillik bermadi. Ayniqsa, badiiy asar ko'p bo'lsa-da, kitobda davr, zamon ruhi deyarli yo'q edi. Shu sabablarga ko'ra pedagog-olim qattiq tanqidga uchradi. Zahmatkash adib tanqidlardan to'g'ri xulosa chiqaradi. Iloji boricha mehnat ahli bolalariga o'qimishli, ta'sirli, eng muhimi, ularning savodini chiqarishga mo'ljallangan „Yangi alifbe“ va unga qo'shimcha qilib „Rus tili o'qish kitobi“ni 1875- yilda nashr ettiradi. Bu kitob uchun adib juda ko'p hikoya, ertaklar yozadi. „Uch ayiq“, „Filippok“lar shular jumlasiga kiradi. Adabiy jamoatchilik va pedagoglar asarni zo'r mammuniyat bilan qabul qiladilar. Bu kitob har tomonlama bolalarga mos tushadi. Tolstoy kitob haqida: „Mazkur „Alifbe“ haqidagi orzularim ro'yobga chiqqanidan, uni rus bolalarining ikki avlodni o'qib, dastlabki poetik zavjni shu kitobdan olishlaridan faxrlanaman. Bu kitobga hammasidan ham ko'p mehnat va muhabbatimni jo qildim, u hayotimning muhim sahifasi bo'lishiga aminman“, deb yozgan edi.

Bu darslik qayta-qayta bosildi. Hatto, 1921-yilda ham uning so'nggi nashri chop etiladi.

Tolstoyning har bir asari turmushning, bolalar hayotining bir tomonini ochib berishga qaratilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki hayotni, bolalarni qattiq sevgan va unga mehr-oqibati juda katta bo'lgan adib kichkintoylarga qarata

yozilgan har bir katta-kichik asar hayotiy bo'lishini istaydi va o'zining bu qaroriga butun ijodi davomida sodiq qoladi.

L.N.Tolstoyning bolalarga bag'ishlab yozgan barcha katta-kichik asarlarida oddiy inson obrazi ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Buning isboti tariqasida adibining bir qator asarlariga nazar tashlab o'tishga to'g'ri keladi. Bir bog'bon bolalari ishyoqmas, yalqov bo'lib o'sayotganlaridan qattiq iztirob chekadi. U o'limi oldidan o'g'llarimni bir aldasam, zora ishlab o'zlarida mehnat ko'nikmasi hosil bo'lsa, degan o'y-xayol bilan: «Bolalar, men tok tagiga oltin ko'mib qo'ydim, uni mendan keyin qazib olinglar», degan g'oyani «Bog'bon va bolalar» hikoyasida juda qoyil qilib yozadi.

Ko'chat ekish, bog' qilish juda og'ir va mashaqqatli ish. Bu bog'bondan og'ir mehnat, sabr-bardosh, toqat talab etadigan ishdir. Bog'bon o'zi uchun bog' qilmaydi, balki bola-chaqasi, el-yurt uchun, qolaversa, kelajak avlod uchun ko'chat ekadi. Shu nuqtai nazardan adibning «Mo'ysafid olma ekdi» hikoyasi diqqatga loyiqidir.

“Keksa berilib ko'chat o'tqazar edi. Odamlar uning keksaligidan va qilayotgan ishidan kulib:

– Sizga olma ekish nega kerak bo'lib qoldi? Bu daraxt o'sib voyaga yetguncha bu dunyoda yashaysizmi yoki yo'qmi? – deyishdi.

– Men olmasini yemasam o'zgalar yeyishadi va menga rahmat deyishadi. Nima bo'ganda ham olmani ekkanim foyda, – debdi.”

L.N.Tolstoy ochko'z, faqat o'z manfaatlarini o'ylaydigan ba'zi odamlarni o'zining ko'pgina asarlarida tanqid qiladi, ularning ustidan ochiqdan-ochiq kuladi. «Odama qancha yer kerak?» degan hikoyaning sarlavhasini o'qigan odam hayron bo'lib qoladi. Rostdan, odama qancha yer kerak? Fomaga mulkdor yer beradi. «Bugun qancha o'lchasang, hammasi seniki», – deydi. Foma yugurib-yelib, odimlab kun bo'yi yer o'lchaydi. Axiyri, ochlik va charchaganidan yiqiladi-yu jon beradi. Adib Foma cho'zilib yotgan yerni ko'rsatib, odama ikki metr yer kerak bo'ladi, xolos, deydi.

Tolstoyning bolalarga bag'ishlab yozgan asarlari juda ko'p. Muhimi shundaki, bu asarlardan ham o'qituvchilar, ham ota-onalar bab-baravar foydalanishlari mumkin. Ular bir tomondan dars materialini boyitsa, ikkinchi tomondan ota-onalar va tarbiyachilarning bolalar bilan qiladigan tarbiyaviy suhbatlarida qo'l kelishi mumkin.

Tolstoyning „Bolalik“, „Kavkaz asiri“ kabi qissalari ham bolalar sevib o'qiydigan asarlar sirasiga kiradi. L. Tolstoyning ibratlari hikoya, ertak va masallari hozirgi kunda ham o'zining badiiy hamda tarbiyaviy kuchini yo'qotmagan. Uning bu mavzudagi asarlari qator darslik va majmualarga kirgan, alohida kitob holida ham chop etilgan.

## IKKI O'RTOQ

Ikki o'rtoq o'rmonda ketayotgan edi. Oldilaridan bir ayiq chiqib qoldi. Ulardan biri qochib, daraxtga chiqib bekindi, ikkinchisi esa yo'l ustida qoldi.

U nima qilishini bilmay, uzala tushib yotib olib, o'zini o'likka soldi. Ayiq uning yoniga kelib, hidlay boshladi. Shunda bola nafas olishdan ham to'xtadi.

Ayiq uni hidladi-da, o'lik deb gumon qilib, qaytib ketdi.  
Ayiq ketgandan so'ng sherigi daraxtdan tushdi va kulib so'radi:  
— Xo'sh, ayiq qulog'ingga nima dedi?  
— Ayiq menga: „Xavfli paytlarda o'z o'rtog'ini tashlab ketadiganlar — yomon odamlar“, —deb aytidi.

## SOQCHI CHUMCHUQ

Bog'da bir necha chumchuq bolasi sakrab, o'ynab yurar edi. Ona chumchuq daraxtning baland shoxiga qo'nib, yirtqich qushlar kelib qolmasin deb, ziyraklik bilan qarab turar edi.

Uzoqdan qaroqchi qirg'iy uchib kela boshladi. U mayda qushlarning ashaddiy dushmani. Qirg'iy astagina tovushsiz uchib kelar edi.

Biroq ona chumchuq yomon niyatli qirg'iyni darrov ko'rdi va kuzata boshladi.

Qirg'iy juda ham yaqinlashib qoldi. Ona chumchuq qattiq chirqilladi, shunda hamma chumchuq bolalari duv etib uchib, shoxlar orasiga bekindi va tovush chiqarmay jim turdi.

Ona chumchuqning o'zi shoxda qimirlamay, ko'zini qirg'iyan uzmay qarab turdi.

Qirg'iy ona chumchuqni ko'rib qoldi. Qanot qoqib, changallarini ochib, ona chumchuq tomonga o'q kabi otildi.

Ona chumchuq esa o'zini darrov shoxlar orasiga oldi. Qirg'iyning harakati bekor ketdi, qirg'iy atrofga alanglab qaray boshladi, jahli chiqdi, sariq ko'zlari olov kabi yondi. Keyin qanotlarini qoqib, uzoqqa uchib ketdi.

Ona chumchuq avvalgi shoxga yana qo'nib oldi-da, shodlik bilan chirillay boshladi.

Shoxlar orasidan chumchuq bolalari yana duv etib uchib chiqdi va bog'da sakrab yura boshladi.

## QIZCHA VA QO'ZIQORIN

Ikkita qizcha qo'ziqorin ko'tarib, uyga qaytar edilar. Ular temir yo'lni bosib o'tishlari kerak edi.

Qizchalar: „Paravoz hali uzoqda“ deb o'ylab, ikki iz o'rtasidan yurib boraverdilar.

Birdan paravoz vishillab kelib qoldi. Kattaroq qizcha orqaga qarab qochdi, kichkinasi esa temir yo'lidan oldinga qarab yugurib ketdi.

Opasi singlisiga qarab: „Orqangga qaytma!“ deb qichqirdi. Lekin paravoz juda yaqinlab qolgan edi, shuning uchun ham singlisi opasining so'zini fahmlamay qoldi, u „Orqangga qarab qoch“, deyapti deb o'yladi-da, orqaga qarab qochdi va qoqilib ketib, qo'ziqorinlarni sochib yubordi, keyin ularni tera boshladi.

Paravoz juda yaqinlashib qolgan, mashinist zo'r berib xushtak chalar edi.

Opasi „Qo'ziqorinlarni tashla“ deb qichqirdi. Singlisi bo'lsa, opasi „Qo'ziqorinlarni terib ol“, deyapti, deb o'ylab, yo'l ustida o'ralasha berdi.

Mashinist paravozni to'xtata olmadi. Paravoz qattiq xushtak chalib, qizchaning ustiga yurib kela boshladi.

Opasi dod solib yig'lay boshladi. Yo'lovchilarning hammasi vagonlarning derazalaridan boshlarini chiqarib qaradilar. Konduktor bo'lsa qizchaga nima bo'lganini bilish uchun poyezdning oxiriga qarab yugurdi. Poyezd o'tib ketgandan so'ng, qizchaning ikki iz o'rtasida boshini yerga egib, qimirlamay yotganini ko'rdilar.

Poyezd ancha nari ketgandan keyin qizcha boshini ko'tardi va tiz cho'kib qo'ziqorinlarini terdi-da, opasining oldiga chopib bordi.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Ulug' rus yozuvchisining marifatparvarlik faoliyati haqida so'zlang.
2. Tolstoyning bolalar uchun yozgan asarlarini sanang.
3. "Ikki o'rtoq" ertagi g'oyasining umrboqiyligi nimada deb o'ylaysiz?
4. "Soqchi chumchuq"dagi ona chumchuqning fidoiyligi nimada?
5. "Qizcha va qo'ziqorin" ertagi g'oyasini topishga harakat qiling.

## **KORNEY IVANOVICH CHUKOVSKIY (1882–1969)**



Rus bolalar adabiyotining ulkan daholaridan biri Korney Chukovskiy yirik yozuvchi, shoir, olim, mohir tarjimon sifatida tanilgan so'z ustasi edi. U o'z asarlarida bolalarga xos ajoyib xislatlarni — rahmdillik va insoniylik, do'stlik va birodarlik, yovuzlikka nisbatan shafqatsizlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni targ'ib etadi. Korney Chukovskiy bolalar uchun asarlar yaratish, ijod qilishni o'zi uchun katta baxt deb bildi.

Kichkintoylar va ularning adabiyotini umr bo'yi ardoqlagan Korney Chukovskiy 1882-yilda Peterburg shahrida dunyoga keldi. Tez orada chukovskiylar oilasi Odessaga ko'chadi. Bu yerda ona ming mashaqqat bilan o'g'lini gimnaziyaga joylaydi. Bu baxt uzoqqa cho'zilmaydi. „Oshxona xizmatchisining o'g'li“ bo'lganligi uchun K. Chukovskiy gimnaziyadan haydaladi.

Korney oilaga ko'maklashish, tirikchilik o'tkazish maqsadida turli yumushlarni bajarishga majbur bo'ladi. Shunga qaramay, u bo'sh vaqtlarida mustaqil o'qishga, Pushkin, Nekrasov, Chexov asarlarini mutolaa qilishga harakat qiladi.

Chukovskiyning dastlabki „San'at nima?“ maqolasi 1901-yilda „Odesskie novosti“ gazetasida bosilib chiqqan. 1903-yilda u gazeta muxbiri sifatida Angliyaga boradi. Londonda xizmat qila boshlaydi. Lekin bu yerdagi faoliyati uzoq davom etmaydi. Gazeta unga maosh to'lamay qo'yadi. U Britaniya muzeyiga ishga kirib, tirikchilik o'tkazishga majbur bo'ladi.

1905-yilda K. Chukovskiy Odessaga qaytib keladi va bu yerda „Signal“ degan jurnal chiqara boshlaydi. Jurnal sahifalarida chor hukumati siyosatiga qarshi materiallar bosilganligi uchun uni sud qilishadi.

Keyingi yillarda u bolalar adabiyoti bilan mashg'ul bo'ladi, bolalar adabiyoti to'g'risida ko'plab maqolalar yozadi. 1907-yilda „Bolalar tili“ asari maydonga keladi.

K. Chukovskiy dastlab M. Gorkiy hikoya qilib bergen sujet asosida bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, badiiy baquvvat „Timsoh“ ertagini yozdi. 1918-yilda esa „Archa“ nomli to'plami bosilib chiqdi. O'sha yili „Jahon adabiyoti“ nashriyotiga ishga kirdi. 1919-yilda N. A. Nekrasov asarlarining to'la to'plamini nashr ettirdi. Shu yillarda uning mashhur „Moydodir“, „Suvarakxon“ ertaklari, „Kichik bolalar“ kitobi bosilib chiqdi.

„Pashsha — xarxasha“, „Barmaley“, „Telefon“, „Fyodora o'tkazgan alam“, „O'g'irlangan quyosh“, „Doktor Aybolit“ asarlari Korney Chukovskiyning nomini olamga yoydi, kitobxonlar hurmatini qozondi.

Korney Chukovskiyning ertak-dostonlarida ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi, baxt, yorqin hayot sari keskin kurash bo'rtib turadi. Masalan, shoirning „Moydodir“ asarida bolalarning odobli, ozoda, har doim to'g'riso'z bo'lish va tozalikka rioya qilish mavzusi ilgari surilgan.

Asar qahramoni qator fazilatlarga ega. Lekin bir aybi bor, faqat kir-chir yuradi. Shuning uchun bir kuni unga xizmat qiluvchi barcha narsalar ish tashlaydi, undan yuz o'girib, qochib ketishadi. Bola voqeaga tushunmay, xafa bo'lib turganida joniga yuz-qo'l yuvgich oro kiradi.

Yosh kitobxon hayvon, jonivor va hasharotlar haqidagi voqe-a-sarguzashtlarni sevib o'qiydi. K. Chukovskiyning „Suvarakxon“ asari ham kichkintoylarning sevimli asarlaridan hisoblanadi. Asarda shoir hayvon, hasharot va yirtqichlarning tuzilishlari, fe'l-atvorlari, dovyuraklik va qo'rqaqliklari to'g'risida bahs yuritadi:

Sho'rlik, baxtsiz hayvonlar,  
Bo'kirib, dodlab yig'lar!  
Har bir uyada  
G'or-u qiyada —  
Ochko'z yovga  
Tiz cho'kar.

Ana shunday vaziyatda paydo bo'lib qolgan chumchuqning tadbirdorligi, ishbilarmonligi, chaqqonligi qo'l keladi, u suvarakni tiriklayin yutib yuboradi. Shu zaylda chumchuq o'rmon-u quruqlikda yashaydigan qushlar, jonivorlar, hayvon va yirtqichlarni ozodlikka, erkka, baxtli va totli hayotga olib chiqadi. Bu voqeа esa bolalarning estetik didlarini oshiradi, hayvonot olamiga nisbatan qiziqishlarini shakllantirishda, ona-Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatlarini kamol toptirishda yetakchi omil bo'ladi.

Shoirning „Pashsha-xarxasha“, „Telefon“, „Fyodora o'tkazgan alam“, „O'g'irlangan quyosh“, „Filnisa kitob o'qir“, „Kirpilar kuladi“ singari asarlari ham bolalar uchun maroqlidir. „Doktor Aybolit“ asari bir umr bolalarga shodlik-quvonch bag'ishlab kelmoqda. Aybolitning oqko'ngilligi, mehribonligi, jonkuyarligi, hayvonlar bilan inoq, do'stligi ibratomuz chizib berilgan.

Korney Chukovskiy sevimli shoir, iste'dodli adib, shuningdek, yirik adabiyotshunos olim bo'libgina qolmay, bilimdon tarjimon ham edi. Uning

„Ikkidan beshgacha“ nomli mashhur tadqiqotida kichik yoshdagи bolalar xarakter xususiyatlari, nutqi va ruhiyati xususida qiziqarli hayotiy ma'lumotlar beriladi.

Ulkan so'z san'atkori Korney Chukovskiy bolalar qalbini to'lqinlantiradigan, hayajonga soladigan kitoblar muallifi sifatida hurmatga sazovor. E'zozli muallifning umri, bosib o'tgan hayot yo'li ham xuddi kitoblari singari e'zozlanadi.

## **YUVIN, DO'MBOG'IM**

(Moydodir)

To'shagim ham  
Qochdi birdan,  
Choyshab-chi, parvoz etdi  
Turmayin tek,  
Qurbaqadek  
Yostig'im sakrab ketdi.  
Qo'l uzatsam,  
Shamga endi,  
U pechkaga —  
Yashirindi.  
Yaqin borsam  
Irg'ib kitob,  
Karavotga qochdi shitob.  
Choy ichgim kelib tursam,  
Samovarga Yugursam—  
U baqaloq mendan afti —  
O'tdan qochganday chopdi.  
Nima bo'ldi?  
Ne gap rosti?  
Hamma narsa  
Ostun-ustun.  
Bir aylanar,  
Gir aylanar.  
G'ildirakdek —  
Zir aylanar.  
Yugurar  
dazmol  
etik,  
Somsa ham  
chopar  
tetik,  
Ortidan —  
dazmol  
kosov —  
Belboqqa

bo'lmas  
yetib.  
Hamma narsa o'mbaloq,  
Tinmay oshar do'mbaloq.  
Oyim yotgan uydan shu choq,  
Qo'lyuvgich qing'ir oyoq  
Chopib chiqib tarak-tarak  
Va der boshin qilib sarak:  
„Senimi, irkit, yaramas,  
Bet yuvmagan cho'chqacha.  
Mo'rkonchidek basharang,  
Es kirarmi xo'sh qachon?  
Bir qaragin o'zingga:  
Bo'yin-boshing qaqqoch-yasmoq,  
Burning osti qurum-qasmoq,  
Shu ham qo'lmi, uyat-ku o!  
Tashlab ketdi shiming hatto,  
Shiming hatto, shiming hatto  
Qochdi kirmay so'zingga.  
Bilsang har kun ertalab,  
Sichqon, mushuk erkalab,  
O'rgimchak, qo'ng'iz va g'oz,  
Yuvinishar ro'yirost.  
Yuvinmading sen faqat,  
Kir-chirlaring qatma-qat.  
Mog'or uchun boshbog'ing  
Qochdi paypoq, boshmog'ing...  
Men-chi ulkan qo'lyuvgich,  
O'sha mashhur Moydodirman.  
Qo'lyuvgichlar boshlig'i,  
Mochalkalar komandiri —  
Tan-sog'liqqa foydadirman.  
Yerni tepib chaqirsam,  
Shu xonada bo'lar jam  
Mening barcha askarim,  
Qo'lyuvgich lashkarlarim.  
To's-to' polon ko'tarib,  
Adabingni berishar.  
Sendek mog'or irkitning  
Holiga voy deyishar.  
Eshit asli, gap tagin,  
Bilsang, Peterburgdagi —  
Moyka degan anhorga,  
Xuddi shunday joy bor-da,  
Naq boshingni tiqishar“.

U mis jomni urdi turib,  
Jarangladi: „Taraq-turuq!“  
Yetib keldi shu payt cho’tka,  
O’zin urib suvdan o’tga,  
Rosa ishqab so’zlar edi,  
So’zlar edi:  
„Mo’rkonchini yuvamiz,  
Toza, toza, xo’p toza.  
G’uborini quvamiz,  
Soz-a, soz-a xo’p soz-a!“  
Birdan sovun irg’ishlab,  
Sochlarimga yopishdi.  
Ariday chaqib, tishlab,  
Ko’pirdi, terga pishdi.  
Quturgan ishqagichdan,  
Qochdim kaltak yeb badan.  
Bog’ko’cha, sayhon bo’ylab,  
Quvar meni hoy-hoylab.  
Tavr bog’idan shoshib o’tdim,  
Devoridan oshib o’tdim.  
Ortda qolmay quvar birdek,  
Goho tishlar qashqirdek.  
Xiyobonda uchrab qoldi,  
Shu payt tanish Timsoh polvon.  
Sayr qilarkan o’g’il-qizi,  
To’tash, Ko’ktash uchovlon.  
Ishqagichni zum o’tmayin,  
Laqqa yutdi zaxchadayin.  
Keyin Timsoh baqirdi  
Menga qarab.  
Oyoq tirab chaqirdi,  
Menga qarab;  
Ko’p yashasin sovunlarni —  
Atirlisi,  
Hamda yumshoq sochiqlarning—  
Tatir isi.  
Yaxshi, biroq  
Mayin taroq,  
Tish poroshok bizlar uchun —  
Qadrlisi!  
Qani endi, yuvinaylik zavqqa botib,  
Cho’milaylik, sho’ng’iylik, quloch otib;  
Tog’orada, jomoshovda, paqirda,  
Daryo, ariq, okeanda axir-da.  
Vanna, jomda, hammomda,

Hamisha, har dam, har on —  
Suvga bo'lsin sharaf-shon!

**Savol va topshiriqlar:**

1. K.I. Chukovskiy haqida nimalarni bilasiz?
2. K.I. Chukovskiy nomini olamga yoygan asarlarni sanang.
3. K. Chukovskiyning "Suvarakxon" asarida ilgari surilgan g'oyalarni ayting.
4. Shoirning "Doktor Voyjonim" asarining mashhurligi nimada?
5. "Yuvin, do'mbog'im" (Moydodir) asari orqali bolalarga qanday tarbiyaviy g'oyalar berish mumkin.



**SAMUIL YAKOVLEVICH MARSHAK**  
**(1887–1964)**

Samuil Yakovlevich Marshak rus bolalar adabiyotida kichkintoylar uchun katta she'riyat yaratib bergen ulkan san'atkor, taniqli tarjimon, yetuk dramaturg, mohir pedagog va bilimdon muharrirdir.

S. Y. Marshak 1887-yilda Voronej shahrida tish texnigi oilasida tug'ildi. Bo'lajak san'atkorda shoirlilik iste'dodi juda erta uyg'ondi. „To'rt-besh yoshlarimda, — deb eslaydi shoir o'zi haqida, — she'rilar yoza boshladim. O'n bir yoshimda bir qancha dostonlar yaratdim. Goratsiyining „Odamlar“ini tarjima qildim“.

S. Y. Marshak 1897-yilda Ostrogoj gimnaziyasiga o'qishga kirdi. Lekin bu yerda o'qimay, Peterburgga boradi, badiiy gimnaziyaga o'qishga joylashadi. Bu yerda bo'lajak shoir o'z zamonasining yetuk san'atkorlari bilan yaqindan tanishadi. Marshakning ijodiy faoliyati shu yerda chechak otadi. 1906-yildan boshlab feletonlari, she'r hamda tarjimalari bilan matbuotda chiqsa boshlaydi. S. Y. Marshak 1912-yilda Angliyaga jo'naydi. London universitetining san'at fakultetiga o'qishga kiradi. Ta'til kunlari u mamlakatning diqqatga sazovor joylarini yayov kezib tomosha qiladi: baliqchilar bilan dengizda sayr qiladi, qishloq maktablarida bo'ladi. Ingliz xalq qo'shiqlarini, ertaklarini sevib tinglaydi. Bu yerda Marshak V. Bleyk, Rabindranat Tagor va boshqalarning she'r va dostonlarini ingliz tilidan tarjima qiladi.

1914-yilda Rossiyaga qaytib kelgan Marshakning hayoti va ijodi bolalar olami bilan chambarchas bog'lanib ketadi. U 1915—1922 yillarda bolalar uylarida tarbiyachi, o'qituvchi bo'lib ishlaydi. Bu esa Marshakning bolalar shoiri bo'lib kamol topishida katta rol o'yndaydi.

S. Y. Marshak 20-yillarda o'zining she'r, ertak va dostonlari bilan yosh kitobxonlarning sevimli shoiri sifatida tanildi. „Qayerda ovqatlanding, ey chumchuq?“, „Ahmoq sichqoncha haqida ertak“, „Kecha va bugun“, „Sirk“ va boshqa shu kabi mashhur asarlari o'sha yillarda maydonga kelgan edi.

S. Y. Marshak rus bolalar adabiyotini rivojlantirish uchun M. Gorkiy hamda V. V. Mayakovskiylar bilan yelkama-yelka turib mehnat qildi. 1939-yilda Marshakning „Petya nimadan qo'rkar edi?“, „Korablcha“ singari mashhur she'rlari bosilib chiqdi. Ikkinchi jahon urushi davrida shoir ijodining asosiy mavzusini urush, bosqinchilarga qarshi kurash tashkil etdi. Ayniqsa, 1943-yilda yaratilgan „O'n ikki oy“ nomli ertak-dramasi tez orada millionlab yosh kitobxonlar orasida mashhur bo'lib ketdi.

S. Y. Marshak 1964-yilning 4-iyunida Moskva shahrida vafot etdi. „Har qanday bolalar adabiyotida ikki yosh mavjud bo'ladi, u olamga bolalar nigohi bilan qaraydi, ammo uni kattalardek idrok qiladi, aql-tajribasiga suyanib ish ko'radi“, degan shoir bir umr bolalarni sevdi, ular uchun g'oyaviy-badiiy yuksak asarlar yaratish uchun tinmay ijodiy ish olib bordi.

S. Y. Marshakning nomini olamga yoygan, bolalar shoiri sifatida tanitgan she'rlaridan biri „Ahmoq sichqoncha haqida ertak“dir. Bu ertakda shoir bolalar hayoti va xarakteriga xos bo'lган qiziqarli sujet topa olgan. Kimki o'ziga ortiqcha oro bersa, oqibatini o'ylamay ko'r-ko'rona ish tutsa, o'zidan kattalarning pand-nasihatiga amal qilmasa, hayotda ko'p narsa yutqazadi, o'z baxtini qo'ldan boy beradi, degan fikr ertakning asosiy g'oyaviy mazmunini tashkil etadi.

S. Y. Marshak „Ahmoq sichqoncha haqida ertak“ asarida majoziy obrazlar orqali bolalar hayotiga oid muhim masalalarni ilgari suradi. Shoir noshukr, farosatsiz, mehnatsiz kun kechiruvchilarni ahmoq sichqoncha obrazi misolida fosh qiladi.

S. Y. Marshak „Yong'in“, „Pochta“, „Musobaqalar doskasi“ asarlari bilan ham rus bolalar adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. U yaratgan juda ko'p qahramonlar shaxsan o'zi tanigan, bilgan yoki eshitgan bo'ladi, ba'zan esa gazeta materiallari asosida yaratadi. Binobarin, bu qahramonlarning hayotiy timsoli mavjud. Jumladan, talaba V. Buratskiy („Noma'lum qahramon haqida qissa“), Igor Chkalov („Qahramonning o'g'li“), Katya Budanova („Katya Budanova“), Seryoja Smirnov („Sizning kitobingizni qanday nashr qiladilar“) va boshqalar shunday qahramonlar sirasiga kiradi. Shoir „Noma'lum qahramon haqida qissa“ poemasida oddiygina hayotiy bir voqeani aks ettirish bilan 30-yillar rus bolalar dostonchiligida ijobiy qahramon obrazini yaratish yo'llarini ko'rsatib berdi.

S. Marshak Rossiyada hayot kechirayotgan har bir kishi bir-biriga mehribon, jonkuyar, shuningdek, vaqt kelganda mardlik, jasorat ko'rsatishga tayyor ekanligini, ayni paytda, oddiy, kamtarin, o'zining qo'lga kiritgan ulkan muvaffaqiyatlari, erishgan jasoratlari bilan kerilmasligini, manmanlikka berilmasligini oddiy hayotiy misol — o't ichida qolgan bir qizchaning hayotini saqlab qolgan bola orqali tasvir etadi. Bola mana, ko'rib qo'yinglar, men jasorat ko'rsatdim, deya ko'kragiga urib maqtanish o'rniga, tezgina odamlar orasiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ladi. Bu qahramonni keyinchalik barcha qidiradi. Lekin hech kim topa olmaydi. Hozir ham o'quvchilar o'rtasida maktab mebellarini asrabavaylab tutmaydiganlari topilib turadi. Bunday bolalarga shoir o'zining „Stol kelgan qayerdan?“ degan she'rida maktab mebellari o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaganligini, buning uchun kattalarning qanchadan qancha vaqtлari, mehnatlari surf etilganligini tushuntirib bersa, „Bir yil nima?“ asarida esa juda qimmatli

vaqtini behuda o'tkazib, maktabda yaxshi o'qimay, o'qituvchi-ustozlarning pand-nasihatlariga amal qilmay, o'z vaqtida darslarini tayyorlamay, natijada sinfdan sinfga o'ta olmay xijolat bo'lib yuradigan qoloqlarga qarata:

Dalalarda saranjom ish,  
Zavodda ham reja qoyil,  
Maktabda yo'q  
Qoloqlar hech.  
Bil, bir sinfda o'qish —bir yil! —  
deydi shoir.

Marshak bizning bolalar adabiyotimizning asoschisi va bilimdoni, — deb yozgan edi mashhur rus yozuvchisi M. Gorkiy. Bunday yuksak maqtovga u halol mehnati, kichkintoylarni astoydil sevishi, ardoqlashi sababli erishdi.

## AHMOQ SICHQONCHA HAQIDA ERTAK

Tunda sichqon inidan  
Alla aytar: —Jon qo'zim,  
Jim yot, bolam, kuyuk non  
Va sham beray yulduzim.  
Javob berar sichqoncha:  
— Ovozing ip-ingichka.  
Chiyillamay sen menga,  
Topib ber bir enaga.  
Ona sichqon tez borib,  
Der o'rdakka yolvorib:  
— O'rdak xola, uyga yur,  
Bolamni tebratib tur.  
Alla aytib, der o'rdak:  
— G'a-g'a-g'a, tinch yot go'dak.  
Yomg'ir tinsa bog'chadan  
Topib beray loyxo'rak.  
Ammo ahmoq sichqoncha  
Uyqusirab zing'ircha:  
Aytar: —Yoqmadni sozing,  
Baqroq ekan ovozing.  
Ona sichqon tez borib,  
Der baqaga yolvorib:  
— Baqa xola, uyga yur,  
Bolamni tebratib tur.  
Uni allalar baqa:  
— Yig'lama, qo'y, vaq-vaqa,  
Tong otguncha tinchib yot,  
Chivin beray mukofot.  
Ammo ahmoq sichqoncha,  
Uyqusirab zing'ircha,

Aytar: – Yoqmadi sozing,  
Qur-qur ekan ovozing!  
Ona sichqon tez borib,  
Otga deydi yolvorib:  
– Amma, amma, uyga yur,  
Bolamni tebratib tur!  
Kishnab alla aytar ot:  
– Hi-hing, jonim tinch yot!  
Yonboshlagin, bo'lgin jim,  
Senga beray to'rva yem.  
Ammo ahmoq sichqoncha  
Uyqusirab zing'ircha,  
Der: – Menga yoqmas sozing,  
Shang'i ekan ovozing.  
Ona sichqon tez borib,  
Der cho'chqaga yolvorib:  
– Cho'chqa xola, uyga yur,  
Bolamni tebratib tur!  
U bo'g'ilib, xirillab,  
Shunday deb alla qildi:  
– Jonginam, qilma g'avg'o,  
Juft sabzi senga sovg'a!  
Ona sichqon tez borar,  
Oq tovuqqa yolvorar:  
– Tovuq xola, uyga, yur,  
Bolamni tebratib tur!  
Tovuq allalar quvnoq:  
– Do'ndiqcham, qo'rhma, qa-qaq.  
Qanotim ostiga kir,  
U yer issiq, tinch, axir.  
Ona sichqon tez borib,  
Der baliqqa yolvorib:  
– Cho'rtan xola, bizga yur,  
Bolamni tebratib tur!  
Baliq ochib og'zini,  
Darrov allalar uni.  
Biroq eshitilmas soz,  
Chunki chiqmas hech ovoz.  
Shunda ahmoq sichqoncha  
Uyqusirab zing'ircha,  
Aytar: – Yoqmadi sozing,  
Chiqmas ekan ovozing!  
Ona sichqon tez borib,  
Der mushukka yolvorib.  
– Mushuk xola, uyga yur,

Bolamni tebratib tur!  
 Mushuk kelib bir palla,  
 Xirillab aytar alla:  
 – Miyov, miyov! Yulduzim,  
 Karavotga yot qo'zim.  
 Shunda ahmoq sichqoncha  
 Uyqusirab zing'ircha.  
 Deydi: – Yoqimli sozing,  
 Buncha shirin ovozing!  
 Ona sichqon kelib tez  
 Karavotdan o'sha kez  
 Topolmay o'z bolasin,  
 Axtarar ko'z qorasin.

*Savol va topshiriqlar:*

1. S.Y. Marshakning rus bolalar adabiyotidagi o'rni haqida gapiring.
2. Marshakning 20-yillarda yozilgan she'r, ertak va poemalarini sanang.
3. Urush davrida yozilgan, millionlab yosh kitobxonlar orasida mashhur bo'lgan ertak-dramasi qaysi edi?
4. "Ahmoq sichqoncha" ertagida sichqonchaning ahmoqligi nimada deb o'ylaysiz?
5. Sichqonchaning fojiasi orqali shoir qanday g'oyalarni ilgari suradi?



**ANTUAN DE SENT-EKZYUPERI  
(1900–1944)**

XX asrdagi nafaqat fransuz, balki jahon adabiyotining yetuk namoyandalaridan bin hisoblanmish Antuan de Sent-Ekzyuperi 1900-yil 29-iyunda Fransianing yirik shaharlardan biri Lionda kambag'allashgan zodagonlar oilasida dunyoga keldi. Otasidan erta yetim qolgan Antuanning bolaligi Lion yaqinidagi buvisiga qarashli Sen-Moris maskanida o'tdi. Antuan juda sho'x, quvnoq va ziyrak bola edi.

1909-yildan 1914-yilgacha Antuan va uning akasi Fransua Man shahridagi kollejda ta'lif olishdi. Birinchi jahon urushi boshlangach, ularning onasi o'g'illarini Shveysariyadagi xususiy kollejlardan biriga o'qishga yuboradi. 1917-yili akasi Fransua bevaqt olamdan o'tgach, Antuanning qalbida chuqur o'zgarish ro'y beradi va ilk bora yashashdan maqsad nima, degan savolga javob axtara boshlaydi.

Yosh Antuan Nafis san'at akademiyasining arxitektura fakultetiga o'qishga kiradi, biroq insonning hayotdagи o'rni haqidagi fikrlar uni aslo tark etmaydi, zero Antuan o'z hayotini aniq bir sohaga bag'ish-lamoqchi, insoniyatga chinakam naf keltiradigan ishga qo'l urmoqchi edi. 1921-yili u arxitektura fakultetini tark etadi va Fransiya harbiy havo kuchlari safiga xizmatga kiradi.

1926-yil Sent-Ekzyuperi uchun hal qiluvchi yil bo'ldi. Shu yili u «Latiko-Eyr» havo kompaniyasiga ishga kirib o'zi sevgan mashg'ulot bilan shug'ullana boshlaydi va o'zining «Uchuvchi» nomli birinchi hikoyasini e'lon qiladi. Shu kundan boshlab to umrining oxirigacha Sent-Ekzyuperi uchuvchi bo'lib qoladi. Sent-Ekzyuperi Yevropaning, Afrika va Lotin Amerikasining turli burchaklariga uchar, yuk va yo'lovchilarni tashir edi. Keyinchalik u G'arbiy Saxara (hozirgi Mavritaniya)ning Kap-Jubi shahri aeroportining boshlig'i, so'ngra bir fransuz aviakompaniyasining Argentinadagi bo'limi boshlig'i lavozimlarida ishladi.

Sent-Ekzyuperi o'zining bo'sh vaqtlarini adabiyotga, musiqaga va ixtirochilikka bag'ishladi. 1929-yili u o'zining ilk yirik asari «Janub chopari» va 1931-yili «Tungi parvoz» romanlarini e'lon qildi. Bu asarlar chop etilgan kunlaridan boshlaboq keng kitobxonlar va adabiyotchilar diqqatini o'ziga jalb qildi va yuksak baholandi. Jumladan, «Tungi parvoz» romani 1931-yili nufuzli «Femina» mukofotiga sazovor bo'ldi.

Sent-Ekzyuperi o'zining eng mukammal asari — «Erkaklar zamini» (1939) romanida zamon va insonlar haqidagi o'ylari hamda chuqr fikrlarini bayon qilgan va bu asar Fransiya Akademiyasi tomonidan eng yaxshi roman uchun Gran Pri mukofotiga sazovor bo'lgan.

Fashistlar Germaniyasi Fransiyaga hujum qilgan birinchi kundanoq Sent-Ekzyuperi harbiy havo kuchlariga xizmatga qaytgan va urush frontlarida razvedka uchishlari bilan shug'ullangan. Fransiya urushda mag'lubiyatga uchragach, u Amerika Qo'shma Shtatlaridan boshpana topadi va 1942-yili «Harbiy uchuvchi» novellasini, 1943-yili esa «Kichkina shahzoda» falsafiy ertagini yaratadi.

1943-yil Antuan de Sent-Ekzyuperi yana jangovar safga qaytadi. Fransyaning Shimoliy Afrikadagi mustamlaka o'lkalarida fashistlarga qarshi kurashadi. 1944-yil 31-iyulda u so'nggi parvozga chiqadi — Antuan de Sent-Ekzyuperining samolyotini fashist qiruvchisi urib tushiradi. Bu mudhish voqeа uning jonajon vatani Fransiya ozodlikka erishishiga atigi uch hafta qolganda yuz berdi.

Antuan de Sent-Ekzyuperi kitobxonlar uchun haligacha mashhur adib bo'lib qolyapti. Xo'sh, uning mashhurligi sababi nimada? Hamma gap shundaki, ijoddagi samimiyat, insonga mehr, nozik did hech kimni befarq qoldirmaydi. Bo'lmasa urush tufayli hayotdan bevaqt ko'z yumgan adib va shoirlar kam deysizmi. Shunday ekan, nega Antuan de Sent-Ekzyuperi mashhur, uning «Kichkina shahzoda» ertak-qissasi bu qadar sevimli asar? Sababi yuqorida biz ta'kidlagan o'lmas qadriyatlarda! «Kichkina shahzoda»ning kuchi ham ayni shunda.

«Kichkina shahzoda» ertagi Antuan de Sent-Ekzyuperining eng kichik asarlaridan bin bo'lsa ham, unda adibning inson hayotining ma'nosi va mazmuni haqidagi dardlari va falsafiy mushohadalari, insonlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik, hamdardlik va o'zaro hurmat munosabatlari, Yovuzlik va Yomonlikka qarshi kurash g'oyalari aks ettirilgan.

Asar to'g'risidagi mulohazalarni yozuvchining ushbu muhim gapini eslash bilan boshlasak: «Men kitobimning shunchaki ermak uchungina o'qilishini aslo istamayman».

Aziz o'quvchi, demak, Siz bilan biz bu asarga juda jiddiy e'tibor qaratishimiz kerak ekan-da.

Xo'sh, yuzaki qaraganda ertaknamo tuyuladigan bu qissada qanday sir-u sinoat yashiringan ekan? Sizda asar to'g'risida tasavvur hosil bo'hshi uchun avval uning asosiy voqealarini eshititing.

Adibning kasbi uchuvchilik ekanini bilasiz. Asarda tasvirlanishicha, navbatdagi parvozlarning birida uning samolyoti buzilib, kimsasiz Sahroyi Kabirga (Afrikadagi ulkan cho'lga!) qo'nishga majbur bo'ladi. Huvullab yotgan sahroda, tong saharda uning tepasida bir g'aroyib bola paydo bo'ladi. Keyinroq ma'lum bo'lishicha, bu tillarang sochli, qo'ng'iroq tovushli bolajon mittigina olis sayyorada bir o'zi yashar, bir yil muqaddam sayyoralararo sayohatga chiqib, nihoyat Yer planetasiga kelib qolgan ekan. U uchuvchi amakiga bir-biridan qiziq savollar berishdan, xuddi katta odamlardek u bilan tortishishdan charchamasdi (o'zbek kinorejissori Zulfiqor Musoqovning «Abdullahjon» filmini ko'rgan bo'lsangiz kerak!).

Muallif «Kichkina shahzoda» deb nom qo'ygan bu bolaning aytishicha, uning sayyorasida baobab deb nomlanadigan xavfli bir daraxt urug'i nihoyatda ko'p ekan. Shahzoda har tongni endigina urug'dan chiqqan baobab ko'chatlarini yulib, o'z sayyorasini tozalash bilan boshlarkan. U to Yerga kelgunga qadar bir necha sayyoralarni o'rganibdi. Ularning birida yakka-yolg'iz qiroq, boshqasida shuhratparast bir kimsa, keyingi sayyoralarda esa piyonista, korchalon, xonadan chiqmay yostiqday-yostiqday kitoblar yozadigan chol va tinimsiz fonus chiroq yoqish bilan band charoqbonni uchratibdi. Kichkina shahzoda Yerda ham talay mavjudot bilan muloqotda bo'ladi. Hon, tulki, gul, bekat nazoratchisi, savdogar shular jumlasidandir...

Nihoyat, uchuvchining samolyoti tuzaladi, Kichkina shahzodaning ham o'z sayyorasiga qaytish vaqt keladi. Hikoyachi o'zining yosh do'stlariga asar oxirida shunday xitob qiladi:

«Agar qachonlardir Afrikaga, sahroga borib qolsangiz, bu joyni tanishingiz oson bo'ladi. Mabodo shu yerdan o'tar bo'lsangiz, o'tinib so'rayman, mana shu yulduz ostida bir nafas to'xtang! Bordi-yu shu payt tillarang sochli bir bola yoningizga kelib, qo'ng'iroqdek tovush bilan kula boshlasa, birorta savolningizga javob bermasa, o'ylaymanki, kimga duch kelganiningizni albatta sezsangiz kerak. O'shanda, sizdan o'tinib so'rayman, dardli dilimga yupanch berish esingizdan chiqmasin: uning qaytib kelganini menga zudlik bilan xabar qiling».

Xo'sh, Kichkina shahzodada yozuvchining «dardli diliqa yupanch beradigan» qanday mo'jiza bor ediki, u bu qadar intiq kutmoqda?

Keling, Sizni ham ortiq diqqat qilmay, «sir»ni ocha qolaylik. Gap shundaki, bu asarning uchuvchidan boshqa deyarli barcha qahramonlari (ular esa goh inson, goh hayvon, goh o'simlik shaklida ishtirok etadilar) ramziy xarakterga ega. Adabiy asarlarda odamlarga hayotning o'zgarmas qonunlariga xos bo'lgan azaliy sifatlarni o'zida umumlashtiradigan ramziy obrazlar yaratish an'anasi mavjuddir. Endi ana

shu nuqtayi nazardan «Kichkina shahzoda» asariga qayta nazar tashlaylik. Axir o'ylab ko'ring: bitta sayyorada birgina Kichkina shahzoda, birgina shuhratparast yoki piyonistagina yashashi mumkinmi? Demak, yozuvchi alohida nom qo'y may, 325, 326, 327 va boshqa raqamlar bilan belgilagan bu asteroidlar aslida odamlarga xos bo'lgan fazilat va nuqsonlar ekan-da! Mana, piyonista yashaydigan sayyorada (demak, shu xavfli kasallikka mubtalo bo'lgan insonlar qalbida!) kechgan suhbatga quloq tuting:

« — Nima qilyapsan? — deb so'radi Kichkina shahzoda.  
— Ichyapman, — dedi piyonista xo'mrayib.  
— Nega?  
— Unutmoqchiman.  
— Nimani? — deb so'radi Kichkina shahzoda piyonistaga rahmi kelib.  
— Shu ishimning uyatligini, — dedi piyonista tan olib va boshini quyi soldi.  
— Qaysi ishing? — deb so'radi Kichkina shahzoda, boyoqishga yordam berishni jon-dilidan istab.

— Ichishim uyat! — dedi piyonista va qaytib og'iz ochmadi.  
Anchadan so'ng Kichkina shahzoda lol-u hayron bo'lib, tag'in yo'lga tushdi.  
«Ha, shubhasiz, kattalar juda-juda g'alati xalq», deb xayolidan kechirdi yo'lida davom etarkan».

Kichkina shahzoda xuddi shu tarzda qiroq, shuhratparast, korchalon (byurokrat), hech kimga nafi tegmaydigan kitoblar yozib o'zini ovutadigan chol va boshqalar bilan suhbat quradi. Bu insoniy ojizliklar uning yuragini g'ash torttiradi.

Xo'sh, unda Kichkina shahzoda qiyofasida asarda qanday kuch namoyon bo'ldi, deb so'rarsiz?

Biz uni EZGULIK deb nomladik! Negaki, ezgulikkina yovuz boababning g'ovlab ketishiga — olamni yomonlik egallab olishiga qarshi har kuni kurashga chiqadi. Qalbida ezgulik yashaydigan insongina o'zi suygan feruza guli — sevgi-muhabbatini himoya qila oladi...

Ezgulikning «Ko'ngil ko'zi ochiq» bo'ladi!

Afsuski, shaytoniy vasvasalarga uchgan odamzod hayotida Ezgulikning yashashi oson kechmaydi. Xuddi shu tufayli ham Kichkina shahzoda yetti sayyorani ham, hatto Yer yuzini ham tezda tashlab ketadi. Xuddi shu ayriliq yozuvchi Antuan de Sent-Ekzyuperi dilini dardli, ko'zini yoshli qiladi. Xuddi shu abadiy og'riq va dard kuylangani tufayli ham adib qalamidan to'kilgan "Kichkina shahzoda" asarini butun insoniyat izlab topib o'qiydi, yuragineg to'rida saqlaydi.

Va nihoyat, shunday o'lmas asarni yaratgani uchun ham yozuvchi vatani — Fransiyada, Antuan de Sent-Ekzyuperi tug'ilgan yurt — Lion shahri markazida unga ajoyib bir haykal o'rnatilgan. Ko'kka bo'y cho'zgan baland oq marmar ustun ustida adib o'tiribdi, uning yelkasiga qo'lini qo'ygancha Kichkina shahzoda turibdi. Ular bu yuksaklik uzra hamon suhbat qurayotgandek tuyuladi kishiga. Darhaqiqat, Fransiyada va undan tashqarida adib ijodiga qiziqish va hurmat katta. Haykal ham shu katta hurmatning ifodasidir.

Bolalar, mazkur darslikda e'tiboringizga dunyodagi juda ko'p tillarga tarjima qilingan, barcha baravariga sevib o'qiyotgan «Kichkina shahzoda» asaridan ayrim

boblar havola qilinyapti. Qissani o'qigach, uning nima uchun sevimli asar ekanini yanada yaxshiroq bilib olasiz.

## KICHKINA SHAHZODA

(Asardan boblar)

Leon VERT ga

*Bu kitobchani katta yoshdagi odamga bag 'ishlaganim uchun bolalardan kechirim so'rayman. O'zimni oqlash uchun shuni aytishim mumkinki, bu katta yoshdagi odam mening engyaxshi do'stim bo'ladi. Buning ustiga, u dunyodagi hamma narsani, hatto bolalarga atab chiqarilgan kitobchalarni ham tushunadi. Va, nihoyat, u Fransiyada yashaydi, uyerda hozir hamma yog sovuq, ocharchilik, do'stim esa taskin-tasalliga benihoya muhtoj. Agar bularning barchasi ham meni oqlayolmasa, u holda kitobchamni bir paytlar mana shu katta yoshdagi do'stimming o'rnida bo'lgan kichkina bolakayga bag 'ishlayman. Axir kattalarning hammasi ham avval-boshda yosh bold bo'lganlar, faqat buni ularning ozginasigina biladi, xolos. Shunday qilib, mana, men bag 'ishlovga tuzatish kiritaman:*

*Leon VERTga – bir paytlar yosh bola bo'lgan do'stimga bag 'ishlanadi.*

## I

Olti yashar paytimda, osuda o'rmonlar haqida hikoya qiluvchi «Bo'lgan voqealar» degan kitobda g'alati bir suratga ko'zim tushib qoldi. Suratda bahaybat bo'g'ma ilonning bir yirtqich hayvonni tiriklay yutayotgani aks ettirilgan edi. Mana o'sha surat:

Surat tagiga shunday deb yozilgan edi: «Ilon o'ljasini chaynab o'tirmay but-butunisicha yutib yuboradi. Shundan keyin u joyidan qimirlayolmay qoladi va to o'ljasini hazm qilib bo'lgunicha surunkasiga yarim yil dong qotib uxlaydi».

Men junglidagi sarguzashtlarga to'la hayot haqida uzoq xayol surdim, so'ng rangli qalam bilan umrimda birinchi marta rasm chizdim. Bu mening 1-raqamli rasmim edi. Mana, men chizgan narsa:

Ijodim namunasini kattalarga ko'rsatib, qo'rqinchli emasmi, deb so'radim.

— Shlapaning nimasi qo'rqinchli ekan? — deb e'tiroz bildirishdi menga.

Ammo rasmdagi narsa sirayam shlapa emas edi. Bu — film tiriklay yutib yuborgan bo'g'ma ilon edi. O'shanda, kattalarga tushunarli bo'lsin,

deb ilonning ichki ko'rinishini ham chizdim. Axir, kattalarga hamma narsani doim tushuntirib borish kerak-da. Bu mening 2-raqamli rasmim edi. (Rasmlarni muallif chizgan)

Kattalar menga Uonlarning ichki-yu tashqi ko'rimshini chizish o'rniga jug'rofiya, tarix, arifmetika va husnixatni ko'proq o'rganishni maslahat berishdi. Ana shundan keyin, olti yashar paytimda rassomhkning porloq istiqbolidan voz kechishga majbur bo'ldim. 1- va 2-raqamli rasmlarim muvafFaqiyatsizlikka uchragach, o'zimga nisbatan ishonchimni yo'qotdim. Kattalar hech qachon

o'zlaricha biron narsani tushuna olmaydilar, ularga hadeb hijjalab tushuntirib beraverish esa oxir-oqibat bolalarning ham joniga tegib ketadi.

Shunday qilib, boshqa kasb tanlashimga to'g'ri keldi-yu, uchuvchilikni o'rGANIB oldim. Osmoni falak bo'ylab qariyb butun dunyoni kezib chiqdim. Ochig'ini aytish kerak, jug'rofiya menga juda qo'l keldi. Bir qarashdayoq Xitoyni Arizona viloyatidan ajrata oladigan bo'ldim. Kechasi samoda adashib ketsang, bu benihoya asqatadi-da.

Urim davomida turli-tuman jiddiy odamlarni uchratdim. Kattalar orasida uzoq vaqt yashadim. Ularni yaqindan ko'rdim, bildim. Va bundan, tan olishim kerakki, ular haqidagi fikrim yaxshi tomonga o'zgarmadi.

Kattalar orasida boshqalardan ko'ra aqli va farosatliroq biror kishini uchratganimda unga 1-raqamli rasmimni ko'rsatardim — men uni asrab qo'yan edim, doim yonimda olib yurardim. Bu odam chindan ham biror nimani tushunadimi-yo'qmi, sinab ko'rmoqchi bo'lardim. Ularning barchasi rasmga qarab turib: «Shlapa-ku, bu», derdi. Shundan keyin men ularga na bo'g'ma ilonlar, na junglilar, na yulduzlar haqida og'iz ochardim. Ularning tushunchalariga moslashardim-da, brij va golf o'yinlari haqida, siyosat va bo'yinbog'lar haqida gap boshlardim. Shunda kattalar menday bama'ni odam bilan tanishganlaridan behad mammun bo'lar edilar.

## II

Men shu tariqa yolg'izlikda yashardim, dilimni anglaydigan biror hamdardim yo'q edi... Olti yil muqaddam samolyotimning motori buzilib, Sahroyi Kabirga qo'nishga majbur bo'ldim. Yonimda na mexanik, na bironta hamroh bor edi. Qanchalik qiyin bo'lmasin, samolyotni amallab bir o'zim tuzatishga ahd qildim. Yo motorni tuzataman, yo halok bo'laman. Bir haftaga bazo'r yetadigan suv qolgan.

Shunday qilib, birinchi kechani huvullab yotgan sahroda, qum ustiga uzala tushib o'tkazdim. Minglab chaqirim narida ham tirik jon asari sezilmasdi. Kemasi halokatga uchrab, bepoyon okeanda sol uzra suzib borayotgan odam ham menchalik yolg'iz bo'lmasandir. Shu bois tong-saharda meni kimningdir ingichka ovozi uyg'otib yuborganda naqadar hayratga tushganimni tasavvur ham qilolmasangiz kerak.

— Iltimos... menga qo'zichoq chizib ber! — degan qo'ng'iroqdek tovush yangradi yonginamda.

— A?..

— Menga qo'zichoq chizib ber...

Tepamdan go'yo yashin urgandek, sapchib o'rnimdan turdim. Apil-tapil ko'zlarimni ishqalab, atrofga alangladim. Qarasam — ro'paramda allaqanday g'aroyib bir bolakay menga jiddiy tikilib turibdi. Mana, uning eng yaxshi surati, men uni keyin chizishga muvafFaq bo'ldim.

Albatta, bu rasmda u aslidagidek yaxshi chiqmagan. Nachora, bunga men aybdor emasman. Olti yashar paytimda kattalar, sendan rassom chiqmaydi, deb

rosa miyamga quyishgani uchun men bo'g'ma ilomarning ichki va tashqi ko'rinishidan boshqa narsani chizishni o'rgana olmadim.

Shunday qilib desangiz, ko'zlarimni katta-katta ochgancha bu g'aroyib bolakayga qarab turardim. Odamzod makonidan minglab chaqirim olisdagi yaydoq biyobonda ekanim yodingizdan chiqmagandir. Shunisi g'alatiki, bu bolaning aftangoriga qarab, adashib qolgan yoki nihoyatda horib-charchagan, qo'rquvdan yuragi yorilib, ochlik va tashnalikdan o'lar holga yetgan, deb bo'lmasdi. Kimsasiz sahroda, inson qadami tegmagan cho'l-u biyobonda daf'atan paydo bo'lib qolgan bu bolaning ko'rinishidan bunday fikrlarni xayolga ham keltirish mumkin emasdi. Nihoyat, menga yana til ato bo'lib, asta so'radim:

— Lekin... sen bu yerda nima qilib yuribsan?

U tag'in ohistalik bilan va g'oyat jiddiy ohangda:

— Iltimos... qo'zichoq chizib ber... — dedi.

Bularning barchasi shu qadar sirli, anglab bo'lmas bir tarzda ro'y berayotgan ediki, rad qilishga jur'atim yetmadi. Jazirama sahro qo'ynida, hayotim qil ustida turgan bir pallada qanchalik bema'ni ko'rinxmasin, cho'ntagimdan qog'oz-qalam oldim-u, lekin shu zahoti o'zimning asosan jug'rofiya, tarix, arifmetika va husnixatni o'rganganim lop etib esimga tushdi-da, bolakayga qarab (hatto biroz achchiqlanib) rasm chizishni bilmasligimni aytdim. Bu gapimga u:

— Baribir qo'zichoq chizib ber, — deb javob qildi.

Men umrimda qo'zichoq rasmini chizib ko'rmaning uchun, o'zim bilgan o'sha eski ikkita suratdan birini — bo'g'ma ilonning tashqi ko'rinishini chizib ko'rsatdim.

Ammo bolakay rasmni ko'rib:

— Yo'q, yo'q! Menga ilon ham, fil ham kerak emas! Hon haddan tashqari xavfli, fil esa haddan tashqari katta. Mening uyimdag'i nairalarning hammasi kichkina. Menga qo'zichoq kerak, qo'zichoq chizib ber, — deb xitob qilganida nihoyatda hayron qoldim-da, shu rasmni chizib berdim.

U rasmni sinchiklab ko'zdan kechirgach:

— Yo'q, bu qo'zichoq judayam oriq-ku, — dedi. — Boshqasini chizib ber.

Men boshqa qo'zichoq rasmini chizdim.

Yangi do'stim xushfe'lllik bilan muloyim jilmayib qo'ydi.

— Bu qo'zichoq emas-ku, — dedi u. — O'zing ham ko'rib turibsan-a, qo'chqor-ku bu. Ana, shoxiyam bor...

Men qo'zichoqni tag'in boshqatdan chizdim. Biroq bu rasm ham unga ma'qul bo'ljadi:

— E, bu o'lguday qari-ku. Menga uzoq yashaydigan qo'zichoq kerak. Endi sabr-toqatim tugadi. Axir, tezroq motorni tuzatish kerak edi-da! Shuning uchun apil-tapil mana shu narsani chizib tashladim. Keyin bolaga qarab:

— Mana senga quticha. Qo'zichog'ing shuning ichida yotibdi, — dedim. Shunda meni butkul lol qoldirib, bu talabchan hakam gul-gul yashnab

ketdi:

— Menga xuddi shunaqasi kerak edi-da! U ko'p o't yermikan, nima deysan-a?

— Nima edi?

— Axir mening uyimda unchalik serobgarchilik emas-da.

— Unga ko'p narsa kerak emas. Men senga judayam kichkina bir qo'zichoq beraman.

— U judayam kichkina emas... — dedi u boshini egib, rasmga termilarkan. — Qara! U uxbab qoldi...

Men Kichkina shahzoda bilan shu tariqa tanishdim.

### III

Uning qayerdan paydo bo'lganini hadeganda bilib ololmadim. Kichkina shahzoda mem" savollarga ko'mib tashlar, ammo o'zidan biror nimani so'rasam, eshitmaganga olar edi. Faqat, anchadan keyin, gap orasida tasodifan aytib qolgan ba'zi so'zlaridan uning sirli tashrifi birmuncha oydinlashdi. Masalan, samolyotimni birinchi marta ko'rganida (samolyot rasmini chizib o'tirmayman, negaki, buni baribir eplayolmayman), u shunday deb so'radi:

— Bu qanaqa narsa?

— Bu narsa emas, samolyot. Mening samolyotim, u uchadi. Keyin unga osmoni falakda uchish qo'limdan kelishini faxrlanib  
aytdim. Shundau:

— E, shoshma! Sen hali osmondan qulab tushdingmi? — deya xitob qilib qoldi.

— Ha, — dedim kamtarlik bilan.

— Ana xolos! Qiziq-ku!

Kichkina shahzoda shunday deb qo'ng'iroqdek tovush bilan kulib yubordi. Buni ko'rib picha achchig'im chiqdi: axir men, boshimga kulfat tushganda, odamlar bunga jiddiy munosabatda bo'lishlarini yoqtiraman-da. Birozdan keyin u:

— Demak, sen ham osmondan tushib kelibsan-da, — dedi. — Xo'sh, qaysi sayyoradan kelding?

«E, bu kimsasiz sahroda to'satdan qayerdan paydo bo'lib qoldi, desam, gap bu yoqda ekan-da!», — deb o'yladim o'zimcha va dabdurustdan:

— Bundan chiqdiki, sen bu yerga boshqa sayyoradan tushib kelibsan-da? — deb so'radim.

Biroq u savolimga javob bermadi. Samolyotimni ko'zdan kechirarkan, asta bosh chayqadi:

— He, buning bilan uzoqdan uchib kelolmaysan, ko'rini turibdi... So'ng nima haqdadir xiyla o'ylanib qoldi. Keyin cho'ntagidan men

chizib bergen boyagi qo'zichoqni olib, uni go'yo qimmatbaho xazinadek tomosha qilishga kirishdi.

«Boshqa sayyoralar» xususidagi bu chala-yarim e'tirofdan so'ng ko'nglimdag'i qiziqish hissi naqadar alanga olib ketganini tasavvur qila olsangiz kerak. Iloji boricha ko'proq narsa bilib olish niyatida ustma-ust savol yog'dira ketdim:

— Sen qayoqdan uchib kelding, bolakay? Uying qayerda o'zi? Qo'zichog'imni qayoqqa olib ketmoqchisan?

U o'yga cho'mgancha jimib qoldi-da, keyin:

— Menga quticha bergenning juda soz bo'ldi-da, qo'zichoq kechasi uning ichida uxbabdi, — dedi.

— Albatta. Agar aqlli bola bo'lsang, senga arqon ham hadya qilaman — qo'zichoqni kunduzlari bog'lab qo'yasan. Qoziq ham beraman.

Kichkina shahzodaning qoshlari chimirildi:

— Bog'lab qo'yasan? Nima keragi bor buning?

— Chunki, bog'lab qo'ymasang, u biron yoqqa ketib adashib qoladi. Buni eshitib do'stim xandon otib kulib yubordi:

— E, qayooqqayam ketardi u?

— Bilib bo'lmaydi-da. Boshi oqqan tomonga ketaveradi, ketaveradi. Shunda Kichkina shahzoda jiddiy tortib:

— Mayli, hechqisi yo'q, — dedi. — Axir, men yashaydigan joy nihoyatda kichkina... — Birozdan so'ng anduh bilan qo'shib qo'ydi: — Boshing oqqan tomonga ketaverganing bilan uzoqqa ketolmaysan...

## VIII

Hademay bu gulni yaxshilab bilib oldim. Kichkina shahzodaning sayyorasida hammavaqt oddiygina, behasham gullar o'sardi. Ular kambarg, beozorgina bo'lib, nihoyatda kam joyni egallar, ertalab ochilib, oqshom chog'i so'lib qolar edi. Bu gul esa, kunlarning birida shamolda qaydandir uchib kelib sayyora tuprog'iga tushib qolgan urug'dan unib chiqqan edi. Kichkina shahzoda boshqa o't-o'lan, gulchechaklarga aslo o'xshamagan bu mo'jaz niholdan ko'zini uzolmasdi. Bordiyu u baobabning biror yangi xili bo'lsa-chi? Ammo nihol tez orada yuqoriga qarab bo'y cho'zishdan to'xtadi-da, g'uncha tugdi. Kichkina shahzoda umri bino bo'lib bunday katta g'unchalarni ko'rmagan edi, g'aroyib mo'jiza ro'y berajagini ko'ngli sezib, betoqat kuta boshladi. Notanish, noma'lum g'uncha esa hamon yuz ochishni xayoliga keltirmas, yashil gumbaz ichra pinhon o'tirgancha hanuz o'ziga oro berar edi. U qunt bilan rang tanlar, gulbarg liboslarni nozik badaniga bir-bir o'lchab ko'rardi — yorug' olamga allaqanday lolaqizg'aldoqqa o'xshab, hurpaygan-to'zg'igan holda diydor ko'rsatishni sira-sira istamasdi-da. U husni jamolini bor latofati-yu butun jozibasi bilan namoyon etmoqni orzu qilardi. Ha, ana shunday o'ziga bino qo'ygan go'zal edi u!

Sirli tayyorgarlik shu yo'sin uzoq davom etdi. Va, nihoyat, bir sahar chog'i, quyoshning ilk nurlari ko'rinishi bilanoq gulbarglar ohista ochildi, bu lahzaga shu qadar uzoq taraddud qilgan go'zal esa shirin esnab:

— Eh, esizgina, barvaqt uyg'onib ketibman-ku... Afv eting meni... — dedi. — Hamma yog'im to'zg'ib yotuvdi-ya...

Kichkina shahzoda hayrat va zavqini yashirolmadi:

— Naqadar chiroylisiz-a!

— Yo'g'-e, rostdanmi? — dedi gulq'uncha bunga javoban astagina. — Ha, balki sezgandirsiz, men quyosh bilan birga tug'ilganman-da.

Kichkina shahzoda bu g'unchaning kamtarlik bobida namuna bo'lolmasligini payqadi, biroq u shunchalar dilbar va latif ediki, odamni beixtiyor dovdiratib qo'yardi!

— Nonushta vaqtiyam bo'lib qoldimi deyman, — dedi u saldan keyin. — Baraka topkur, menga yordam qilarsiz-a?

Kichkina shahzoda behad xijolat bo'ldi, ko'zachada muzdek buloq suvidan keltirib uni sug'ordi.

Ko'p o'tmay go'zal gulg'unchaning xiyla mag'rur va arazchiligi ham ma'lum bo'lib qoldi-yu, Kichkina shahzoda u bilan til topishaman deb rosa qiyndi. Bir kuni gul poyasidagi to'rtta tikanni ko'rsatib:

— Qani, yo'lbars zo'r bo'lsa, bu yoqqa kelsin, men uning o'zidan ham, o'tkir tirnog'idan ham qo'rqlayman! — dedi.

— Mening sayyoramda yo'lbars yashamaydi,— deb e'tiroz bildirdi Kichkina shahzoda. — Keyin, yo'lbarslar o't yemaydi.

— Men o't emasman-ku, — dedi gulg'uncha ranjib.

— Kechiring meni...

— Yo'q, men yo'lbarsdan sirayam qo'rqlayman, ammo yelvizak degan narsadan yuragim chiqib ketadi. Sizda parda yo'qmi, meni shamoldan to'sib qo'ysangiz?

«G'alati-ya, o'simlik bo'laturib yelvizakdan qo'rqladi... — deb o'yaldi Kichkina shahzoda. — Judayam ko'nglini topish qiyin ekan bu gulning...>>

— Bu yer rosa sovuq ekan. Kechqurun meni shisha qalpoq bilan o'rab qo'ying, xo'pmi? Sayyorangiz haddan tashqari befayz ekan. Men kelgan joyda-chi...

Gulg'uncha gapini tugatmay jimb qoldi. Chunki bu yoqqa u hali urug' chog'ida uchib kelgan edi-da. O'zga olamlar haqida shu bois hech narsa bilmasligi tabiiy edi. Osongina fosh bo'hshing muqarrar vaziyatda esa yolg'on gapirmoq — borib turgan ahmoqlikdir! Gulg'uncha xijolat tortdi, so'ng go'yo Kichkina shahzoda, o'zini uning oldida qanchalar gunohkor ekanini sezsin, degan ma'noda ustma-ust yo'taldi:

— Qani parda, bormi?

— Men boyaga borib olib kelmoqchi edim, lekin gapingizni bo'lishga... Shunda gulg'uncha yana qattiqroq yo'tala boshladi: mayli, uning vijdoni

battar qiyalsin!

Kichkina shahzoda, garchi bu feruza gulni yaxshi ko'rib qolgan, unga xizmat qilishdan baxtiyor bo'lsa-da, ko'p o'tmay ko'nglida shubha uyg'ondi. U shunchaki aytilgan havoyi gaplami yuragiga yaqin olar, shu sabab o'zini benihoya baxtsiz sezar edi.

— Bekor uning gapiga qulq solgan ekanman, — deb qoldi u bir kuni menga. — Hech qachon gullarning aytganiga qulq solmaslik kerak ekan, ularga termilib, hidlaridan bahramand bo'lish lozim ekan, xolos. Mening gulim butun sayyorani xush bo'y larga burkagan edi, men esa bundan faqat quvonish zarurligini bilmasdim. Yo'lbars haqidagi, tiraq haqidagi anavi gaplarga kelsak... ulardan odamning ko'ngli zavq-shavqqa to'lishi kerak edi, men bo'lsam achchiqlanib o'tiribman-a... — Bir muddat suket saqlab, anduh bilan e'tirof etdi: — O'shanda hech nimani tushunmagan ekanman! Og'izdagi so'zga emas, amaldagi ishga qarab baho berish kerak edi. U menga o'zining muattar bo'ylarini armug'on etdi, hayotimni nurga chulg'adi. Men undan qochmasligim kerak edi! O'sha qovushmagan xiyla-nayranglar zamirida nozik bir latofat mujassam ekanini payqashim kerak edi. Axir, gullar shunchalik beqarorki!.. Ammo men nihoyatda yosh edim, muhabbat sir-asrоридан bexabar edim...

*O'ziningmitti sayyorasidan zerikkan Kichkina shahzoda qushlar bilan koinot bo yiab sayr etishga qaror qiladi. Uning sayyorasi yaqinida bir necha asteroid bor edi. Uning birida qiro, ikkinchisida shuhratparast, uchinchisidapiyonista, to'rtinchisida korchalon, beshinchisida charog'bon, oltinchisida esa jug'rofti olim yashar edi. Kichkina shahzoda bu asteroidlarning har birida bo'lib, ularda yashovchi kimsalar bilan suhbatlashadi. Biroq bu suhbatlarning hech biridan uning ko 'ngli taskin topmaydi va u o'z sayohatini davom ettiradi.*

## XVI

Shunday qilib, u qadamranjida qilgan yettinchi sayyora Yer edi.

Yer — oddiy sayyoralardan emas! Bunda bir yuz yigirmata qiro (negr qirollari ham shunga kiradi, albatta), yetti ming geograf, to'qqiz yuz ming korchalon, yetti yarim million piyonista, uch yuz o'n bir million shuhratparast, xullas, jami ikki milliardga yaqin katta odam mavjud.

Yerning naqadar kattaligi haqida sizga birmuncha tasavvur bermoq uchun shuni aytish bilangina kifoyalanaman: elektr kashf etilguniga qadar olti qit'ada charog'bonlarning to'rt yuz oltmisik ikki ming besh yuz o'n bir kishidan iborat ulkan lashkari tutib turilardi.

Agar chetdan razm solinsa, bu qoyilmaqom bir tomosha bo'lardi. Bu ulkan lashkarning xatti-harakatlari go'yo baletdagidek aniq bir qoidaga bo'ysunardi. «Sahna»ga birinchi bo'lib Yangi Zelandiya va Avstralaliyadagi charog'bonlar chiqishardi. Ular chiroqlarini yoqib, uxlagani ketishardi. Keyin xitoy charog'bonlarining navbati kelardi. O'z «raqsi»ni ado etib, ular ham parda ortiga g'oyib bo'lishardi. Ulardan so'ng Rossiya va Hindiston charog'bonlariga gal tegardi. Keyin esa Afrika va Yevropa, undan so'ng Janubiy Amerika va nihoyat, Shimoliy Amerikadagi charog'bonlarning navbati yetardi. Shu tariqa hech kim hech qachon adashib ketmas, hamma «sahna»ga o'z vaqtida chiqardi. Ha, bu chindan ham qoyilmaqom tomosha edi!

Faqat, shimoliy qutbdagi yagona fonusni yoqishi lozim bo'lgan charog'bon bilan uning janubiy qutbdagi hamkasbiga hammadan ham maza edi, ikkalasi ham ortiqcha tashvish-taraddudsiz yashardi: ular o'z hunarini yilda ikki martagina ko'rsatardi, xolos.

## XVII

Ba'zan haddan tashqari suxandonlik qilging kelib qolganda ozmi-ko'pmi mubolag'a qilasan kishi. Mana, men ham charog'bonlar haqida so'zlayturib, haqiqatga birmuncha xilofishtutdim. Ishqilib, sayyoramizni yaxshi bilmaydiganlarda u haqda noto'g'ri tushuncha paydo bo'lmasa bas! Aslida odamlar Yer yuzida unchalik ko'p joyni egallamaydi. Agar unda istiqomat qiladigan ikki milliard odam to'planib, xuddi mitingdagidek yelkama-yelka tursa, ular ortiqcha qiynalib-netmay, uzunasi va kengligi yigirma mil keladigan maydonga bemalol

joylashgan bo'lur edi. Butun insoniyatni Tinch okeandagi tangadekkina orolchaga ham sig'dirib yuborish mumkin.

Kattalar, albatta, bu gapingizga ishonmaydilar. Ular o'zlarini juda ko'p joyni egallaydigan chog'laydilar, o'zlarini xuddi baobablardek bahaybat va ulug'vor hisoblaydilar. Siz shunda ularga aniq hisob-kitob qilib chiqishni taklif eting. Bu gap ularga ma'qul bo'ladi, axir ular raqam desa o'lib qolishadi-ku. Siz esa bu bo'limg'ur arifmetika bilan boshingizni qotirib yotmang. Uning sariq chaqalik ham foydasi yo'q. Bilaman, siz shundoq ham menga ishonasiz.

Alqissa, Kichkina shahzoda Yerga tushgach, atrof-javonibda biror tirik jonnio'r may, behad hayron bo'ldi. Hatto, adashib boshqa sayyoraga kelib qoldimmikan, degan xayolga ham bordi. Biroq shu payt oyog'i ostida qum uzra kulcha bo'lib yotgan allaqanday kulrang narsa qo'zg'alib qo'ydi.

— Salom, — dedi Kichkina shahzoda har ehtimolga qarshi.

— Salom, — deb javob berdi ilon.

— Men qanday sayyoraga kelib qoldim?

— Yerga, — dedi ilon. — Afrikada turibsan hozir.

— Shunaqami? Nima, Yerda odam yashamaydimi?

— Bu joy — sahro. Sahroda hech kim yashamaydi. Ammo Yer katta. Kichkina shahzoda tosh ustiga o'tirib, osmonga tikildi.

— Qani endi, yulduzlarning nega charaqlashini bilsam, — dedi u o'ychan ohangda. — Chamasi, ular, ertami-kechmi har kim o'z yulduzini topib olishi uchun charaqlab tursa kerak. Ko'ryapsanmi, huv ana mening sayyoram — shundoqqina tepamizda... Ammo u qanchalar uzoqda, eh-he!

— Chiroli sayyora ekan, — dedi ilon. — Yerga nega kelding, nima qilasan bu yerda?

— Men feruza gulim bilan urishib qoldim, — deya iqror bo'ldi Kichkina shahzoda.

— E, shunday degin... Ikkovi ham jim qoldi.

— Odamlar qayoqda, odamlar? — deb tag'in so'radi nihoyat Kichkina shahzoda. — Sahroda, har qalay, o'zingni yolg'iz sezarkansan kishi...

— Odamlar orasida ham o'zingni yolg'iz sezaverasan, — deb qo'ydi ilon.

Kichkina shahzoda unga sinchiklab tikildi.

— G'alati jonivor ekansan, — dedi u. — Yo'g'onliging barmoqdek kelmaydiyu...

— Ammo men qirolning barmog'idan ko'ra ko'proq qudratga egaman, — deb e'tiroz bildirdi ilon.

Kichkina shahzoda kulimsiradi:

— Nahotki sen shu qadar qudratlbo'lsang? Loaql panjang ham yo'q-ku. Sen hatto sayohat qilishga ham yaramaysan...

— Men seni birorta kema eltolmaydigan ohs manzillarga olib ketishim mumkin, — dedi ilon, so'ng Kichkina shahzodaning boldiriga xalqa bo'lib chirmashdi.

— Kimgaki tegsam, uni asliga — tuproqqa aylantiraman, — dedi u. — Ammo sen yulduzdan tushib kelgansan, yulduzdek poksan...

Kichkina shahzoda indamay turaverdi.

— Senga rahmim keladi, — deya davom etdi ilon. — Tosh-metin bu zaminda sen shu qadar zaif, ojizsan-ki... Yodingda bo'lsin, qachonki olisda qolgan sayyorangni eslab yuraging g'ussaga to'lsa, men senga yordam qilishim mumkin. Men...

— Gapingni juda yaxshi tushundim, — dedi Kichkina shahzoda. — Ammo nega doim jumboq bilan so'zlaysan?

— Men hamma jumboqlarni hal etaman, — dedi ilon. Ikkalasi tag'in jimb qoldi.

*Kichkina shahzoda Yerda ancha kezib yuradi; tog' cho'qqilariga chiqadi, qum barxanlari, muzliklardan, chamanzorlardan o'tadi, bir tulki bilan tanishadi, bekat nazoratchisi bilan suhbatlashadi. Nihoyat, qissa boshida aytilganidek, samolyoti buzjlib sahroga qo'nishga majbur bo'Igan uchuvchiga duch kelib qoladi.*

## XXIV

Falokatga uchraganimga rosa bir hafta bo'lган edi, g'aroyib ichimlik sotadigan savdogar haqida eshitgach, so'nggi qultum suvimni ichib tugatdim.

— Ha-a, — dedim Kichkina shahzodaga qarab, — bu aytgan gaplaring hammasi qiziq, ammo men hali samolyotimni tuzatolganim yo'q, mana, ko'rning, oxirgi tomchi suvni ham quritdim, agar to'ppa-to'g'ri buloq boshiga borib qolsam, men ham o'zimni behad baxtiyor hisoblardim.

— Men do'st bo'lган Tulki aytardiki...

— Azizim, hozir tulki-pulking qulog'imga kirmaydi!

— Nega?

— Chunki tashnalikdan o'lib ketishimga ko'zim yetib turibdi...

U gap nimadaligini baribir tushunmadi-da, yana e'tiroz bildirdi:

— Do'sting bo'lsa yaxshi-da, qo'rqlay o'limga ham boraversang bo'ladi. Mana men Tulki bilan do'st bo'lganidan shunday xursandmanki...

«Qanday dahshatli balo xavf solib turganini u sezmaydiyam, bilmaydiyam. Umrida hech qachon na ochlikni, na tashnalikni ko'rgan. Unga quyosh nurining o'zi kifoya...»

Men buni tovush chiqarib aytmadim, o'zimcha o'yladim, xolos. Biroq, Kichkina shahzoda menga qaradi-da, to'satdan:

— Men ham chanqadim... yur, quduq qidirib ko'ramiz, — dedi. Men horg'in qo'l siltadim: bu poyonsiz sahroda tusmollab quduq

izlashdan nima ma'no bor? Ammo baribir yo'lga tushdik.

Uzoq vaqt bir-birimizga churq etmay bordik; nihoyat, qorong'i tushib, osmonda birin-ketin yulduzlar charaqlay boshladi. Tashnalikning zo'ridan meni biroz bezgak ham tutmoqda edi, shu bois yulduzlarni tushdagidek elas-elas ko'rardim. Kichkina shahzodaning gapi yodimga tushib, so'radim:

— Demak, tashnalik nimaligini sen ham bilar ekansan-da? Biroq u indamadi, faqat shunchaki so'zlagandek:

— Suv ba'zan yurakka ham kerak bo'ladi... — deb qo'ydi.

Uning nima demoqchiligini tushunmadim-u, so'rab o'tirmadim — uni so'roq qilishning behuda ekanini yaxshi bilardim.

U nihoyat holdan toyib, qumga muk cho'kdi. Men ham yoniga ohista cho'zildim. Allamahalgacha hech birimiz churq etmadik. Bir payt u sekingina:

— Yulduzlar judayam chiroyli, chunki qayeridadir guli bor, faqat ko'rinnmaydi, xolos, — deb qoldi.

— Ha, albatta, — dedim men, oy yog'dusida tovlanib yotgan qum to'lqinlariga tikilgancha.

— Sahro ham chiroyli... — deb qo'shib qo'ydi Kichkina shahzoda. Bu gap chindan ham to'g'ri edi. Sahro menga hamisha yoqadi. Qum

barxaniga chiqib o'tirasan, hech narsa ko'rinnmaydi, hech narsa eshitilmaydi, ammo baribir sahro qo'ynida nimadir bilinar-bilinmas yaltiraydi...

— Bilasanmi, sahro nima uchun yaxshi? — dedi u. — Chunki uning bag'rida, ko'z ilg'amas allaqayerlarda buloqlar yashiringan bo'ladi...

Hayratdan qotib qoldim. Birdaniga qumlardan taralib yotadigan sirli yog'duning nima ekanini angladim. Bir paytlar, yosh bola chog'imda ko'hna bir uyda yashardim. Naql qilishlaricha, bu uyga katta bir xazina ko'milgan ekan. Ravshanki, uni biror kimsa hech qachon topib ololmadi, kim bilsin, balki biror kimsa hech qachon qidirib ham ko'rmagandir. Ammo o'sha mish-mish tufayli uy go'yo tilsim qilingandek sehrli ko'rinnardi — uning bag'rida sir pinhon edi...

— Ha-a, — dedim ohista. — Yulduzmi, uymi, sahromi, nimaiki bo'lmasin, undagi eng go'zal narsa — ko'zga ko'rinnmaydigan narsadir.

— Do'stim Tulki bilan hamfikr ekansan, judayam xursand bo'ldim, — dedi Kichkina shahzoda quvonib.

Saldan keyin u uqlab qoldi. Men uni qo'limda ko'targancha yo'lda davom etdim. O'z-o'zimdan hayajonlanib ketgan edim. Nazarimda, qo'limda nafis bir xazinani ko'tarib borayotgandek edim. Nazarimda, Yer yuzida bundan ko'ra nozik va nafisroq hech narsa yo'qdek tuyulardi. Oy yog'dusida uning bo'zdek oqargan manglayiga, yumuq mijalariga, shamolda to'zg'ib yotgan tillarang kokillariga termilib borarkanman, o'zimga o'zim, bularning barchasi — shunchaki qobiq, der edim. Eng asosiy narsani ko'z ilg'amaydi, u siyratda, botinda pinhon...

Uning xiyol ochiq lablarida tabassum o'ynardi, ularga tikilib turib o'zimcha yana shunday deb o'yladim: mana, Kichkina shahzoda, beozorgina uqlab yotibdi, feroza guliga shunchalar sadoqatlici, odamning beixtiyor ko'ngli erib ketadi, gulining yodi-xayoli, sham shu'lasining sharpasidek, uni biron zum, hatto uyqusida ham tark etmaydi... Va shunda men uning aslidagidan ham ko'ra nozikroq ekanini angladim. Axir, sham shu'lasini ehtiyyot qilish kerak — quturgan shamol uni o'chirib qo'yishi mumkin.

Alqissa, shu tariqa yo'l yurdim-u mo'l yurdim va tong chog'i bir quduq boshiga yetib bordim.

## XXV

— Odamlar jon-jahdi bilan tezyurar poyezdlarga oshiqib nima izlayotganini o'zlar ham bilmaydi, — dedi Kichkina shahzoda. — Shuning uchun ham orom

neliginibilmay goh bir tomonga, goh ikkinchi tomonga zir yugurardilar... — Xiyol o'tgach, shunday deb qo'shib qo'ysi: — Lekin bari behuda...

Biz topgan bu quduq Sahroyi Kabirdagi boshqa quduqlarga o'xshamasdi. Odatda, bu yerdagi quduq qumni nari-beri o'yib yasalgan chuqurchadan iborat boiardi. Bu esa qishloqlarda uchraydigan haqiqiy quduq edi. Ammo atrof-javonibda qishloqning asari ham yo'qhgi uchun men buni tushga yo'yib qo'ya qoldim.

— G'alati-ya, — dedim Kichkina shahzodaga, — hammasi tayyor — chambarak ham, chelak ham, arqon ham....

U kulimsirab qo'ydi-da, arqonni tortib, chambarakni buradi. Chambarak xuddi shalog'i chiqqan charxpalakdek g'ichirlab aylanana boshladi.

— Eshityapsanmi? — deb so'radi Kichkina shahzoda. — Quduqni uyg'otib yubordik, ana, endi xirgoyi qilishga tushdi...

Men, u charchab qoladi, deb xavotirda edim.

— Suvni o'zim tortaman, — dedim shosha-pisha, — sening kuching yetmaydi.

Suv to'la chelakni sekin tortib chiqardim-da, quduqning tosh qirg'og'iga avaylab qo'ydim. Qulog'imda hamon chambarakning g'ichirlab aylanishi aks sado berar, chelakdagisi suv ohista chayqalar, mavjlarida quyosh shu'lasi o'ynar edi.

— Shu suvdan ichgim kelyapti, — deya menga javdirab boqdi Kichkina shahzoda. — Bir qultum ber...

Shunda men uning nima izlab yurganini tuyqusdan angladim!

Chelakni ko'tarib, asta labiga tutdim. U ko'zlarini yumib olgan, huzur qilib obi hayot simirar edi. Bu chinakam bir shodiyona edi. Chunki bu oddiy suv emasdi. U sahroda, yulduzlar ostidagi uzoq sargardonlikdan so'ng, chambarakning g'ichirlab aylanishidan so'ng, qo'llarimning harakatidan so'ng bizga muyassar bo'lgan noyob, ilohiy bir ne'mat edi. Go'yo yurakka tengsiz malham edi u...

— Sening sayyorangda, — dedi Kichkina shahzoda, — odamlar bir chamanzorda besh mingta gul o'stirar ekan-u, izlaganini topolmas ekan...

— Topolmaydi, — deb ma'qulladim men.

— Holbuki, ular izlagan narsani bir dona guldan, bir qultum suvdan ham topish mumkin.

— To'g'ri aytasan, — deb tasdiqladim yana. Kichkina shahzoda tag'in o'yga cho'mdi:

— Afsuski, ko'zlar basir. Ko'ngil ko'zi bilan izlash lozim. Suvdan miriqib ichdim. Nafas olishim yengillashdi. Sahar chog'i

qum xuddi asaldek tillarang tovlanadi, unga tikilgan sari o'zimni baxtiyor sezardim. Chindan ham, nega, nedan qayg'u chekay?..

— Sen va'dangning ustidan chiqishing kerak, — dedi Kichkina shahzoda muloyimlik bilan, tag'in yonimga kelib o'tirarkan.

— Qanaqa va'da?

— Esingdami, qo'zichog'ingga no'xta... beraman, degan eding?.. Axir, men o'sha gulga javobgarman-ku...

Cho'ntagimdan chizgan rasmlarimni oldim. Kichkina shahzoda ularni ko'zdan kechirarkan, kuhmsiradi:

— Baobablarining xuddi karamga o'xshaydi-ya...

Men bo'lsam, baobabni boplab chizganman, deb gerdaiy yuribman-a!

— Tulkingning qulog'i bo'lsa... shoxning o'zi! Uzunligini qara-yu! — U yana kulib yubordi.

— Bu gaping insofdan emas, og'ayni. Axir, men umrimda bo'g'ma ilonning ichki-yu tashqi ko'rinishidan boshqa narsa chizgan emasman-da.

— Mayli, hechqisi yo'q, — dedi u meni yupatib. — Bolalar shundoq ham tushunib olishadi.

Keyin men uning qo'zichog'iga no'xta chizib berdim. Suvratni Kichkina shahzodaga berdim-u negadir yuragim zirqirab ketdi.

— Nimanidir o'y lab qo'ygansan-u, menga aytmayapsan... Biroq u indamadi.

— Bilasanmi, — dedi nihoyat, — ertaga sizlarning huzuringizga Yerga kelganimga bir yil to'ladi... — U tag'in jimib qoldi, bir zum o'tgach: — Men mana shu atrofga tushgan edim... — dedi. Shunday dedi-yu duv qizarib ketdi.

Negaligini xudo biladi-yu dilimni yana qo'rg'oshindek g'ashlik qopladi. Lekin baribir yurak yutib so'radim:

— Bundan chiqdiki, bir hafta avval, ikkalamiz tanishgan tongda, odamzod makonidan ming-ming chaqirim uzoq bu ovloq yerlarda sen yolg'iz o'zing bejiz kezib yurmagan ekansan-da? Osmondan tushgan joyingga qaytib kelayotganmiding?

Kichkina shahzoda battarraq qizarib ketdi.

Men endi hadiksirab so'radim:

— Balki, bir yil to'lgani uchun shunday qilmoqchimisan?

U yana loladek qizardi. U birorta savolimga javob bermadi, ammo qip-qizarib ketgani — «ha» degani emasmi?

— Qo'rqib ketyapman... — deya so'z boshladim xo'rsinib. Ammo u gapimni kesdi:

— Ishga kirishadigan vaqting bo'ldi. Tura qol, mashinangning yoniga bor. Men seni shu yerda kutaman. Ertaga kechqurun qaytib kelgin...

Ammo baribir ko'nglim tinchimadi. Beixtiyor Tulkini esladim. Qo'lga o'rganib qolganidan keyin ba'zan ko'z yosh to'kishga ham to'g'ri keladi.

## XXVI

Quduqdan sal narida ko'hna tosh qo'rg'onning vayronalari saqlanib qolgan edi. Ertasi oqshom ishni tugatib qaytarkanman, uzoqdan Kichkina shahzodaning choldevor ustida oyog'ini osiltirib o'tirganini ko'rdim. Yaqinlashgach, ovozini ham eshitdim.

— Esingdan chiqdimi? — derdi u. — Bu gap xuddi shu yerda bo'limgan edi-yu, lekin...

Chamasi, kimdir unga javob qaytarmoqda edi, chunki shunday deb e'tiroz bildirdi:

— To'g'ri, bu gap bundan roppa-rosa bir yil avval bo'lgan edi, lekin boshqa joyda...

Qadamimni tezlatdim. Ammo devorning tagida zog' ham ko'rinasdi. Biroq Kichkina shahzoda hamon kim bilandir gaplashib o'tirardi:

— Albatta-da. Mening izimni qumdan osongina topasan. Keyin kutib turgin, bugun kechasi men o'sha yerga kelaman.

Devorning oldigacha yigirma qadamlar chamasi qoldi, lekin men hanuz hech narsani ko'rmadim.

Biroz jimlikdan so'ng Kichkina shahzoda:

— Zaharing o'tkirmi o'zi? Ishqilib, meni ko'p qiynamaysanmi? — deb so'radi.

Turgan joyimda qotib qoldim, yuragim orqamga tortib ketdi, biroq hamon biror nimani tushunmas edim.

— Keta qol endi, — dedi Kichkina shahzoda. — Men pastga sakramoqchiman.

Shunda oyoq ostiga qaradim-u, ikki gaz nariga sapchib tushdim! Devorning shundoqqina tagida, odamni chaqsa, yarim minutda til tortmay o'ldiradigan bir ilon bo'ynini gajak qilgancha Kichkina shahzodaga tikilib turardi. Cho'ntagimdag'i to'pponchani paypaslagancha unga qarab yugurdim, ammo ilon sharpamni sezib, qurib borayotgan jilg'adek, qum uzra asta sirg'algancha, bilinar-bilinmas ohanrabo sas chiqarib toshlararo g'oyib bo'lди.

Rosa vaqtida yetib kelgan ekanman, boyoqish Kichkina shahzodamni dast ko'tarib oldim. Rangi qordek oqarib ketgan edi.

— Nima qilganing bu, bolakay! — dedim nafasim tiqilib. — Nega ilon bilan suhbat qurib o'tiribsan?

Shunday deb, uning doimiy yo'ldoshi — tillarang sharfini bo'yniga taqib qo'ydim, yuz-ko'zini yuvib, majburan suv ichirdim. Ammo boshqa biror narsani so'rashga yuragim dov bermadi. U menga sinchiklab tikildi-da, bo'ynimdan mahkam quchdi. Yuragining yarador qushdek betoqat tipirchilayotganini yaqqol eshitib turardim.

— Nihoyat mashinangni tuzatib olibsan, judayam xursand bo'ldim, — dedi u.

— Endi bemalol uyingga qaytishing mumkin...

— Shoshma, sen buni qayoqdan biling?!

Chunki, barcha balolarni dog'da qoldirib, samolyotimni tuzatishga muvaffaq bo'lqanimni aytmoq uchun endigma og'iz juftlagan edim-da! U savolimni odatdagidek javobsiz qoldirib, shunday dedi:

— Men ham bugun uyimga qaytaman. Keyin g'amgin ohangda qo'shib qo'ydi:

— Lekin mening safarim senikidan uzoqroq... senikidan qiyinroq... Xuddi go'dak boladek mahkam bag'rimga bosib turardim-u, lekin,

nazarimda, u go'yo og'ushimdan sirg'alib chiqqancha bo'shliqqa singib ketayotgandek tuyulardi, uni tutib qolishga o'zimni ortiq qodir emasdek his qillardim...

U olis-olislarga horg'in, o'ychan termilarkan:

— Menda sening qo'zichog'ing qoladi. Qutichayam. No'xta ham... — dedi, dedi-yu g'amgin kulimsirab qo'ydi.

Men uzoq kutdim. U go'yo asta-sekin o'ziga kelayotgandek edi.

— Biror narsadan qo'rqqanga o'xshaysan, bolakay... Qo'rqmay ham bo'ladimi! Ammo u ohistagina kulimsiradi:

— Bugun kechqurun bundan battar qo'rqsam kerak... Muqarrar falokat tuyg'usi tag'in vujud-vujudimni muzlatib, karaxt qilib tashladi. Nahot, nahotki,

uning jarangdor kulgisini qayta eshitmasam? Axir, bu kulgi men uchun sahrodag'i pokiza buloq bilan barobar-ku!

— Bolakay, kulginingi sog'indim, bir kulgin... Ammo u bunga javoban:

— Bugun bir yil to'ladi, — dedi. — Yulduzim bir yil avval men qulab tushgan joyga rosa ro'baro' keladi...

— Menga qara, bolakay, axir, bularning barchasi — ilon ham, yulduz bilan uchrashuv ham ahmoqona bir tush-ku, to'g'rimi?

Biroq u gapimga indamadi.

— Eng asosiy narsa — ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan narsa... — dedi u.

— Ha, albatta.

— Bu ham xuddi gulga o'xshaydi. Agar olis yulduzlardan birida o'sadigan gulni yaxshi ko'rsang, kechasi osmonga boqib huzur qilasan. Ko'z o'ngingdan yulduzlarining jami guldek ochilib yotadi...

— Albatta...

— Kechasi yulduzlarga termilasan. Mening yulduzim benihoya kichkina, uni senga ko'rsatolmayman. Shunday bo'lgani tuzuk. U sen uchun osmon to'la yulduzning biri bo'lib qolgani ma'qul. Shunda sen osmonga boqishni yaxshi ko'rib qolasan... Jamiki yulduz senga oshno bo'lib qoladi. Keyin, men senga nimadir sovg'a ham qilmoqchiman... — U shunday deb kulib yubordi.

— Eh, bolakay, bolakay, kulgilaringni qanchalar yaxshi ko'rishimni bilsang edi!

— Senga bermoqchi bo'lgan sovg'am ham mana shu-da...

— Yo'g'-e?

— Har kimning o'z yulduzi bor. Ba'zilarga, aytaylik, sarbon-u sayyoohlarga — ular yo'l ko'rsatuvchi, ba'zilarga esa shunchaki mitti shu'la, xolos, olimlarga — yechish lozim bo'lgan masala, men ko'rgan korchalonga esa — oltin bo'lib ko'rindi ular. Ammo bu odamlarning barchasi uchun yulduzlar bezabon. Sening yulduzlarining esa butunlay o'zgacha bo'ladi...

— O'zgacha deysanmi?

— Kechalari osmonga boqasan-u men yashaydigan, mening kulgim yangrayotgan yulduzlarining barchasi jilmayib kulayotgandek tuyuladi. Ha, sening kula biladigan yulduzlarining bo'ladi!

U shunday dedi-yu, kulib yubordi.

— Yupanganingdan keyin esa (oxir-oqibat doim yupanasan baribir) qachondir men bilan oshno bo'lganiningi eslab, yuraging quvonchga to'ladi. Sen hamisha mening do'stim bo'lib qolasan, hamisha menga qo'shilib kuhshni istab yurasan. Ba'zan derazangni mana shunday lang ochib yuborasan-u, shodumon bo'lib ketasan... Shunda do'stlaring, nega u osmonga boqib bunchalar xursand bo'layotgan ekan, deb qattiq hayron bo'ladilar. Sen bo'lsa ularga: «Ha, ha, men doimo yulduzlarga boqib xushxandon kulaman!» deysan. Ular esa seni, aqldan ozib qoldimikan, deb gumon qilishadi... ko'rdingmi, qanday chatoq hazil boshladim sen bilan...

U yana qo'ng'iroqdek tovush bilan kulib yubordi.

— Go'yo yulduzning o'miga senga bir shoda jarangdor qo'ng'iroq sovg'a qilgandek bo'ldim...

Yana xandon tashlab kului, so'ng tag'in jiddiy tortdi:

— Bilasanmi... bugun kechasi... yo'q, yaxshisi kelmay qo'ya qol.

— Men seni yolg'iz qoldirmayman.

— Senga, biror joyim og'riyotgandek... hatto jonberayotgandek bo'lib tuyulishim ham mumkin. Shunaqa bo'ladi o'zi. Kelmay qo'ya qol, kerakmas.

— Men seni yolg'iz qoldirmayman...

U nimadandir qattiq tashvishmand ko'rinardi.

— Bilasanmi... haligi... ilonni o'ylayapman. Tag'in u seni chaqib olsa-ya? Axir u yovuz hayvon-ku. Birovni chaqsa, huzur qiladi.

— Men seni yolg'iz qoldirmayman. U birdan xotirjam tortdi:

— Ha, aytmoqchi, uning zahri ikki kishiga yetmaydi...

Kechasi uning qanday turib ketganini sezmay qolibman. U sassiz-sharpasiz sirg'alib ketib qolgan edi. Nihoyat, uni quvib yetganimda, u jadal, dadil odim otib borardi. Meni ko'rib:

— Ha, semmisan... — dedi, xolos.

So'ngra asta qo'limdan tutdi-yu, allanimadan cho'chigandek darrov tortib oldi:

— Bekor kelyapsan men bilan. Ahvolimni ko'rib qiynalasan. Nazaringda o'layotgandek ko'rinalman, lekin bu yolg'on bo'ladi...

Men indamay boraverdim.

— Bilasanmi... yo'lim nihoyatda olis, jismim esa nihoyatda og'ir. Men uni olib ketolmayman.

Men indamay boraverdim.

— Bu xuddi eski qobiqni tashlagandek bir gap. Hech bir qayg'uradigan joyi yo'q buning.

Men indamay boraverdim.

Uning biroz ruhi tushdi, ammo baribir zo'r berdi:

— Mana ko'rasan, juda soz bo'ladi hali. Men ham yulduzlarga termilaman. Shunda jamiki yulduz g'ichirlab aylanadigan chambarakli ko'hna quduq bo'lib ko'rinaldi. Va ularning har biri menga ichgani suv beradi...

Men indamay boraverdim.

— Bir o'ylab ko'rgin-a, qanchalik soz bo'ladi o'shanda! Senda besh million qo'ng'iroq bo'ladi, menda esa — besh million buloq...

U birdan jimib qoldi — bo'g'ziga yig'i tiqilib keldi.

— Mana, yetib ham keldik. Qo'y endi meni, bu yog'iga o'zim boray. Shunday deb qum uzra bemajol cho'kdi — yuragini qo'rquv chulg'adi.

Xiyol o'tgach, sekkingina shivirladi:

— Bilasanmi... gulim... mengulimgajavobgarman. Chunki u shunchalar zaif, nochorki! Soddaligini aytmaysanmi? O'zini himoya qilmoqqa to'rttagina arzimas tikanidan boshqa narsasi yo'q...

Men ham qumga muk tushdim, oyoqlarimdan mador qochib, chalishib ketmoqda edim.

— Mana... tamom endi... — dedi u.

Bir lahza tek qoldi-yu, so'ng o'rnidan turdi. Bir qadam ilgari bosdi...

Men esa hamon joyimdan qo'zg'alolmas edim.

Oyoqlari ostida go'yo sariq yashin chaqnagandek bo'ldi, bir daqiqa qotib qoldi. Yig'lamadi, bo'zlamadi. So'ng xuddi bolta urilgan daraxtdek ohista quladi: na bir sharpa, na bir sas... Illo, qum zarralari tiq etgan tovushni ham yutib yuboradi-da.

## XXVII

Mana, o'shandan buyon olti yil o'tdi... Hanuzgacha bu haqda biror kimsaga churq etib og'iz ochganim yo'q. Qaytib kelganimda, do'stlarim meni tag'in esomon ko'rib sevindilar, biroq ko'nglim benihoya g'ash edi, so'ragan odamga:

— Charchabman shekilli... — deb qo'ya qolardim.

Lekin, asta-sekin baribir yupana boshladim. Batamom emas, albatta. Biroq shu narsani yaxshi bilamanki, u o'z sayyorasiga qaytib ketgan, chunki tong yorishgach, qum ustida jasadini ko'rmadim. Uning jismi unchalik og'ir ham emasdi-da.

Kechalari yulduzlarga quloq tutib o'tirishni yaxshi ko'raman. Go'yo besh million qo'ng'iroq shodumon jiringlayotgandek...

Lekin, buni qarangki, qo'zichoqqa no'xta chizib berayotganimda, tasmachasini unutgan ekanman. Endi Kichkina shahzoda uni qo'zichoqqa taqa olmaydi. Shu bois goh-goh o'zimdan so'rayman: u yoqda, do'stimning sayyorasida ahvol qalay ekan? Tag'in qo'zichoq gulni yeb qo'ygan bo'lsa-ya?

Ba'zan esa o'zimga o'zim: «Yo'g'-e, unday emasdир! Kichkina shahzoda kechasilari feruza gulni shisha qalpoq bilan yopib qo'yardi, qo'zichoqqa ham ko'z-quloq bo'lib tursa kerak», deb taskin beraman-u, birdan quvonib ketaman. Shunda yulduzlar ham ohista jilmayib kulayotgandek tuyuladi.

Gohida esa: «Ba'zan nimadir xotirdan faromush bo'ladi-ku, axir... Unda, har balo ham bo'lishi mumkin! Bordi-yu, Kichkina shahzoda bir kuni shisha qalpojni esidan chiqarib qo'ysa yo qo'zichoq kechasi sezdirmay qutichasidan chiqib ketib qolsa-ya...» deb o'ylayman vahimaga tushib. Shunda osmondagи qo'ng'iroqlarim ham unsizgina yig'layotgandek tuyuladi...

Bularning barchasi allanechuk aql bovar etmaydigan sirli hodisalardir. Aminmanki, sizga ham, Kichkina shahzodani yaxshi ko'rib qolgan boshqa har qanday odamga ham, xuddi men kabi, koinotning allaqaysi burchagida biz hech qachon ko'rmagan bir qo'zichoq bizga notanish bir gulni yeb qo'ygan-qo'ymagani aslo bari bir bo'lmasa kerak; dunyoning ko'zimizga qanday ko'rinishi ana shunga juda-juda bog'liq...

Boshingizni ko'tarib, bepoyon osmonga boqing. So'ngra o'zingizdan: «O'sha feruza gul omon bormikan? Bordi-yu qo'zichoq uni yeb qo'ygan bo'lsa-ya?», deb so'rang. Ana shunda ko'rasiz — olam ko'z o'ngingizda butkul boshqacha jilvalana boshlaydi...

Va birorta katta odam buning qanchalar muhim ekanini hech qachon tushuna olmaydi!

*Bu yer, meningcha, dunyodagi eng go 'zal va eng hasratli makon bo 'Isa kerak. Sahroning bu kimsasiz parchasi sal yuqorida ham tasvirlangan edi, ammo uni yaxshiroq ko'rib olishingiz uchun yana qaytadan chizmoqchiman. Xuddi shu joyda Kichkina shahzoda Yer yuzida birinchi bor paydo bo'lgan, keyin xuddi shu joyda g'oyib bo'lgan edi. Diqqat bilan qarab eslab qoling, agar qachonlardir Afrikaga,*

*sahroga borib qolsangiz, bu joyni tanishingiz oson bo'ladi. Mabodo shu yerdan o'tar bo 'Isangiz, o 'tinib so 'rayman, mana shu yulduz ostida bir nafas to 'xtangf Bordi-yu shu payt tillarang sochli bir bola yoningizga kelib, qo 'ng'iroqdek tovush bilan kula boshlasa, birorta savolningizga javob bermasa, o ylaymanki, kimga duch kelganizingizni albatta sezsangiz kerak. O'shanda, sizdan o'tinib so 'rayman, dardli dilimga yupanch berish esingizdan chiqmasin: uning qaytib kelganini menga zudlik bilan xabar qiling.*

### **Savol va topshiriqlar**

1. Antuan de Sent-Ekzyuperi haqida nimalar bilasiz? Gapirib bering. Uning asl kasbi nima edi?
2. Adib "Kichkina shahzoda" qissasidan boshqa yana qanday asarlar yaratgan?
3. Uchuvchi Kichkina shahzoda bilan qay holatda tanishdi?
4. Kichkina shahzoda undan qanday qo'zichoq chizib berishni iltimos qildi?
5. Qissada Kichkina shahzoda tilidan «ko'ngil ko'zi» degan ibora ishlatalgan. Uni izohlashga harakat qiling-chi.
6. Uchuvchi Kichkina shahzodadan ayrilganidan nega bunchalar o'kinadi, deb o'ylaysiz?
7. Kichkina shahzoda bilan ilon o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatni o'qituvchingiz yordamida muhokama qiling.
8. "Kichkina shahzoda" qissasini to'liq o'qib chiqing. So'ng qissaning badiiy jihatlari va g'oyaviy mazmuni to'g'risida sinfdoshlarining bilan suhbat uyushtiring.

## **ADABIYOTLAR**

O'zbek va jahon bolalar adabiyoti:Majmua: Pedkollejlari va texnikumlari uchun /Tuzuvchi-muallif M.Jumaboev. – T.: O'qituvchi, 1996.

Muqaddas xazina (To'plam): Ertaklar, hikoyalar, qissalar. – T.: Yulduzcha, 1987..

Qosimov A., Xo'jaev S. XX asr chet el adabiyoti. – Farg'ona, 2003.

Qosimov A.,Xo'jaev S. XX asr g'arb adabiyotidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: Akademnashr, 2011.

D.Defo. Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari. – T.: Cho'lpon,1994.

Svift J. Gulliverning sayohatlari. – T.: Sharq, 2009.

Svift J., Lagerlyof S. G'aroyib sayohatlar: Qissalar. – T.: Yulduzcha, 1989.

Vern J. O'n besh yoshli kapitan. – T.: Sharq, 2003.

Andersen G.X. Qor odam: Ertaklar. – T.: Kamalak, 1991.

Aka-uka Grimmlar. Asalari qirolichasi: Ertaklar. – T.: Sharq, 2006.

Aka-uka Grimmlar.Tipratikan va quyon: hikoyalar, ertaklar . – T.: DAVR PRESS, 2008.

Lindgren A., Sent-Ekzyuperi A.de. Mittivoy va Karlson. Kichkina shahzoda: ertak-qissalar. – T.: Adabiyot va san'at, 1988.

Rodari J. Rim ertaklari. – T.: "Радуга" nashryotining Toshkent bo'limi, 1989.

Rodari J. Jelsomino yolg'onchilar mamlakatida: Ertak-qissa. – T.: Sharq, 2010.

Perro Sh. Ona g'oz ertaklari: Ertaklar. – T.: Sharq, 2000.

Tolstoy L. Bo'ri bolalarini qanday o'rgatadi: hikoyalar, ertaklar. – T.: Cho'lpon,1992.

Tolstoy L. Akula: hikoyalar, ertaklar, masallar . – T.: DAVR PRESS, 2008.

Pushkin A.S. Ertaklar. – T.: Sharq, 2004.

Marshak S.Y. She'rlar va ertaklar. – T.: O'zdavnashr, 1950.

Sent-Ekzyuperi A.de. Kichkina shahzoda: – T.: Yosh gvardiya, 1986.

Sent-Ekzyuperi A.de. Kichkina shahzoda: – T.: Ma'naviyat, 2003.

.

## MUNDARIJA

So'z boshi.....	3
Daniel Defo.....	4
Sharl Perro.....	9
Jonatan Swift.....	13
Xans Kristian Andersen.....	22
Aka-uka Grimmlar.....	26
Redyard Jozef Kipling.....	30
Janni Rodari.....	31
Aleksandr Sergeyevich Pushkin.....	47
Lev Nikolayevich Tolstoy.....	55
Korney Ivanovich Chukovskiy.....	58
Samuil Yakovlevich Marshak.....	63
Antuan de Sent-Ekzyuperi.....	67
Adabiyotlar.....	88



*Ilmiy-ommabop nashr*

Abdulla Ahronqulov, Akbar Rahmonqulov

JAHON BOLALAR ADABIYOTI NAMOYONDALARI

Muharrir: Dilafruz. Yuldasheva

Musahhih: Zuhriddin Abdulazizov

Texnik muharrir: Nuriddin Rahmon

